

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ОYBEK RAJABOV

BUXORO VOHASI QADAMJOLARI
TARIXI

O'quv qo'llanma

Ta'lif yo'naliishi: 5120300 - Tarix (mamlakatlar va mintaqalar
bo'yicha)

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2023

UO'K 94(575.146)
63.3(5O'zb-4Bux)ya73

R 17

Rajabov, O'.

Buxoro vohasi qadamjolari tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / O. Rajabov .- Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2023.-144 b.

KBK 63.3(5O'zb-4Bux)ya73

O'quv qo'llanma Buxoro vohasi va uning atrofidagi muqaddas qadamjolar, tabarruk ziyoratgohlar, Buxoroda o'tgan barcha avliyo, allomalar, ularning ibratli hayot yo'li, kasbu kori, ilmu-ma'rifati, iymon-e'tiqodi hamda ular bilan bog'liq rivoyatlar tarixi bo'yicha ma'lumotlat atroflicha bayon etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma tarix ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavr hamda magistrlarni tayyorlash, soha kadrlari sifatini yanada oshirish talablaridan kelib chiqib, fanning mohiyati va ahamiyatini ochib berishda milliy hamda xorijiy ilmiy-metodologik yondashuvlardan xolisona foydalanildi.

Mas'ul muharrir:

To'rayev H.H., tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Boltayev A.H., t.f.f.d (PhD), dotsent

Shukurllayev Yu.A., tarix fanlari nomzodi, dotsent

**O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innivatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli
buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish
raqami 232-703.**

ISBN 978-9910-04-082-5

SO‘Z BOSHI

O‘lkamizning milliy-madaniy hamda boy tarixiy merosi bir necha ming yillar silsilasida rivojlanganligi, bu tarix-qadimda Turon, Turkiston, Movarounnahr deb atalgan hozirgi siyosiy jug‘rofiyaga tutash hududlarda yashab kelgan ajdodlarimizning, shu mamlakatning o‘tmishi sifatida o‘rganiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi tarixiy tadqiqotlar doim yangi manbalar va ilg‘or ilmiy yondashuvlar asosida to‘ldirilib, tuzatilib boriladi.

Vatanimizning eng qadimgi tarixiy makonlaridan biri hisoblangan qadimgi Buxoro zamini shahrati jahonga yoyilgan tarixiy shahar, boy madaniy merosi, jumladan, buyuk ajdodlari tomonidan bino etilgan betakror me’moriy obidalari va ziyoratgohlari bilan mashhurdir. Bugungi kunda yurtimizda mavjud minglab tarixiy moddiy-madaniy yodgorliklarning talaygina qismi dunyo musulmonlari uchun muqaddas hisoblangan ziyoratgohlar jumlasiga kiradi.

O‘z davrida islom sivilizatsiyasining yirik markazlaridan bo‘lgan Movarounnahr o‘lkasidan ko‘plab diniy va dunyoviy ilm olimlari, tasavvuf shayxlari va boshqa ulug‘ ulamolar etishib chiqqan bo‘lib, ulardan muayyan qismining so‘nggi orom topgan makonlari keyingi avlodlar tomonidan ziyorat qilinadigan maskanlarga aylantirilgan. Buxorodagi Abu Hafs Kabir Buxoriy - Hazrati Imom, Chor Bakr, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy va Xoja Bahouddin Naqshband maqbaralari yurtimizda mavjud bo‘lgan ziyoratgohlardan kichik bir qismidir. Islom olamiga minglab ulamolar hadya etgan muqaddas zaminimiz ziyoratgohlar va qadamjolar o‘lkasi sifatida ham mashhurdir.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, milliy va diniy qadriyatlarning qaytadan tiklanishi asnosida buyuk ajdodlarimiz qabrlari obod qilinib, eski maqbaralar ta’mirlandi va yangilari bunyod etildi. Mamlakatimiz tarixiy taraqqiyotining “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” asosida boshlangan yangi bosqichida esa, yurtimizda, umuman, turizm, jumladan, ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Fan, ta’lim va madaniyat masalalari bo‘yicha Islom olami tashkiloti ISESCO tomonidan «2020 yil Buxoro shahri - islom olami madaniyati poytaxti» deb e’lon

qilinishi, shuningdek, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 915 yilligi va Xoja Bahouddin Naqshband tavalludining 700 yilligi munosabati bilan keng miqyosdagi xalqaro tadbirlar bo'lib o'tishi mo'ljallangan. Biz hozirgi davrdagi tinchlik, barqarorlik va totuvlik, milliy taraqqiyot sharoitida mustaqillik mohiyatini chuqr anglab, xalqimiz tarixidagi bunyodkorlikka intilish, vatanparvarlik namunalari, buyuk ajdodlarimizning betimsol jasorati va ezgu ishlarini doimiy ravishda yodda tutishimiz lozim.

DURDONA

1-MAVZU. KIRISH. BUXORO VOHASI

QADAMJOLARI TARIXI FANINING PREDMETI,

MAQSADI VA MANBAVIY ASOSLARI

Yurtimiz o‘zining muqaddas qadamjo va ziyoratgohlari, aziz avliyolar mangu qo‘nim topgan maqbaralari bilan mashhur. Zero, ulug‘ zotlar qaysi go‘sada yashashni ixtiyor etsa, o‘sha joyda ma’naviy-ruhiy poklanish ro‘y beradi. Muqaddas zaminimizdan ko‘plab diniy va dunyoviy ilm olimlari, tasavvuf shayxlari va boshqa ulug‘ shaxslar yetishib chiqqan bo‘lib, ularning aziz avliyolar, pиру murshidlarning qabrlari, qadamjolari keyingi avlodlar tomonidan ziyorat qilinadigan maskanlarga aylantirilgan. Buxoro Islom olamiga minglab ulamolar hadya etgan zamin.

“Buxoro” - “ilm” demakdur. Bu shaharda ulamo va fuzalo ko‘p bo‘lgani bois, shu nom bilan atagandir”. Ulug‘larning rivoyat etishicha, Buxoroyi sharif va uning atrofida etti ming avliyo, alloma, zohid, obid, oshiq, imom, muhaddis, shayx dafn qilingan. Buxoroyi sharifda uchta payg‘ambar, jumladan, Ayub alayhissalom, Dovud alayhissalom, Xizr alayhissalom qadamjolari bor. Bir rivoyatda aytishicha, hamma joyga osmondan nur yog‘ilsa, Buxoroyi sharifdan osmonga nur ko‘tarilar ekan. Bu nur-marifat, ilmu irfon nuridir. Nur borki, zulmat chekinadi. Nur borki, yo‘limiz yorug‘. Nur, chiroq bizning tashqi olamimizni munavvar qiladi. Lekin qalbimizni ham munavvar etuvchi nur bor. Bu - marifat nuri, manaviyat ziyyosidir.

Azim Buxoro - Islom dinining markazi, aziz avliyolar, pirlar va oriflar yurti. Har qarichi insonlar qalbini ma‘rifat nuri, ma’naviyat ziyyosi ila munavvar etguvchi buyuklarga makon bo‘lgan, har hovuch tuprog‘ini piri komillar qo‘llaguvchi, ilohiy ruhlar tavof etgan muqaddas zamindir.

Muin ul-fuqaro Ahmad ibn Mahmud Buxoriy kitobida Buxoro shahri va uning atroflarida 160 ta avliyolik darajasiga sazovor bo‘lgan mashoyihlar, olimlar, donishmandlar va shoirlarning qabrlari va qadamjolari mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot uchraydi.

Sadriddin Salim Buxoriyning “Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari” kitobida Buxoroyi sharifning uch ming yildan ortiq tarixi mobaynida yashab o‘tgan, besh yuzdan ortiq avliyolar ularning

tabarruk ziyoratgohlari, ibratli hayot yo‘li, xulqu odobi, kasbu kori, ilmu ma’rifati, imon-e’tiqodi haqida hikoya qilinadi.

Narzullo Yo‘ldoshevning Buxoro avliyolar tarixi kitobida 80 taga yaqin Buxoroda yashagan avliyolarning tarixi yoritiladi.

Muqaddas joylar, qadamjolar deganda - aholi muqaddas deb hisoblaydigan va sig‘inadigan joylarni, payg‘ambar, shayx, eshon, avliyolar nomi bilan bog‘liq hisoblangan va ziyoratgohga aylanib ketgan shahar, maqbara, chashma, daraxt, tepalikni tushunamiz. Muqaddas joylar turli dinlarga e’tiqod qiluvchi hamma xalqlarda, ko‘pgina shahar va mamlakatlarda mavjud. Bunga Buxoro shahridagi Bahouddin Naqshband ziyoratgohini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Qadamjo deganda esa - (avliyolar) qadami tekkan joy, ziyorat qilish, sig‘inish uchun boriladigan, mo‘‘jizali, muqaddas deb sanaluvchi joy, ziyoratgoh. Masalan Chashmai Ayyub bu muqaddas qadamjodir.

Bugungi kunda, Buxoroyi Sharifda Abduxoliq G‘ijduvoniy, Muhammad Orif Revgariy, Hoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboiy Samosiy, Sayyid Mir Kulol, Bahouddin Naqshband kabi 7 pir majmularidan tashqari yana 500 dan ortiq qadamjolar mavjud.

Barcha davrlar uchun mangu, boqiy shahar Buxoroning boshqa tarixiy shaharlardan ajralib turadigan jihatlaridan biri qadamjo va ziyoratgohlarning benihoya ko‘pligidir. Tor ko‘chalardan yursangiz har qadamda bir aziz-avliyo, tarixiy shaxs mangu qo‘nim topgan dahmaga duch kelasiz. Ularning ba’zilari masjidlar, savdo toqlari, madrasalar ichida, ayrimlari shundoq ko‘cha yoqasida. Hovlilar ichida saqlanayotganlari ham bor.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda, jumladan, Buxoro viloyatida muqaddas qadamjolar ko‘pligi, ularni ziyorat qilish yurtdoshlarimiz uchun ham qarz, ham ulkan saodat ekanini ta’kidladi.

Istiqlol sharofati bilan mazkur tarixiy madaniy ob’eklarni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish va tarixiy jarayonlardan to‘g‘ri xulosa chiqarish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Oliy ta’lim tizimida Buxoro vohasi muqaddas qadamjolari tarixi to‘g‘risida talaba yoshlarda atroflicha bilim hamda tushunchalarni shakllantirish davr talabidir.

Dunyoda beshta sharaflangan shahar bor, shulardan biri bizning Buxoroyi sharifdir. Buxoroni Buxoroyi sharif qilgan faqatgina o‘lmas obidalari emas, balki uning alloma farzandlari hamdir. Abu Xafs Kabir, Imom Buxoriy, Naqshbandiylardir. Odamlar orasida “Buxoroni

balo-qazolardan avliyolar asraydi”, degan gap bor. Avliyolarimiz qabrini-chi? Ularni biz asramasak, kim asraydi?!

Tarix millat kelajagini, taqdirini belgilar ekan, barchamiz madaniy merosimizni asrash, uni kelgusi avlodlarga bus-butun etkazishdek fuqarolik hamda konstitutsion burchimizni unutmaylik. Buxoroi sharifning asl ko‘rinishini asrab-avaylash va uni kelgusi avlodlarga ziyon-zahmatsiz etkazish tarix oldidagi insoniy burchimizdir!

2-MAVZU. BUXORO VOHASIDA SHAKLLANGAN QADIMGI VA ILK O‘RTA ASR QADAMJOLARI

Reja:

1. Buxoro vohasida shakllangan ilk qadamjolar.
2. Chashmai Ayub maqbarasi
3. Mag‘oki Attori masjidi
4. Jonnard Qassob, Qo‘chqor Ato va Burqi Sarmas mozorlari

1. Buxoro vohasida shakllangan ilk qadamjolar: “Shohnoma”ga ko‘ra, Siyovush Kaykovusniig o‘g‘li bo‘lib, uni bahodir Rustam tarbiya qilgan. Muhammad Narshaxiyning asari va boshqa tarixiy manbalarda hikoya qilinishicha, o‘gay onasi Sudoba Siyovushga oshiq bo‘ladi. Maqsadiga erisholmagach, unga tuhmat qiladi. Otasi uni dahshatli sinovdan o‘tkazadi, bu sinovdan sog‘ va salomat o‘tganligi sababli uning gunohsizligi ma’lum bo‘ladi. Otasi Siyovushni Eron qo‘sishlariga boshliq qilib, podshosi Afrosiyobga qarshi jangga yuboradi. Ammo Afrosiyob bilan Siyovush o‘rtasida sulk shartnomasi tuzilib, Afrosiyob bu sulhning ishonarli bo‘lishi evaziga Siyovush huzuriga uning xizmatidagi o‘z yaqinlaridan yuz kishini garovga yuboradi. Bu voqeani eshitgan Kaykovus g‘azablanib darhol garovga olinganlarni o‘ldirishga va Afrosiyob bilan urushni davom ettirishga farmon beradi.

Siyovush otasining bunday farmonini bajarishdan bosh tortib, nohaq begunoh o‘limga hukm qilingan kishilar bilan Afrosiyob huzuriga boradi. Afrosiyob uni o‘z farzandidek kutib olib, Siyovushga o‘z qizi Farangisni nikohlab beradi. Afrosiyob o‘z mulkining

hammasini unga berishga qaror qiladi. Bu viloyat o‘ziga vaqtincha berilganligi tufayli (“az bahri onki in viloyat o‘ro oriyati bud”), Siyovush bu erda o‘zidan biror yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib, u Buxoro Hisorini bino qildi. Ko‘proq o‘sha joyda turadigan bo‘ldi. Afrosiyobning birodari Qarshyuz u bilan Afrosiyob o‘rtasida yomon gaplar yurgizdi va natijada Afrosiyob Siyovushni o‘ldirtirdi.

Narshaxiyning yozishicha, Siyovush ana shu Hisor (Ark)ning sharqiy darvozadan kiraverishda “Darvozai Go‘riyon” deb atalgan “Somonfurushlar” darvozasining ichkarisida dafn qilingan. Shuning uchun Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili Navro‘z kuni chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘ygan. Aholi orasida Siyovush o‘limiga bag‘ishlab aytilgan marsiyalar bo‘lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy bastalagan va qo‘sinq qilib aytganlar. Qo‘sinqchilar uni “otashparastlar yig‘isi” deydi. Bu gaplar bo‘lganiga hozir uch ming yildan ortiqdir,- deb yozadi Narshaxiy.

Siyovushning otasi Kaykovus Eron podshosi (Ahamoniylar sulolasidan) bo‘lganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Uning o‘g‘li Siyovush ham, Siyovushning o‘g‘li Kayxusrav ham afsonaviy shaxslar bo‘lmasdan, balki tarixiy shaxslardir. Chunki Siyovushning halokatidan keyin undan qolgan yagona o‘g‘ilni bobosi Kaykovus tarbiyasida bo‘lgani, yoshligidan boshlab Afrosiyobga qarshi adovat ruhida tarbiyalaydi. Bobosi Kaykovus vafotidan keyin Kayxusrav Eron podshosi bo‘lib, Afrosiyob bilan janglar olib borgan. Nihoyat, yuqorida aytganimizdek, u romitanni ikki yil qamal qilib, Afrosiyobni shu joyda halok qilishi tabiiydir.

Afrosiyob Poykand, Romtin (Qo‘rg‘on Romitan) kabi shaharlarni bino qilgan va gohida ushbu maskandagi hisorlarda turib qolgan. Narshaxiyning yozishicha Afrosiyob eroniylar bilan juda ko‘p janglar olib borgan.

Ba’zi bir tarixiy manbalarga qaraganda, Buxoro shahristonini ham Afrosiyob bino qilgan. U Buxoro vohasiga kelganda faqat Romtindan boshqa joyda turmagan, Siyovushning o‘g‘li otasining qonini talab qilib, ko‘p lashkar bilan kelganida shu Romtinni hisor qilib turgan. Kayxusrav ikki yil shu hisor atrofini o‘rab turgan va uning ro‘parasida bir qishloq bino qilib, bu qishloqni Romush deb atagan (bu qishloq hozir ham shu nom bilan ataladi). Kayxusrav Romushda

otashparastlar ibodatxonasini qurdi. Kayxusrav ikki yildan keyin Afrosiyobni tutib o'ldirdi.

Afrosiyobning go'ri Buxoroda ma'bad darvozasi (hozirgi "Hazrati Imom" darvozasi)da Xoja Imom Abu Xafsi Kabir tepaligiga tutashgan katta tepalik ustidadir. Yaqin vaqtlargacha buxoroliklar IX asrda yashagan huquqshunos olim va avliyo Abu Hafsi Kabir qabrini ziyorat qilish bilan birga, muqaddas qadamjo, Buxoro shahrini bino qiluvchilardan biri sifatida Afrosiyob qabrini ham ziyorat qilardilar. Ammo sovet hukmronligi davrida aniqrog'i XX asrning 50-yillarida mahalliy partiya va sovet rahbarlari dinga qarshi kurash bahonasi bilan Afrosiyob tepaligini buzib, yo'l o'tkazdilar: Abu Hafsi Kabir maqbarasi, Afrosiyob qabri va boshqa me'morchilik obidalari buzib tashlandi.

Siyovush ham Afrosiyob kabi tarixiy shaxs bo'lib, Erondag'i Ahamoniylar sulolasining qadimgi podsholaridan biri Kaykovusning o'g'lidir. Kayxusrav-Eron mifologiyasida kayoniylar sulolasidan bo'lgan 3-shoh. «Shohnoma»ga ko'ra, onasi Zahhok qavmidan bo'lgan turonlik Farangis, Otasi Siyovush Afrosiyob Turon bahodiri Pironga Farangisga ko'z-qulqoq bo'lib turishini va tug'iladigan chaqaloqni o'ldirishni buyuradi. Piron tushida Siyovushni ko'radi. Siyovush o'g'lining taxtga o'tirishini bashorat qiladi. Piron Kayxusrav deb ism qo'yilgan chaqaloqni cho'ponlarga topshiradi. Bola pahlavon bo'lib etishadi, uning Shabrangi Behzod nomli qora oti bo'lgan.

Eronliklar Kayxusravnı topish uchun ko'p ovora bo'lishadi, nihoyat etti yillik izlanishlardan so'ng bahodir Gev Kayxusravnı onasi bilan birgalikda bobosi Kaykovus huzuriga olib keladi. Kayxusrav 60 yil podshohlik qiladi. Rustam bilan birgalikda u otasining o'chini olish uchun Afrosiyobga qarshi yurish qiladi. Jangda Afrosiyobning o'g'li Shidni o'ldiradi, so'ng Afrosiyob ham halok bo'ladi.

Kayxusrav davrida mamlakatda tinchlik-osoyishtalik o'rnatiladi. Kayxusrav Afrosiyobning boshqa bir o'g'li - Jahnni tutqunlikdan xalos etib, unga Turonni topshiradi. Ammo Kayxusravnıng ko'ngli o'zidan xotirjam emas edi. Uning tomirlarida faqat yaxshilikka e'tiqod qilganning qonigina emas, yovuzlikka e'tiqod qo'yganning ham qoni oqishini bilardi. U o'zidagi yovuzlik ibtidosi undagi ezgulikni engib qo'yishidan xavotirda edi.

Kayxusrav taxtni qarindoshi Luhrosga topshirib, o'zi toqqa yo'l oladi va tongda g'oyib bo'ladi. Bahodirlar bedarak ketgan

Kayxusravni izlashga otlanishadi, kuchli qor bo‘roni ularni ko‘mib yuboradi va ko‘pchilik bahodirlar Kayxusrav kabi abadiy g‘oyib bo‘lishadi.

XVIII asr o‘rtalarida Mang‘itlar sulolasi davrida Arkning Sharq tomoni amirlar O‘rdasiga aylantirilgan. Sharq tomondagi Darvozai Go‘riyon» berkitilib, yagona darvoza, darvozai Registon qoldirilgan. Siyovushning qabri ham qadimgi Go‘rion darvozasidan Registon darvozasi yoniga, Nog‘oraxona tagida ko‘chiriladi. U erdag‘i maxsus hujrada uning qabrini yasaydilar va tug‘ ko‘taradilar. Siyovush Vali qabrini ziyorat qilishga kelganlar uchun Registon darvozasidan kirganda o‘ng tomonda maxsus zinapoyalar orqali yuqoriga chiqib, qabrni ziyorat qilganlar. Ziyoratchilarga amir saroyi va uning O‘rdasi orqali yo‘l berkitilgan. SHunday qilib, Siyovush qabri Islomgacha va undan keyin ham avliyo, muqaddas shaxs - begunoh qurban bo‘lgan, Arkni bino qilgan kishi sifatida e’zozlagan. Mahalliy urf-odatlar borki, ular ham Siyovushni tarixiy shaxsligini tasdiqllovchi dalillar bo‘lib hisoblanadi.

Birinchi dalil, Arkning Sharqiy darvozasi «Somonfurushlar darvozasi Siyovush ko‘milgandan keyin Go‘riyon darvozasi deb atalganligi. Qadimgi Sug‘d va fors tilida qabr “Go‘r” degan ma’noni bildiradi. “Go‘riyon” degan so‘z, uning qabri ya’ni, «Siyovushining qabri degan ma’noni bildiradi. Agar Siyovush Arkning Sharqiy tomonidagi darvozaga yaqin ko‘milganda, darvozayi Go‘rion degan nom qo‘yilmas edi.

Ikkinchi dalil: Siyovush halokatidan keyin buxorolik majusiyalar Siyovushning o‘limiga atab “Mug‘lar yig‘isi” nomli marsiyani kuyga solib, qo‘sish qilib aytganlar. Shuning qoldig‘i sifatida hozir ham o‘lgan kishilarni yaxshi ishlarini eslash uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan oymullolar chaqirib, Marsiya aytish odati saqlanib qolgan. (Bunday kishlarni Buxoroda “go‘yanda” deb ataydilar).

Uchinchi dalil: Navro‘z kuni ertalab quyosh chiqmasdan oldin majusiy erkaklar Siyovush qabriga ziyoratga kelib, bittadan xo‘roz qurbanlik qilishgan. Bunday odat hozirgi zamonda biroz o‘zgartirilib saqlangan. Navro‘zda har bir buxorolik bittadan tovuq yoki xo‘roz (ko‘p hollarda xo‘roz) qurbanlik qilib, uni oshga solganlar. Bularni Buxoroliklar “qozon to‘ldi” deb ataganlar. Bu odat 1940 yillargacha buxoroliklar orasida keng tarqalgan edi. Hozirgi davrda bu odatni ayrim buxoroliklar davom ettirmoqdalar. Bu dalillar ham Siyovush

kulti bilan bog‘lik bo‘lgan marosimlar, urchodatlar bizning zamonomizgacha xalq orasida etib kelganini ko‘ramiz. Bu urchodatlar Islom dini bilan hech qanday aloqasi yo‘q.

2. *Chashmai Ayyub maqbarasi*: Ichimlik suvi, quduqlarning piri sanalgan Ayub alayhissalomning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan joylar Markaziy Osiyoning turli burchaklarida uchrab turadi. Chashma-Ayub mozorining barpo etilishi ham XII asrlarga oid deb hisoblanadi. Afsonalarga qaraganda, Injildagi payg‘ambarlardan biri - Ayub Buxoroning bu suvsiz qismidan o‘tayotganda hassasi bilan erga urgan - natijada bu erda top-toza, shifobaxsh suvli buloq paydo bo‘lgan.

XIV asrda Amir Temur farmoni bilan xorazmlik ustalar buloq va quduq ustidan bino barpo etganlar hamda quduqdagi baland tortish qurilmasi ustidagi konus shaklidagi gumbazga Xorazm uchun xos bo‘lgan shakl bergenlar. Sharq me’morchiligi uchun sun’iy suv havzalari bo‘lgan hovuzlardan nafaqat amaliy maqsadlarda, balki shaharni yanada har tomonlama bezatish uchun ham foydalanish odatdagi holdir.

Rivoyatlarga ko‘ra buyuk payg‘ambarning sabri va toqati Alloh tomonidan shu yerda imtihon qilingan ekan. Bibliyada hikoya qilinishicha, Ayub alayhissalom pokdomon va adolatli inson bo‘lgan, nafaqat o‘zi uchun, balki butun oilasi a’zolari haqiga ham Allohgaga ibodat qilgan. Uning taqvosi hamda olib borayotgan ibratli turmush tarziga mukofot tariqasida Alloh unga yaylov-yaylov chorva mollar, oilaviy xotirjamlikdan tashqari etti o‘g‘il va uch qiz ato etgan. Biroq Shayton alaayhi la’na bir kun Allohgaga arz qilib, Ayubning sabri va chidamliligi borasida ishtibohga tushganini bildirgan: shuncha nozne’matning shukronasiga taqvodor bo‘lish qiyin emas, biroq agar uning bor-budi tortib olinsa, uning taqvosi, ibodati va shukronaligi qaerda qoladi? Olamlar Parvardigori Shaytonga payg‘ambarni imtihon qilishga ijozat beradi.

Qaroqchilar hujumi, yashin urishi va bo‘ron natijasida Ayub alayhissalom barcha mol-mulki va farzandlaridan ayrıldi. “Shunda Ayub o‘rnidan turdi, kiyimini yirtib, sochini qirqib tashladi. So‘ng erga muk tushib, ta’zim qildi va “Onamning qornidan yalang‘och tug‘ildim, yalang‘och holda tuproqqa qaytaman. Bergan ham Alloh, olgan ham Alloh. Parvardigorimning ismiga hamdu sanolar bo‘lsin!” deb aytadi. Shunda Shayton uni moxov dardi bilan taqdirladi.

Ayubning badani yiring to‘la chipqonlar bilan qoplandi, u shaharni tark etishga majbur bo‘lib, go‘ng tepada o‘tirishga va boshidan kul sochishga to‘g‘ri keldi. Hamma undan yuz o‘girdi, biroq shunda ham payg‘ambar Shaytonning makriga uchmay, Allohga hamd va sano aytishdan to‘xtamadi. Ayubning xotini unga: “Haliyam benuqsonligingizga mahkam yopishib o‘tiribsizmi?! Undan ko‘ra Xudoni la’natlab, o‘lib qo‘ya qolganingiz yaxshiroq emasmi?!” - deydi. Ammo u xotiniga: “Aqlsiz ayollardek gapirasan-a! Allohdan faqat yaxshi narsalarni qabul qilamiz-u, yomonlarini qabul qilmaymizmi?!” - deb aytadi, biroq, pirovardida umidsizlikka tushib o‘zining dunyoga kelgan kuniga la’nat aytadi. Shunda Allohning o‘zi unga namoyon bo‘lib nasihat qiladi va payg‘ambarga sog‘lig‘ini, boyligini va farzandlarini qaytaradi. Ana o‘shandan keyin Ayub yana qirq yil umr ko‘radi “qarilikda va Xudo bergen kunlariga to‘yan holda” vafot etadi.

Izoh: Ayyub alayhissalom kasallik chog‘larida boqib parvarish qilgan xotinlari bir kuni u kishiga beparvolik ko‘rsatganida Ayyub payg‘ambar dilliri og‘rib «Tuzalganimda albatta seni yuz qamchi uraman», deb qasam ichgan ekanlar. Shu boisdan shifo topganlaridan so‘ng Alloh ta’olo u kishiga ichgan qasamlarining ustidan chiqishlari uchun yuzta novdani bir bog‘lam qilib bog‘lab, u bilan xotinlarini bir marta urishga amr qildi. Darhaqiqat, Biz (Ayyubni) sabr qilguvchi holda topdik. U naqadar yaxshi bandadir. Haqiqatan, u (Alloh rozi bo‘ladigan yo‘lga) qaytguvchidir”.

Maqbara garchi bugungi kunda muzey maqomiga ega bo‘lsa ham, viloyatdagi eng gavjum ziyoratgohlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ziyoratchilar ixlos bilan Hazrat Ayubning taxminiy qabrini tavof qila turib, uning ustida bir hovuchdan guruch yoki bug‘doy hamda hushbo‘y rayhon shoxlarini qoldirib ketadilar. Bundan tashqari, ular albatta ichki va teri kasalliklariga shifo bo‘ladigan quduqdan suv olishadi.

Maqbaraga kiraverishda eshik ustida sopol plitalaridan terilgan naqshinkor o‘rtta asr barelefida feruza rangda relefli yozuvda quyidagilar yozilgan: “Bu bino 785 (hijriy) yilda Mavarounnahr va Huroson sultonı Amir Temur Ko‘ragon boshqaruvi davrida – uning musulmonlarga marhamati ko‘payaversin, Amir Hajjoj tomonidan barpo etilgan!”.

Yozuv ustiga muqaddas qadamjoning tarixi haqida hikoya qiluvchi lavha o‘rnatib qo‘yilgan: “Bismillahir-rohmanir-rohiym! Xoja Imom Hofiz Gunjariy o‘zining “Tarixi Buxoro” kitobida Vahb ibn Munnabih nomidan shuni hikoya qiladiki, qadimgi kitoblardan birida yozilishicha, payg‘ambarlardan biri Jayhunni kechib o‘tganidan keyin Buxoro deb ataluvchi joyga etib kelgan va bu yerning odamlari uni juda yaxshi kutib oldilar. Bunga javoban nabiy alayhissalom ularga baraka tilab duo qiladi va Tangri Ta’alo uning bu duolarini ijobat qiladi. O‘shanda payg‘ambar “Ey Xudo, ularning avlodiga baraka bergin, dushmanlarini mag‘lub qilgin, ulardan fitnalarni daf qilgin” deb duo qiladi. Bu payg‘ambar Sabrli Ayub alayhissalom edi! U Buxoroda xuddi mana shu yerda vafot etdi va bu joy hozirgacha saqlanib qolgan. Uning ostida chashma bor bo‘lib, jannat manbalaridan biri bo‘ladi. Buloq yonida daraxt o‘sgan bo‘lib, uning yaproqlari Sanjid barglari kabi qishda ham ko‘m-ko‘k turardi. Agar bu yaproqni yirtadigan bo‘lsang, undan qizil suv oqar edi...”.

3.Mag‘oki Attori masjidi: Mag‘oki Attori masjidi - Buxoro markazidagi Labi Xovuz ansambli yonida joylashgan qadimiy masjidlardan bo‘lib, me’morchilik san’atining mukammal na’munalaridan biri sanaladigan arxitektura yodgorligidir. Qadimgi shahristonning janubida qurilgan. Masjid o‘rnida dastlab otashparastlar ibodatxonasi bo‘lgan. Ibodatxona atrofi pastroq erga joylashgan va uning yonida bozor bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan masjid ko‘milib ketgan.

Ilgari masjid binosida Oy (Mox) otashparastlar ibodatxonasi bo‘lgan. Keyinchalik, arablar istilosidan so‘ng (VII asr) uning o‘rnida ilk masjidlardan biriga asos solingan. O‘scha paytda ham masjid madaniy qatlamlar o‘sgani natijasida yarmigacha ko‘milgan. Shu sababli unga “Mag‘oq” (forscha mag‘oki “chuqurlikda”) hamda attor bozori yaqinida joylashgani sababli “attori”, ya’ni “Mag‘oki attori” nomi berilgan. Asrlar davomida madaniy qatlamlar yig‘ilgani sayin masjid atrofidagi er sathi ko‘tarilib boravergan. Buning natijasida, bugungi kunga kelib masjid shahar sathidan 6 metr pastlikda joylashgan.

1934-1935 yillari V.A.Shishkin rahbarligida arxeologik qazishlar o‘tkazildi. Masjid, ayniqsa, uning janubiy peshtoqi faqat Buxoronning emas, balki butun Markaziy Osiyo badiiy madaniyatining qimmatbaho yodgorligi sifatida qadrlanadi.

Qadimgi 4 ustunli Moh masjidi (IX asr) o‘rnida XII asrda eski loyiha asosida qayta qurilgan (1934 yilda arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan). XIV asrda ta’mirlangan, XV asrda peshtoqining yuqori qismi buzilgan. Abdulazizzon davrida (1541-1542 y.y) binoning yuqori qismi, gumbazlari qayta qurilgan. Masjid tarhi (13,35x17,6 m) sodda echimga ega, ichkarisi 6 ustunli, 12 gumbazli, o‘rta gumbazi balandroq bo‘lib, uning asosi (poygumbazi)dagi darchalar orqali bino ichiga yorug‘lik tushadi. Sharqiy qismini keng pillapoyali zina egallagan. Bosh tarzidagi peshtoq g‘ayriodatiy ravishda binoning yon tomoni (janub)da joylashgan. Keyinchalik sharqiy qismiga qayta qurilgan. Peshtoqining ko‘rinishida yoysimon chuqur ravoq va undagi o‘ziga xos bezaklar muhim o‘rin tutadi. Ganch va mayda g‘isht bo‘lakchalaridan bezatilgan peshtoq hashami g‘oyatda nafis va yuksak badiiy did bilan bajarilgan. Namoyon o‘lchamlariga mutanosib ravishda murakkab bo‘rtma bezaklar ishlangan. Ustungo‘shalari o‘yma naqshlar bilan, vazasimon shaklda ko‘rkamlashtirilgan. Mag‘oki attori masjidining bezaklari XII asr Buxoro me’morlik maktabining yuksak namunasi sifatida O‘zbekiston me’morlik tarixida alohida o‘rin tutadi. 1939-1949 yillarda peshtoqi mustahkamlanib ta’mirlangan, atrofi obodonlashtirilgan.

Mazkur masjid bilan bog‘liq afsonalardan birida, Buxorodagi ilk sinagoga paydo bo‘lgunga qadar ushbu masjidda muslimonlar bilan birga, lekin binoning boshqa-boshqa taraflarida yahudiylarning ham ibodat qilgani aytildi. Boshqa bir afsonaga ko‘ra esa, yahudiylar masjidga muslimonlardan so‘ng ibodat qilib ketganligi ma’lum qilinadi.

Sharq me’morchiliginining turli an’analarini o‘zida mujassam etgan ushbu me’moriy obida, tarixiy manba’larga ko‘ra, XII, XVI va XX asrlarda qayta ta’mirlangan. Bugungi kunda uning binosida 1991 yilda ochilgan gilamlar muzeyi o‘rin olgan. Mag‘oki Attori masjidi YUNESKO tashkilotining Butun Juhon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

4.Jonmard Qassob, Qo‘chqor Ato va Burqiy Sarmas qabrlari:
 Jonmard Qassob - Buxoro shaharining sobiq to‘pxona guzarlarida Jonmard qassob degan muqaddas joy bo‘lib, bu mozor islomgacha mavjud bo‘lgan va O‘rta Osiyoda keng tarqalgan qadamjolardan biri hisoblanadi. Majusiylar Jonmard qassobni Govomard sifatida talqin
 14

qilganlar. Islomgacha O‘rta Osiyoda Gavomard ku’lti keng tarqalgan bo‘lib majusiylar Gavomardni yarim ho‘kiz yarim inson shaklida tasavur qilganlar. Gavomard insonlarga uy qurish metallardan foydalanish va qassoblikni o‘rgatgan deb tasavur qilinadi.

Bu nomlarning hammasi gavomard nomlari ataladigan majusiylarning tasavuridagi yarmisi odam yarmisi xo‘kiz shaklidagi hudolardan biri bo‘lgan. Bularning hammasi majusiylarning totemistik din formalaridan biridir. Totemizm-ibtidoiy jamiyat dinining ilk formalaridan biri bo‘lib Shimoliy amerika hududlarining tilida “uning urug‘i” demakdir. Totemizmdagi asosiy narsa muayyan turdagı hayvonlar, o‘simpliklar, buyum yoki hodisa bilan biror guruhdagi kishilarning umumiyligi kelib chiqishiga va qon-qardoshligiga ishonishdir. Ajdod hayvon, uning sur’ati simvoli, shuningdek kishilar gurupasi totem deb ataladi. Totem kishilarning qudratli himoyachisi bo‘lib, ularni oziq-ovqat bilan ta’minlab turadi. Totem sarqitlari rivojlangan dinlarda saqlanib qolgan, odamlarning jonivorlar bilan qon-qardosh bo‘lish haqidagi ertaklar va shu xildagi diniy afsonalar qadimgi totemizmdan qolgan

Shunday qilib qadimgi majusiylarning yarim ho‘kiz, yarim inson tasuvvuridagi afsonaviy Gavomard mahalliy ruhoniylari uni tamom ila inson sifatiga kiritib, uni yangi afsonalar bilan bezab muqqaddaslashtirganlar.

Qo‘chqor Ato - Buxoro shahridagi hovlisida Quchqor ato mozori bulib, bu mozor ham majusiylarning totemistik dini qoldog‘i sifatida Buxoroda davom etib kelgan edi. Qo‘chqor otaga ko‘pincha mahbuslar va ularning qarindoshlari, aka ukalari va umuman qarindoshlarini bu dahshatli zindon azobidan qutilishlaridan so‘rab unga atab qo‘chqor qurbanlik qilganlar va boshqa narzniyozlar keltirganlar. Bu avliyonи zo‘r deb ataganlar. Biror kishi suvori zindon oldidan o‘tmagan. Suvorilar albatta o‘z ot, eshaklaridam tushib ularni etaklab zindon oldidan o‘tib ketganlar. Agar mozorda qurbanlik keltiradigan bo‘lsalar, u albatta qochqor bo‘lishi kerak, shuning uchun mozorda juda ko‘plab qo‘chqor shoxlari osib qo‘yilgan edi .

Qo‘chqor ato mozori ham totemizm bilan bog‘liq bulib, majusiylar sig‘inishgan shaxslardan biri bo‘lgan. Hikoya qilishlaricha, podshoh Bidun zamonida Qo‘chqor atopodshoh quylarini boquvchi cho‘pon bo‘lgan podshohning qo‘ylari bir kechada g‘oyib bo‘lgan hikoya qilishlaricha buxorxudodlar sulolasidan podshoh Bidun

zamonidan qo‘chqor g‘oyib bulgan. Bundan g‘azablangan podsho Budin cho‘poni zindonga tashlaydi. Bir kuni zindondan zindon chuquriga kelib qarasa cho‘ponning atrofini minglarcha qo‘chqorlar o‘rab olgan, u bilan bazmi-jamshid qilayotgan ekanlar. Zindonbon bu xabarni podshoga etkazdi. U kelib qarasa chuqurlikda hech narsa, hatto Qo‘chqor Ato ko‘rinmas emish. Podsho ketgach bu voqeа takrorlanibdi. Zindonbon yana podshoni xabardor qilibdi. Ammo podsho kelsa g‘oyib bo‘lar ekan. Podsho g‘azablanib, zindonbonning o‘zini chuqurga tashlagan ekan. Qo‘chqor Ato va uning qo‘chqorlari g‘yib bo‘lgan ekan.

Qadimgi majusiyalar qo‘chqorni ezozlaganlar, unga sig‘inganlar, shularning qoldig‘i sifatida mahaliy xalqlar orasida ham qo‘chqor ato qo‘ch or bobo kabi mozorlar bulgan va mozorlar tepasida qo‘chqor shohlarining osilib quyilishi qadimgi totemizm qoldiqlari bulib hisoblanadi ularning kupchiligini islom dini bn xch qanday aloqasi yo‘q.

Burqi Sarmast - Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi Vardonze qo‘rg‘oni tepasida Qadimgi zardushtiy dinidan qoldiq sifatidagi avliyolardan biri Hazrat Burqi Sarmast avliyosi va mozori, ya’ni ziyyaratgohi mavjud. Ziyyaratgohda qabr va tug‘ bor. Bu er Burqi Sarmastning qadamjosi sifatida asrlar osha e’zozlanadi. Og‘zaki ma’lumotlarga qaraganda Burqi Sarmast Muso alayhissalom zamondoshlari bo‘lganlar. Ma’lumki, Muso alayhissalomning tug‘ilganlariga 5764 yil bo‘lgan. Hazrat Burqi Sarmast Allohnинг oshig‘i, valiyulloh edilar. Burqi Sarmast ziyyaratgohlari Xorazmda,Dushanbeda va boshqa joylarda ham bor.

Og‘zaki naqllarda aytishlaricha, Hazrat Burqi Sarmast Allohga: “Do‘zaxingni barham ur!”-deb erkalik qilib, bir necha yil munojot etadilar. Alloh ikkita farishtani odam suratida qilib yuboradi. Ular bir eshakka o‘tin ortib Burqi Sarmast yonlariga keladi va o‘tin o‘z-o‘zidan qulab tushadi. Ul ikki zot Burqqa qarab: “O‘tinlarni eshakka ortib ber!”- deydilar.

Burq Allohnинг zikri bilan band bo‘lib, ularga e’tibor bermaydi. Shunda ular bir tayoq bilan Burqni rosa kaltaklaydi. Dard jonidan o‘tgandan keyin, bu zulmga chiday olmay Burq: “Yo Allohim! Do‘zaxingni kengroq et! Man purgunoh bandangni gunohidan kech! Man ilmagan ekanmanki, do‘zaxbop kishilar ham bor ekan” - debdi. Vardonze tepaligida joylashgan Burqi Sarmast ziyyaratgohida qabr va

tug‘ bor. Bu yer Burqi Sarmastning qadamjolari deb asr-asrlardan beri e’zozlanadi. Ushbu qadamjoga ko‘plab ziyyoratchilar keladi. Qadamjo yaqinida jome masjid bor. Lekin ziyyaratgoh ta’mirtalabdur.

Buxoroliklar orasida yana shunday urf-odat saqlanganki, agar kishilar jon talvasasida o‘lgan vaqtlarida uch marta “Yo pirim Burqi Sarmast” degan jumlni takrorlasalar yoki dillaridan o‘tkazsalar, Xudoyi taollo o‘zining erkasi bo‘lgan Burqi Devona tufayli ularning gunohlarini engillashtirib, joylarini jannatga qilar emish.

Burki Sarmast xudoning “devonasi” (erkasi) bo‘lgan, ko‘proq cho‘l-biyobonlarda piyoda yurgan. Xudoning ishqisi bilan mast bo‘lib, og‘zidan ko‘piklar sachragan. Og‘zidan tushgan ko‘piklar natijasida cho‘llarda bex (qaynatganda maxsus ko‘pik beradigan o‘simplik ildizi)lar o‘sib chiqgan. Xolvagarlar turli xil xolvalar, nishaldalalarni pishirganda mana shu bexlardan foydalanganlar.

Tayanch iboralar: qadamjo, mozor, avliyo, Siyovush, Kayxusrav, Ayyub alayhissalom, Chashmayi Ayyub maqbarasi, Mag‘oki Attori masjidi, Jonmard qassob, Qo‘chqor ato, Burqi Sarmast, Xushang shoh, Afrosiyob.

Savollar

1. Mullozoda kitobida Buxoro shahri va uning atroflarida nechta avliyolik darajasiga sazovor bo‘lgan mashoyihlar, olimlar, donishmandlar va shoirlarning qabrlari va qadamjolari mavjud?

2. Og‘ir dardga chalingan, badanini qurtlar kemira boshlagan va 40 yil Allohdan dardiga davo so‘ragan shaxs kim?

3. Arkning sharqiy darvozasini nima sababdan “Go‘rig‘on” darvozasi deb ataganlar?

4. Siyovushning otasi kim?

5. Mag‘oki Attori masjidi qaerda joylashgan?

Manba va adabiyotlar

1. Муин ул-фуқаро Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий Тарихи Муллозода дар зикри мазороти Бухоро. (Бухоро мозорлари ҳақида Муллозоданинг тарих китоби). Фан. Ташкент-2019. (форс тилидан К.Рахимов таржимаси). 213-б

2. Нарзулла Йўлдошев Бухоро авлиёларининг тарихи. Бухоро.1997. 144-б

3. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Бухоро. Дурдона.2012. 291-б

4. Худойберди Дониёров. Афсосиёб: афсонами ёки тарихий шахс. Шарқ юлдизи журнали, 1991 йил, 7-сон.

5. Садриддин Салим Бухорий, Самад Азимов Буюк фиждувонийлар (авлиё ва алломалар). Бухоро нашриёти. 2006. 62-б.

3-MAVZU. BUXORO VOHASIDA ISLOM DININING VUJUDGA KELISHI VA U BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN QADAMJOLAR

Reja:

1. Buxoroda islam dinining tarqalishi
2. Xoja Ubon qadamjolari
3. Turki Jandiy, Said Abulhasani Poband, Abdulqodir al-G‘iloniy qadamjolari

1. Buxoroda islam dinining tarqalishi: VIII asrga kelib Markaziy Osiyoni arablar istilo qildilar va ular o‘zлari bilan yangi din - Islomni olib keldilar va bosib olingan xalqlar orasida turli yo‘llar bilan bu dinni tarqata boshladilar.

706 yilda Qutayba ibn Muslim boshliq musulmonlar Buxoroning daryoga yaqin shaharlaridan biri Baykandga yurish boshladi. Baykand Buxoro viloyatiga qarashli chekka qishloqlardan biri bo‘lib, “Savdogarlar shahri” nomi bilan ham atalar edi. 707 yilda Qutayba Buxoroga yurish qilib, Romitan shahrini fath qiladi.

Islam orqali bu erlarda arab tili va arab yozuvi ham tarqaldi. Alloh subhanahu va taolo birinchi hijriy asrda Movarounnahr diyorini O‘zining oxirgi va mukammal dini Islam nuri bilan munavvar qildi. Bu diyor ahlining ko‘philigi Islomni ochiq qalb bilan qabul qildi. Ularning Islomi go‘zal bo‘ldi. Zotan Alloh taoloning o‘zi bu diyor odamlarini ularga bergen ajoyib tabiat va qobiliyatlarga mos va ularning rivojiga omil bo‘luvchi qiyomatgacha boqiy qoluvchi dini Islomga hidoyat qilgan edi. Movarounnahr aholisining Islam diniga kirishi ularning ko‘plab qobiliyatlarining ochilishiga, hayotning ko‘plab jabhalarida o‘zlarining peshqadamlıklarini isbot qilishga olib keldi.

Tez orada Islomning turli soha va ilmlari bo'yicha Movarounnahrlik namoyondalar etishib chiqa boshladilar. Bu harakat tezlik bilan rivoj topdi va turli ilmlarda umumdunyo miqyosidagi buyuk allomalar etishib chiqa boshladi. Shu tariqa Movarounnahrda Islom dini va Islomiy ilmlar rivoji boshlandi. Tez orada Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf kabi shaharlarning nomi islomiy shaharlar sifatida butun dunyoga tanildi.

Movarounnahrda o'sha vaqtida mavjud bo'lgan barcha ilmlar bo'yicha etuk allomalar chiqibgina qolmasdan, balki bir qancha yangi ilmlarga asos solgan ulug' zotlar ham etishib chiqdilar. Ushbu holatning o'zi Movarounnahr aholisining insoniyat tarixiga, ilm, fan, madaniyat rivoji tarixiga kirishiga Allohning qiyomatgacha boqiy dini Islom sabab bo'lganining yorqin dalilidir.

Islom yurtimizning boshqa burchaklarida ham tarqalib, yerli aholi Islomni yaxshi o'zlashtirib oldi. Alloh taoloning oxirgi va mukammal dini bo'lmish Islomda kishilarni irqi, millati, yashash joyi, tiliga qarab ajratish yo'q edi. Hamma ixlosiga, e'tiqodiga, qilgan mehnatiga yarasha qadr topar edi. Shuning uchun ham aslida qobiliyatli bo'lgan Movarounnahr diyori aholisi Islomda o'zining murodi-maqsadi va halovatini topdi. Islom tufayli hayotning barcha sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Islom soyasi ostida bu diyor gullab-yashnadi. Xalq esa o'sha vaqtdagi dunyoning peshqadam xalqlaridan biriga aylandi. Agar tarixga diqqat bilan nazar soladigan bo'lsak, hayotning barcha sohalarida ko'zga ko'ringan arboblar, dunyoga dong'i ketgan buyuk shaxslar ayni Islom davrida, islomiy hayot soyasida voyaga etganlar. Butun olamga fan, madaniyat, hazorat (sivilizatsiya) markazlari sifatida tanilgan shaharlarimiz ham o'sha vaqtida tilga tushgan.

Islom madaniyatining gullab-yashnashi, musulmon o'lkalarining jahon tarixi ko'rmagan taraqqiyotga erishishi, yurtlarning obod, xalqlarining peshqadam bo'lishi ham Islom dinining ilm-fanga bo'lgan o'ta yaxshi munosabatidan edi. Dunyoda hech bir din, tuzim, falsafa yoki harakat ilm talab qilishni ibodat darajasiga ko'targan emas. Talabi ilmni har bir erkak va ayol uchun beshikdan lahadgacha farz qilgan emas. Ulamolarning siyohini shahidlar qoniga tenglashtirgan emas. Islom esa aynan shu ishlarni qildi. Shuning uchun keskin taraqqiyotga erishilgan. Ayni o'sha paytda islomiy

ilmlar bo‘yicha buyuk imomlar etishib chiqqanlar va o‘zlarining beqiyos asarlarini bitganlar.

Umuman hadis ilmi bo‘yicha hech bir musulmon yurti bizning yurtimiz oldiga tusha olmaydi. Dunyo bo‘yicha eng mo‘tabar hadis kitoblari oltita bo‘lib, shundan beshtasiga hamma yakdil ittifoq qilgan. Bular Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Imom Termiziy va Imom Nasaiylarning kitoblari. Shulardan uchtasi Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Nasaiylar yurtimiz farzandlaridir.

2.Xoja Ubon qadamjolari: Xoja Ubon ziyoratgohi Buxoro shahrining g‘arbiy shimolida 50 kilometrcha narida qum tepaliklar orasida joylashgan manzil bo‘lib, bu ziyoratgoh vohada ilk bora islom dini kirib kelgan davrdan beri muborak qadamjolardan biri sanalib, bu joyda XIV asrda ulkan tarixiy inshoot - chashmaxona bunyod etilgan.

Xoja Ubon Ibn Usmon Ibn Affon VII asrning oxiri va VIII asr boshlarida yashagan, tobein, faqih, muhaddis, qiroat sohibi, valiyulloh bo‘lib, u kishiga Alloh taolo turli kasalliklarni davolash karomatini bergen. Xoja Ubon Ibn Usmon Ibn Affon 644-656 yillarda xalifalik taxtiga o‘tirgan Usmon Ibn Affon “Choriyor xalifa”lardan uchinchisining o‘g‘li sanaladi.

Usmon Ibn Affon xalifalik davrida Qur’oni Karimni yaxlit kitob holiga keltirishga boshchilik qilgan, shu kitob ustida mutolaa qilayotgan paytda dushman zarbidan 656 yilda jon bergen. Qur’oni Karimning ayrim varaqlariga xalifa Usmon Ibn Affonning qoni tomgan.

Muhammad Narshaxiyning 943-944 yillarda yozilgan “Buxoro tarixi” asarida Sa’id ibn Usmon Ibn Affon (xalifa Usmon ibn Affonning boshqa bir o‘g‘li) xalifalik tomonidan 676 yili Xuroson amiri etib tayinlangani va u Jayhun daryosidan o‘tib Buxoroga kelgani bitilgan.

Xoja Ubon Ibn Usmon Ibn Affon haqida XV asrda yashagan Ahmad ibn Mahmudning ”Kitobi nazmi Mullozoda” asarida:

Qabri Ubon, ki Ibn Usmon ast,

Manbai xush fayzi g‘affaron ast, ya’ni: “Xoja Ubon Ibn Usmonning qabri fayzli joy hisoblanadi”, - deyiladi.

Xoja Ubon Ibn Usmon Ibn Affon haqida Mir Muhammad Buxoriyning XVI asrda yozilgan “Ubaydullanova”, Mulla Muhammad Obidjonning “Tuhfatul obidin”, V.Shishkinning

“Varaxsha”, S.Ayniyning “Esdaliklar”, B.Mashrab, A.Fitrat, S.Salim Buxoriy asarlarida boy ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Xoja Ubbon avliyosining 1937 yilda tushirilgan fotonusxalari topildi. Maqbaraga kiraverishning o'ng tomonida hozirgi kunda yangidan qurilgan toshquduq ustida qadimda to'rt gumbazli obi g'ishtdan qilingan chashmaxona bo'lgan. Chashmaxona ichida esa tosh quduq bo'lib, undan chamasi 20-22 metrdan suv olingan.

Qadimgi chashmaxona XIV asrda qo'li gul ustalarning mehnatlari evaziga juda ixcham, yuksak badiiy mahorat va ulug'vorlik bilan bunyod etilgan. Bu binolar romitanlik jurnalist Sobira Bo'ldievaning yozishicha Amir Temur farmonlari bilan qurilgan ekan. Afsuski u imoratlar hozirda saqlanib qolinmagan. Xoja Ubbon maqbarasi, chashmaxona, xonaqoh, tug' va sag'analar o'tgan asrning 60 yillari boshida minalar bilan portlatilib yuborilgan.

Avliyoning boshlari uchib ketib, ko'milgan joyda 2008-2010 yillarda eski yog'ochdan qilingan maqbara va sag'ana yangidan qurildi. Bu ishlarda bosh-qosh bo'lgan ziyoratgohning sobiq rahbari (rahmatli) Abdumannon otaning ham xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz. Muborak qadamjoda asrlar davomida juda ko'plab ulug' insonlar yashab o'tgan, ularning joylari jannatda bo'lsin.

Bir necha asrlar oldin Zarafshon daryosi suvlari tufayli Xoja Ubbon va uning atroflaridagi Xo'jaqul, Xoja Porsoyak, Xoja Za'faron, Qizilqir, Qorovultepa, Bo'rontepa, Shoyusuftepa, Subboqtepa, Kampirak, Shirinquduq, Siminchtepa, Turaxshotepa kabi o'nlab tepaliklar vohadagi "Ming shahar" deb atalgan qadimiy shahriston, qal'a va istehkomlarning g'arbiy shimolidagi obod joylarning tarkibiy bir qismi hisoblangan.

Butun vohani devor bilan o'rab olgan Kampirakdevor xarobalari Jondor tumani Yakkatut temir yo'l bekti, To'dako'l suv ombori atrofi, Kogon temir yo'l bekti, Qiziltepa temir yo'l bekti, Qiziltepa tumani Malikcho'l hududi, Tavois va Hazora qishloqlari, Vobkent tumani Elach qishlog'i, Shofirkon tumani Vardonze qo'rg'onining shimoliy tomoni, Romitan tumani g'arbida joylashgan Subbuqtepa, Bo'rontepa tepaliklari atrofi, shuningdek, Xoja Ubbondan g'arbg'a tomon cho'l qa'ri hududlaridan topilgan.

Narshaxiyning 943-944 yillarda yozilgan "Buxoro tarixi" asarida keltirilishicha devorni ta'mirlash uchun xazinadan mablag' ajratish to'g'risida Buxoro amiri Ismoil Somoniya taklif qilinganda, u "Toki

men tirik ekanman, Buxoroning devori menman, bundan keyin uni ta'mirlash uchun mablag‘ sarflashga hojat yo‘q”, - deb javob bergen ekan.

Xoja Ubon va uning atrofidagi boshqa qadimdan aholi istiqomat qilgan tepaliklarning birortasida, jumladan, Xoja Ubbonda ham arxeologik qazilma ishlari olib borilmagan va bu tepaliklar tarixning sirli sandig‘i bo‘lib turganligiga hech ham shubha yo‘q.

Xoja Ubon avliyosi hududida Buxoro vohasining qadimiy aholi yashaydigan Varaxsha, Poykend, Vardonze va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab maskanlari kabi bir necha asrlar mobaynida shahriston va aholi yashaydigan qo‘rg‘onlar bo‘lganligi shubhasiz. Keyinroq Zarafshon suvining cho‘llarga etib bormagani sababli bu erlardagi obod go‘shalar cho‘l-u- biyobonlarga aylanib ketgan.

Xoja Ubon ziyoratgohi joylashgan yassi tepalik qadimgi qishloqlardan birining xarobasi bo‘lib, u Poykanddan Xorazmning qadimgi paytaxti Kat shahriga boradigan katta karvon yo‘li ustida joylashgan. Shu sabab Xoja Ubon shu atrof qishloq va yoki aholi yashaydigan maskanlarning eng yiriklaridan bir bo‘lganligi shubhasiz.

Asrlar davomida Zarafshon daryosining yuqori oqimi bo‘ylab sug‘oriladigan maydonlarning kengayib borishi oqibatida uning adog‘ida joylashgan Xurmitan, Xoja Za’faron, Xoja Ubon atroflariga suv bormay, XI asr oxiri XII asr boshlarida bu qadimgi o‘lka sekin-asta suvsizlikdan qurib, bepoyon Qizilqumga tutashib ketadi. Xuddi shu davrda suv tanqisligi oqibatida Poykand shahri ham inqirozga yuz tutadi. Natijada Xoja Ubon raboti orqali Poykandga o‘tadigan karvon yo‘li ham asta - sekin barham topadi.

Usmon ibn Affon “Choriyor xalifa”larning uchinchisi bo‘lib, u 644-656 yillarda xalifalik taxtiga o‘tirgan. Xalifa Usmon boshchiligidida Qur’oni Karimning barcha sur’alari yig‘ilib, yaxlit kitob holiga keltirishga qaror qilindi. Qur’onning boshqa barcha ayrim - ayrim bo‘laklari maxsus farmon bilan yo‘q qilinib, faqat bir xil mazmundagi kitob saqlab qolindi. Keksayib qolgan xalifa Usmon ibn Affon shu kitob ustida mutolaa qilayotgan paytida dushman shamshirining zarbidan jon beradi. O‘shanda Qur’oni Karim kitobining ayrim varaqlariga Hazrat Usmonning qoni tomgan. Bu mudhish voqeasiga 656 yilda ro‘y bergen.

Mustaqillik yillarida Xoja Ubon maqbarasi yangidan bunyod etildi. Tarixiy manbalarda bitilishicha ziyoratgohdagi chashmaxona

XIV asrda, sufizm rivoj topgan davrda, qo‘li gul ustalar tomonidan yuksak badiiy mahorat va ulug‘vorlik bilan bunyod etilgan.

Hozirgi kunda Xoja Ubon ziyoratgohi alohida majmua sifatida shakllantirilib, unda kirish darvozasi, maqbara, tosh quduq, mehmonxona, ayvon bitta majmuaga birlashtirildi. Ziyoratgohni alohida majmua sifatida shakllantirib, davolanishga kelganlar uchun esa alohida yotoqxonalar bunyod etildi va bu ish davom ettirilmoqda. Shuningdek, shu joyda kelib ziyorat qilish, xudoyi, xayriya tashkil etuvchilar uchun ham alohida joy ajratib berildi. Majmuadan alohida yordamchi binolar ham qurib foydalanishga topshirildi.

Bu erda Qusam ibn Abbos to‘g‘risida to‘xtalishimizning asosiy boisi shundan iboratki, u kishi ham yurtimizga birinchi bo‘lib islom dinini olib kirishda faol ishtirok etgan sahabalardan biri sanaladi. Shuningdek, Xo‘ja Ubon avliyosi kabi u kishining o‘limi to‘g‘risidagi rivoyatda dushmanlar tomonidan u kishining boshlari tanalaridan judo qilinganida, u kishi o‘z qo‘llari bilan boshlarini quchoqlagancha tiriklayin g‘orga kirib ketganlari ham aynan Xo‘ja Ubon to‘g‘risidagi rivoyatlar bilan hamomangdir.

Islom olamida ulug‘ avliyolarni ulug‘lash va uning qabrini ziyorat qilish orqali xalq o‘z orzu- umidlari, diniy e”tiqodlarini mustahkamlash, ulug‘ insonlarning qabrlariga ziyorat qilish orqali tasalli olish odat tusiga kirgan.

Rivoyatda keltirilishcha Xo‘ja Ubon ibn Usmonning zamondoshi bo‘lgan Bo‘ron ismli podsho bu kishini yo‘q qilish maqsadida o‘z askarlari bilan qo‘rg‘onni qattiq qurshovga oladi, atrof qishloqlarni talab yakson qiladi, ammo Xo‘ja Ubonning o‘zini qo‘lga olishning imkonи bo‘lmaydi. Bo‘ron podsho Xo‘ja Ubon ibn Usmonning askarlarini engishga ko‘zi etmaganidan so‘ng, hiyla yo‘liga o‘tishga majbur bo‘ladi va u kishini o‘ldirish yo‘llarini qidira boshlaydi. Juda ko‘p mol - mulk evaziga bir hiylagar kampir orqali avliyoning xotinlarini qo‘lga olishadi.

Xotinlari Xo‘ja Ubbondan u kishining badanidan tig‘ o‘tmasligi sabablarini so‘ray boshlaydi. Shunda Xo‘ja Ubon ibn Usmon “Men bomdod namozini o‘qiyotgan paytimda butun vujudim bilan Allohga zikr qilaman, shu vaqtida badanim bamisli asal mumidek yumshab ketadi va faqat shu paytda tig‘ ta’sir qiladi” - deb javob qiladi. Bu gapni hiylagar kampir u kishining xotinlaridan aniqlab, podsho Bo‘ronning xos navkarlariga etkazadi. Podsho Bo‘ron shu yo‘l bilan

hazratni yo‘q qilish uchun o‘z lashkarlarini yuboradi. Xo‘ja Ubbon ibn Usmon hazratlari bomdod namoziga sajda qilayotgan vaqtida dushmanlar qilich bilan uni chopadilar va u kishining boshlari qibla tomonga uchib ketadi.

Shunda Xizr alayhissalom oldilaridan chiqib, “Ey Ubbon qaerga otlanib turibsiz?” - deb so‘raydilar. Shunda Xo‘ja Ubbon ibn Usmon hazratlari “Ka’baning tavofiga”, - deb javob qiladilar. Shunda Xizr alayhissalom: “Jasadengiz bu erda-yu, boshingizga borishga hojat yo‘q, shu erda qo‘nim topping”, - deydilar. Shu bilan u kishining boshlari tanalaridan ikki chaqirim narida er ostiga g‘oyib bo‘lgan emish.

Buxoro shahridagi Chashma-yu Ayub qudug‘idagi suv ichadigan obdasta yo‘qolib qolganida shu erda yashovchi va xizmat qiluvchilar o‘rtasida turli xil gumon va shubhalar paydo bo‘lib, obdastani kim o‘g‘irlab ketdi degan savollar tug‘ila boshlabdi, ammo hech kim uning yo‘qolgani sababini aniqlay olmagan ekan. Ma’lum muddat o‘tganidan keyin Xo‘ja Ubbon ziyoratgohidagi quduqdan suv tortib olayotganlarida o‘sha yo‘qolgan obdasta chiqqan ekan. Xalq orasida hamma muqaddas quduqlar yer osti suv yo‘llari orqali bir - biri bilan bog‘lanadi degan gap bor. Bu rivoyat shunga ishora bo‘lsa ajab emas. Shuningdek bu quduqning o‘zani er ostidan bevosita Makka-yu Madinadagi Havzi Kavsar (obi zamzam)ga borib taqaladi degan gaplar ham bor.

Majmuaning bosh loyihasi viloyatning ulug‘ me’mori, purtajriba inson Mahmud Qosimovich Ahmedov tomonlaridan yurtimizda uzoq asrlar davomida shakllangan milliy - tarixiy an’analarimizga mos holda tayyorlanib amalga oshirildi. Mazkur majmua u kishining qalb qo‘ri, aql shuuri, uzoq yillik tajribasi va ilmiy salohiyati mevasi bo‘ldi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

3.Turki Jandiy, Said Abulhasani Poband, Abdulqodir al-G‘iloniy qadamjolari:

Turki Jandiy - Karomatli shayx Turki Jandiy me’moriy yodgorligi Buxorodagi noyob qo‘hna yodgorliklar sirasiga kiradi. Negaki, Hazrat Abu Nasr Ahmad bin Fazl bin al Musiy al Jandiy (bu zoti sharif Turki Jandi nomi bilan mashhur) mashhur ulamo Abu Bakr Gulobodiyning shogirdi bo‘lib, ilm-ma’rifat ahli orasida yuksak hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lgan.

X asrda yashab o'tgan, asl ismlari Abu Nasr Ahmad ibn al-Fazl ibn Muso al-Muzakkir bo'lgan bu ulug' zot Turki Jandi hazratlari nomi bilan mashhur bo'lganlar. Yoshliklarida ilm olish, Buxoro madrasalarida o'qish maqsadida Jand (Sirdaryo bo'yidagi qadimiy shahar)dan Buxoroi SHarifga kelgan bul zot olim, orif, muhaddis va valiyulloh darajasiga etganlar.

"Tuhfat az zoirin" va "Kitobi Mullazoda" (XV asr) asarida Turki Jandi maqbarasi zikri haqida quyidagi ma'lumotlar bitilgan: "Uning qabri shaharning janubida joylashgan va shahar imoratlariga tutashib ketgan: ash-shayx ul-imom Abu Nasr Ahmad ibn al-Fazl ibn Muso al-Muzakkir al-Jandiyning munavvar qabri o'sha erda joylashgan va u shayx Abu Bakr ibn Ishoq al-Kalobodiyning o'quvchilari va sahabalaridan biri, Alloh Taollo uning ruhini muqaddas qilsin va u odamlar va parilar peshvosi, viloyat va karomat sohibi edi". Abdukarim as-Som'oniyning (1113-1167) "Nasabnama" kitobida yozilishicha, "Abu Nasr Ahmad ibn Fazl al-Jandiy Buxoro imomlaridandur. Bu zot tafsir va hadis ilmida, ma'rifat ilmida peshqadam bo'lganlar".

Shayx Turki Jandi xoklari qo'yilgan joy Buxoro shahridagi mashhur ziyoratgohlardan biri hisoblanib, shu nomdagi (xalq orasida Tayi pushta ham deyiladi) guzarda joylashgan. U erda XX asrning 70-yillariga qadar bir necha qavatli pushta (sag'ana)lar joylashgan ziyoratgoh bo'lgan. Bu ziyoratgoh hozir Buxoro shahridagi Namozgoh ko'chasida joylashgan. Bu ziyoratgohda XII, XIV, XVI asrlarda barpo etilgan masjidda shayx va karomat sohibi Turki Jandi maqbarasi o'rnashgan. O'z davrida buxoroliklar orasida shunday odat taomilga kirgan: Turki Jandi ziyoratgohi oldidan yo'lovchilar ulovlaridan tushib piyoda o'tganlar. Shayxning hurmatini joyiga qo'ymagan yoinki, shunday odat borligini bilmagan chavandozlar esa bu hududdan o'tayotganda o'z ulovlaridan yiqilib tushganligi haqidagi rivoyatlar keng tarqalgan.

Turki Jandi masjidi ichidagi quduq ham tabarruk hisoblanadi. Quduq suvining shifobaxshligi Makkai Mukarramadagi "Zam-Zam" qudug'i bilan ko'rinmas yo'l orqali bog'langanligi bilan izohlanadi. Rivoyatlarga qaraganda, Turki Jandi qudug'i ustida turadigan sirtiga Qur'on oyatlari bitilgan mis jom quduqqa tushib ketib, bir muddat o'tgach, Makkatullo qudug'idan chiqqan. Bir qancha vaqt dan keyin esa o'sha jom Makkatullo qudug'iga tushib ketib, yana Turki Jandi

qudug‘idan topilgan. Turki Jandi va Chashmai Ayub maqbaralari bir davrga mansub inshootlar bo‘lib hisoblanadi. Temuriylar davrida esa XII asrga barpo etilgan maqbara gumbazi ta’mirlangan va ziyoratxona barpo etilgan.

Ziyoratgohning maqbara qismi tashqi gumbazi baland silindrik asosga o‘rnatilgan bo‘lib, uzoqdan ko‘zga tashlanib turadi va binoning shaklu shamoyilini namoyish etadi. Ichki konstruktiv gumbaz esa qalqonsimon bag‘allar yordamida ko‘tarilgan to‘rtta o‘zaro kesishgan ravoqlar ustiga o‘rnatilgan. Temuriylar davrida vujudga kelgan gumbaz osti konstruksiyalar shaklini Buxoroda ilk bor aynan Turki Jandi maqbarasida uchratish mumkin.

Hazrat Said Abulhasan Poband-Hazrat Said Abulhasan Poband 1004 yilda vafot qilganlar. Nasablari to’qqiz halqa orqali Hazrat Imom Hasan raziyallohu anhuga borib taqaladi. “Tuhfat az zoirin” kitobida quyidagi shajara berilgan: “Shayx Sayidul Imom Abulhasan Muhammad ibn Ali bin al Husayn bin al Hasan bin al Qosim bin Muhammad bin al Qosim bin al Hasan bin Zayd bin al Hasan bin Ali bin Abu Tolib r.a. ulamoi shariat, mashoyixi tariqat va haqiqatdurlar”. Ko’rinib turibtiki, Hazrat Said Abulhasan olim, orif, shariat ulamosi tariqatu haqiqat shayxi bo’lgan.

Tarixchi olim Narzulla Yo’ldoshev “Buxoro avliyolarining tarixi” kitobida quyidagi ibratli voqeani keltirgan: “Said Abulhasan rivoyat qiladilarki, bir kun pirim Shayx Ja’far meni iftor qilmoq uchun uylariga taklif qildilar. Ittifoqo, o’sha kun uyda qovurilgan tovuq, shu bilan birga palov uchun masalliq ham tayyor edi. Men nafsim xohishiga kirib, pirga uzr aytib, uylariga bormadim. Iftor payti xizmatchi palovni tavoqqa solib olib kelayotgan payt yiqilib, oshni tuproqqa yakson qildi. Men, nima voqeа ro’y berdi, deb tashqariga chiqdim. Shu zahot daydi bir it uyga kirib, dasturxonadagi qovurilgan tovuqni olib ketdi.

Bomdod nimozida Hazrat Ja’far meni ko’rib: “Kimeki o’z piri taklifini qabul etmasa, Alloh taolo uni it bilan hamtovoq etgay!” - dedilar, iftor paytidagi voqeа ul zotga ayon bo’lgan edi. Men zud tavba qildim, tavbamni qabul etdilar va gunohimni kechirdilar”.

Naql etilishicha, Hazrat Said Abulhasanga tuhmat qilib, ul zotni zindonband etadilar. Har namoz vaqtি qo’l-oyoqlaridagi kishan o’z-o’zidan ochilar ekan. Ibodatni ado qilib bo’lganlaridan so’ng yana oyoq-qullari kishanband bo’larkan. Bu karomat Buxoro podshohiga

ayon bo'libdi. Shoh zudlik bilan zindonga kelib, Hazratdan uzr so'rab, ul zotni ozod qilmoqchi bo'libdi. Hazrat Said Pobandikusho esa: "Alloh xohishiga muvofiq qo'l-oyog'imga kishan solindi. Men Allah taqdiriga tan bergenman. Bu Allah taoloning imtihoni erdi. Hozir bandalikni bajo keltirgumdir. Iltimosim va vasiyatim shuki, meni mana shu kishanlarim bilan, ya'ni kishanlangan holda dafn qilinglar. Toki qiyomat kuni men Allah oldida faxr etay. Allah meni taqdirdan rozi ekanligimni ko'rsin!" -deb jonni Haqqa taslim qilgan ekanlar.

Said Abulhasan hazratlarini Samarcand Darvozasi yonidagi mozorga dafn qilganlar. Lekin yigirma yildan so'ng ul kishining jasadi u mozoristondan olinib, Buxoro shahri ichidagi Said Pobandikusho guzaridagi hovli ichida qayta ko'milgan. Bunday etilishiga sabab shuki, Hazrat muridlarining biri tushiga kirib, meni shahar ichidagi hovliga etib ko'ming, degan ekanlar. Qarangki, bu ham bir karomat hisoblanadi. Chunki Samarcand Darvozasi yonidagi mozoriston sobiq Ittifoq zamonida yer bilan yakson qilindi, yo'qotildi. Hovli ichida bo'lgani bois Hazrat Said Poband qabrlari talafotdan shikast ko'rmadi.

Hazrat Said Pobandning qabrlari Buxoro shahri Xorazm ko'chasidagi hovli ichida joylashgan. Mozorlari yonida masjid ham bor. Bu masjid Hazrat Said Poband nomlaridadir. Payg'ambarimizga ilk bor vahiy kelgan Hiro tog'idagi tabarruk tosh Hazrat Said Poband qabrlari tepasiga qo'yilgan. Hazrat Said Abulhasan Poband karomatlari shuki, Hazrat qabrlarini ziyyarat qilib, ne mushkul ish, ne muammongiz bo'lsa, Allah taolodan so'rasangiz, Allah duongizni ijobat qiladi. Bu er duo ijobat bo'ladigan joydir.

Sobiq Ittifoq davrida Said Poband ziyyaratgohlari qarovsiz, masjidlari vayronaga aylantirilgandi. Istiqlol sharofatidan mazkur guzarning fuqarosi Ibrohim Qosimovning say'-harakati, tashabbusi bilan ushbu ziyyaratgoh va masjid ta'mirlandi. Ayni shu kunlarda ziyyaratgoh obod, masjidda esa besh vaqt namoz ado qilinayotir.

G'ilony - Piri-Dastgir qudissa sirruhuning ismlari Shayx Muhiddin Abdulqodir Jiloniy (G'av sul A'zam) bo'lib, Eronning Jilon (Gilon) viloyatida 1079 yilda tavallud topganlar. Piri-Dastgir quddisa sirruhu 1166 yilda Bog'dod (Iraq)da vafot etganlar. Hazratning muborak qabrlari ham Bog'dodda qo'nim topgandir. Buxoro viloyatidagi ushbu ziyyaratgoh, muqaddas qadamjo bo'lib, Xazratning ramziy qabrlari xisoblanadi. Bugungi kunga kelib mazkur

ziyoratgoxda Maqbara, minora, hovuz, quduq bizgacha saqlanib qolingan.

U zot Qodiriya tariqatining asoschilaridan bo‘lib sohibi karomat, avliyolardan bo‘lganlar. Mustaqilligimizning sharofati bilan ko‘plab ziyoratgohlar, muqaddas zamin qadamjolari obod bo‘lmoqda, shu jumladan hazrat “Piri-Dastgir” ziyoratgohi (masjidi) ham shular jumlasidandir. Sahovatpesha homiylar tashabbusi bilan ziyoratgohda namozxonalar uchun masjid, tahoratxona, hujralar va darvozaxona qayta ta’mirlandi. Bugungi kunda “Piri-Dastgir” jome masjidida hayit namozlari, juma namozlari jamoat bilan ado etilmoqda. Bu mavzening nomi qadimda Sepulon bo‘lgan. Qadimda bu ziyoratgohda minora, marmartoshli hovuz, chashma (quduq), maqbara va masjid bo‘lgan. Maqbara ichida qabrular bor. Bu qabrular Hazrat Piri Dastgirning muridlari xokjoyi degan rivoyatlar mavjud.

Sobiq Itgifoq zamonda ushbu majmuadagi masjid buzib tashlandi. Hovuz ichi axlatxonaga aylantirildi. Ziyoratga kelish, chashma suvidan bahramand bo‘lish ta’qiqlandi. Istiqlol sharofatidan Hazrat Piri Dastgir ziyoratgohi qayta obod etilmoqda. Chashma ustida gumbaz tiklandi, hovuz qayta ta’mirlanib, asl holiga keltirildi. Ayni shu kunlarda bu erda imom - xatib Hoji Jonmuhammad Gulovning say'-harakati bilan 35 gumbazli ulkan jome’ masjidi bino qilinmoqda.

Naql etilishicha, Hazrat Abdulqodirning onalari deydilarki, farzandim Abdulqodir Ramazon oyida tug‘ilgan edi va hargiz kunduz kunlari meni emmasdi va iftorlik payti emar edi. Bir vaqt Ramazon oyi boshida havo bulutli bo‘lib, odamlar Ramazon oyining kirgan, kirmaganini bilmay qoldilar, ne ish qilarini bilmay, Xazrat Abdulqodirning onalari huzurlariga kelib so’radilar: “Bugun sahardan so’ng Hazrat Abdulqodir sizni emdilarmi?” Onalari dedilar: “Yo’q!” Ma’lum bo’ldiki, Ramazon oyi kirgan ekan (Muhammad Siddiq Rushdiy, “Avliyolar sulton”, 22- sahifa).

“Nafohatul uns” da keltirilishicha: Hazrat yoshliklarida Bag‘dodga ilm olmoq uchun bormoqchi bo‘lib onadaridan ruxsat so’radilar. Onalari qirq tilla tangani Hazratning choponlari ichiga qo’yib tikib berdilar va dedilar: “Hamma vaqt rosgo’ylikka amal eting!” Hazrat onalariga va’da berib, karvon bilan yo’lga chiqdilar. Sahroda karvonni qaroqchilar taladi. Bir qaroqchi Hazratdan: “Senda boyliqdan nima bor?” -deb so’raganda, Hazrat Abdulqodir: “Menda qirq tillo tanga bor!” -dedilar. U ishonmay ketdi. Ikkinchisi qaroqchi

so'radi, unga ham avvalgi javobni berdilar. Qaroqchilar molni taqsimlayotgan paytda boshliqlariga dedilarki: "Bir o'smirdan so'radik, u qirq tillom bor, dedi. Lekin biz unga ishonmadik. O'zi juda ham yupun kiyangan". Qaroqchilar boshligi Hazratni huzuriga chaqirib, nimang bor, deb so'raganda, Hazrat avvalgi javobni berdilar. "Tillang qani?" -deganda, Hazrat: "Choponim ichiga qo'yilib tikilgan" -dedilar. Qaroqchilar Hazratning choponlarini yirtib ko'rganda, darhaqiqat, qirq dona oltin tanga chiqdi. Qaroqchilar boshlig'i hayron bo'lib so'radi: "Ey, yigit! Axir biz bu tillolaringdan bexabar edik-ku! U mustahkam joyda yashirilgan ekan. Lekin nega sen rost gapirib, boyligingdan ayrilding?" Hazrat Abdulqodir dedilar: "Men onamga hamma vaqt rost gapiraman deb va'da berib, ahdu paymon qilgan, shu bois ahdu paymonimni buzmadim, rost gapirdim!" Qaroqchilar boshligi bu javobni eshitib yig'ladi va dedi: "Men shuncha yillardan beri Alloh taologa bergen ahdu paymonimga vafo qilmasdan gunoh ishlarni qilib kelayapman! Vo hasrato! Bas! Endi tavba qildim. Qayta qaroqchilik etmayman! Alloh rizoligini topmoq uchun to umrim so'ngigacha harakat qilaman!" Boshliqlarining bu gapini eshitib, qolgan qaroqchilar ham tavba qildilar va karvon ahliga barcha molu mulkclarini qaytarib berdilar.

"Manoqibi Qodiriya"da yozilishicha, bir necha muddat Hazrat Abdulqodir Jeloniy bir oyoqda turib ibodat etadilar. Nido keladiki: "Ey, Sayid Abdulqodir! Ne sabab bir oyoqda turib ibodat qilasen?" Ul Hazrat dedilar: "Iloho, butun er yuzi avliyoulloh bilan to'libdur, ikkinchi oyog'imni sig'dirgali joy yo'q. Ikkinci oyog'imni qo'yaman desam, avliyouullohlar gardaniga tushgay!" Yana nido keldiki: "Ey, Abdudqodir! Oyog'ingni mening avliyolarim gardaniga qo'ygil!" Hazrat amri ilohiyni bajo keltirdilar va barcha avliyolar gardanini past qildi.

Tayanch iboralar: Islom dini, Xoja Ubon, Turki Jandiy, Said Abulhasani Poband, Abdulqodir al-G'iloniy, qadamjo, mozor, ziyyaratgoh.

Savollar

1. Buxoroda islom dini qanday tarqaldi?
2. Xoja Ubon ziyyaratgohi qaerda joylashgan?
3. Turki Jandining qabrлari qaerda joylashgan?
4. Hazrat Abdulqodirning onalari farzandi to'g'risida qanday ma'lumotlarni bildiradilar?

5. Hazrat SHayh Sayyid Muhiddin Abdulqodir Jiyloniq qachon tug‘ilganlar?

Manba va adabiyotlar

1. Нарзулла Йўлдошев Бухоро авлиёларининг тарихи. Бухоро. 1997. 144-б
2. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Бухоро, Дурдона. 2012. 291-б
3. Қушшақов Ихтиёр Исройлович. Абдулқодир Жийлоний: ҳаёти, фаолияти, шогирдлари, авлодлари. Ижтимоий- гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -2020. № 1(1).
4. Саййид Абдулқодир Гилоний Сирру-л-асрор (арабчадан Отабек Жўрабоев тарижимаси). Islom tasavvufi manbalari (Tasavvuf nazariyasi va tarixi), Toshkent - 2005.
5. Авлиёлар султони. Туронлик валийлар. Тўплам. Янги аср авлоди. 2004. 256-б

4-MAVZU. BUXORODAGI ABU HAFS KABIR BUXORIY VA ABDULLA ABU HAFS SAG‘IR QADAMJOLARI

Reja:

1. Hojatbaror – imom Abu Hafs Kabir Buxoriy qadamjolari
2. Abdulla Abu Hafs Sag‘ir qadamjolari

1. *Hojatbaror- imom Abu Hafs Kabir Buxoriy qadamjolar-* O‘lkamizga eng birinchi fiqh ilmini olib kelib, uni keng yoygan va bu joyda butun olamga mashhur Movarounnahr fiqh mакtabiga asos solgan faqih bobokalonimiz biri “Abu Hafs Kabir” kunyasi bilan tanilgan Ahmad ibn Hafs Buxoriy 150 hijriy (767 milodiy) yili Buxoro shahrining Fagsodara mahallasida tug‘ilib, 216 hijriy (832 milodiy) yili o‘scha erda vafot etgan.

Ahmad ibn Hafs ilm izlab Bag‘dodga boradi. U erda Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy bilan uchrashadi va undan dars ola boshlaydi. Hanafiy mazhabi fiqhini o‘rganib, boshqa diniy ilmlarda ham kamolga etganidan keyin Buxoroga qaytib keladi.

Hazrat Abu Hafs Kabir rohimahulloh kelganlarida Buxoroda otashparastlar hali ko‘p bo‘lgan va bu zot sharofatlaridan Buxorodagi otashparastlar ham islom dinini qabul qilgan. Abu Xafs Kabir islom qonunshunosligi asoslarini yaratgan yirik olim bo‘lgan. Narshaxiyning yozishicha, uning sharofati bilan Buxoro «Qubbat ul-islom» – «Islom dinining gumbazi» unvonini olgan.

Abu Hafsning o‘ziga «Kabir Buxoriy» «Buxoriylarning kattasi» va «Hojatbaror imom» degan unvonlar berilgan, o‘g‘li Abu Abdulloh (Abu Hafs Sag‘ir Buxoriy- 877 y.) ham otasi singari fiqh ilmida peshqadam bo‘lgan. Abu Xafs Kabir fiqhning turli masalalari yoritilgan «Al-Ahvo’ val-ixtilof» («Havoyi gaplar va kelishmovchiliklar»), «Ar-raddu alal-Lafziyya» («Yuzaki qarovchilarga raddiya») va boshqa asarlar yozgan. Abu Xafs Kabir Buxorodagi Darvozai nav qarshisidagi tepalikda dafn etilgan. Buxoroliklar u joyni muqaddas sanab, «Haqrah» («Haq yo‘l») va Xoja Imom Abu Hafs deb ataganlar. Mustabid sovet tuzumi davrida uning qabri va atrofidagi me’moriy yodgorliklar buzib tashlangan.

Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida quyidagicha hikoya qilinadi: «Abu Hafs Kabirning shuhrati Islom olamiga tarqaldi, hatto arab diyori olimlari biron-bir mushkul masalaning javobini bilmay qolishsa, Buxorodan ular tomon qatnaydigan karvonga o‘z vakillarini qo‘shib masalaning javobini bilib kelish uchun jo‘natishar edi. Hojilar karyonidan bir kishi Abu Hafs Kabirni yoniga kelib, masala so‘ragan ekan. Abu Hafs Kabir hayratlanib: “O‘zing-ku Iroqdan kelyapsan, nima uchun Iroq olimlaridan so‘ramading?” debdi, U kishi: “Bu masalada Iroq olimlari bilan munozara qildim, lekin javob bera olishmadi va menga “Buxoroga borib, Abu Hafs Kabir yoki uning farzandlaridan so‘ra, ular javob bera oladi”, deb aytishdi”, dedi.

Imom Abu Hafs Kabir bir kecha-kunduzda Qur’on karimni ikki marta xatm qilar, odamlarga dars ham berar edi. Keksayib zaiflashgach, bir marta xatm qiladigan bo‘ldi. Yana ham zaiflashib qolgach, to dunyodan o‘tguniga qadar, bir kecha-kunduzda Kalomullohning yarmini o‘qiydigan bo‘ldi. Alloh taolo u zotni rahmati va rizosiga g‘arq etsin!

Olim fiqhning turli masalalariga doir ko‘p asarlar yozgan. Bulardan “Fatavoi Abu Hafs Kabir”, “Kitabul imon” ayniqsa mashhur bo‘lgan. Abdulkarim Sam’oni yozishicha, Abu Amr Ahmad ibn Abu

Bakr al-Xuzoiy al-Moxiy: “Men Abu Hafs Kabirning “Kitabul imon” kitoblaridan ta’lim olganman”, degan. Abu Hafs Kabirning fiqhga doir turli masalalar yoritilgan “Al-Ahvo’ val ixtilof” (“Havoiy gaplar va kelishmovchiliklar”), “Ar-Raddu alal lafziya” (“Yuzaki qarovchilarga raddiya”) kabi asarlari ham bor.

Imom Shofi’iy Abu Hanifa ta’riflarida “Odamlar fiqhda u zotning boqimandalaridir” deganlaridek, Buxoroning barcha olimlari ham Abu Hafs Kabir oldilarida qarzdordirlar. Chunki buyuk muhaddis, hadis ilmining peshvosi Imom Buxoriy u kishining shogirdi bo‘lgan. Buxoroning aksar olimlari Abu Hafsdan tahsil olishgan.

Abu Hafs Kabir, amir bo‘ladimi, oddiy fuqaro bo‘ladimi, qanday muammo bilan kelsa, hal qilib berar edi. Oldi-sotdi yoki ibodat masalalarini juda aniqlik bilan echardi. Shu bois odamlar olimni “Hojatbaror imom” deb hurmatlashgan.

Imom Abu Hafsdan ilm salobati kuchliligidan suhbatdoshi so‘z aytolmay qolar ekan. Buxoroning o‘scha paytdagi amiri Muhammad Tolut bunga ishonch hosil qilish uchun u zotning oldilariga boradi. Imom unga savol bilan murojaat qilganida, amir bir so‘z ham ayta olmabdi. Buxoro amiri vaziriga: “Men bir necha marta Arab xalifasi huzuriga borib, u bilan so‘zlashganman. Xalifaning haybati meni so‘zlashdan to‘xtata olmagan edi, ammo Abu Hafsnинг salobatidan so‘z ayta olmay qoldim” debdi.

Rivoyat qilishlaricha, Imom Abu Hafs Kabir Buxoroda hanafiy mazhabi asosida ta’lim beriladigan ilk madrasani qurdirgan. Bu madrasa hozirgi “Poyi Kalon” mavzeida bo‘lgan. Alloma uylaridan madrasaga borishda bozor orqali o‘tardilar. SHunda haybatlaridan bozorchilarning shovqin-suroni to‘xtab qolardi.

Abu Hafs Kabirning ilmda zabardast o‘nlab shogirdi bo‘lgan. Ulardan Abu Ja’far Rizvon ibn Salim Badakoriy Buxoroning Badakor qishlog‘idan edi. Yana shogirdlaridan Abul Hasan Muqotil ibn Said Baydariy, Abu Solih Toyyib ibn Muqotil Xunomatiy, Muhammad ibn Hotam Subizgukiy, Muhammad ibn Abdullo Abu Zahhok Fazl ibn Hasson Sutikaniy, Abu Usmon Said ibn Sulaymon SHargiy, bu kishining otasi Abu Said Sulaymon ibn Dovud SHargiy ham Abu Hafs Kabirdan ta’lim olgan.

Imom Abu Hafs Kabir zamonasining mujaddid olimi sifatida tan olingan. Bu zotning bizgacha etib kelgan noyob asarlari bundan keyin ham musulmonlarga xizmat qilishi shubhasiz.

Abu Hafs Kabirning ijtimoiy hayoti to‘g‘risidagi turli hikoyalar manbalar orqali bizgacha etib kelgan. Masalan, “Saloti Mas’udiy”da keltirilishicha, Xoja Abu Hafs Kabir Buxoriy, Xalaf Ayyub va Xoja Abu Sulaymon Jurjoniylar, Muhammad Hasanning shogirdlaridan bo‘lganlar.

Xalaf Ayyub va Jurjoniylar bir yilda yod olgan saboqlarini Abu Hafs bir oyda, ular bir haftada yod olgan narsalarini esa bir kunda yod oлар ekanlar. Xoja Abu Hafs yod olgan narsalarini yozmas edilar. Ular nega kitob yozmaysiz degan savolga: “Man shul tariqa ilm o‘rganamankim, qog‘ozga yozmoqg‘a va kitobga hojat qolmagay, men ko‘krakka yozarman”, deb javob berardilar. Shunda ular: “To‘g‘ri aytasiz, ammo, agar sizga ajal etsa, sizdan kitobat mo‘minlarga yodgor qolmaydi” – dedilar. Xoja esa ularga: “Mening yo‘limda daryo bor qo‘rqarmanki, mabodo kemaga suv kirib kitoblarimni ho‘l qilib nobud bo‘lg‘ay”, -deb javob berdilar. Axiri, ular Xojani kitob yozishga ko‘ndirdilar.

Shundan so‘ng, Abu Hafs Kabir kitob yozdilar. Tahsil olib bo‘lganlaridag so‘ng, uchalovi ham fatvo berishga ijozat olib, o‘z yurtlariga qaytdilar. Xalaf Ayyub Balxga, Xoja Abu Sulaymon Jurjoni Samarqandga va Xoja Abu Hafs Kabir kemaga o‘ltirib Buxoroga kettilar. Xoja karomat qilganlaridek, kemaga suv kirdi va barcha kitoblar tamom ho‘l bo‘lib, o‘qib bo‘lmaydigan darajaga etdi. Abu Hafs yurtiga yaqinlashganda, Buxoroga odam yuborib, ahvolini ma’lum qilishni va u erdan qalam, qog‘oz va siyoh keltirishini buyurdilar. Kerakli narsalar keltirilgandan so‘ng, barcha kitoblarni qaytadan xatosiz zehnlari samarasi bilan yozdilar. Faqat uch masalada (Bir rivoyatda esa, besh masalada) ixtilof voqe bo‘ldi, deya keltiriladi.

U kishining qahatchilikda qilgan tadbirlari bayoni: Yana shu kitobda keltirilishicha, Buxoroda bir yil qahatchilik bo‘lib bir xarvor bo‘g‘doyning bahosi 100 tangaga etishgan ekan. Xoja xazinachilarini chaqirib hamma mollarni chiqarib sotib, puliga bug‘doy xarid qilishni buyuribdilar. Buxoro xalqi Xojaga ta’na qila boshladilar. Qahatchilikdan xalqqa tanglik etishganda, Xoja xazinachiga omborlarni ochib bir xarvor bo‘g‘doyning bahosi 90 tangaga sotishni aytibdilar. Buxoro xalqi kelib bir xarvor bug‘doyni 90 tangadan xarid qilibdi, shu tariqa bir xarvor bug‘doyning bahosi 90 tangaga qaror topibdi. Xoja yana bug‘doy olib, omborlar to‘lgandan so‘ng 80 tangadan baho qo‘yib sotishga buyuradilar. Shu tariqa bug‘doyning

bahosi 80 tangaga tushadi. Alqissa, shu tadbir bilan bug‘doy bahosini to o‘n tangaga keltiradilar. Keyin xoja xazinachini chaqirib unga: “Kel ko‘raylik, biz qancha foyda ko‘ribmiz”, - dedilar. Xazinachi: “Yuz tangalik bug‘doy o‘n tangaga tushdi ammo, xazina bo‘shab qoldi”, - dedi. Xoja: “Sen bilmabsan, oncha xazina oxirat xazinasidir. Biz oxirat xazinasini to‘ldirdik”, - dedilar. Bu Xojaning saxovatlaridan biri edi.

Abu Hafs al- Kabir Buxoriyning jufti haloli ham nihoyatda ilmli ayol bo‘lib, faqihga doim qimmatli maslahatlar berar va uning qarashlariga jiddiy munosabatlar bildirardi. Shu bois, bir kuni Abu Hafs ayoliga: “Ey zaifa, teshib o‘tadigan yoy otding”, - degan ekan. va bu hikoya maslakul -muttaqinda qo‘yidagicha keltirlgan. E’tibor bering! Bu u zotning taqvolari qanchalik darajada yuksakligini bildiradi va amalda bu sababdan katta foydalarga ega bo‘lganlariga o‘zingiz guvoh bo‘lasiz.

Hikoyat: Xoja Abu Hafs Kabir pirlari ijozat berib: “Buxoroga borib yo‘l ko‘rsating va pand nasihat qiling”, -dedilar. Xoja Abu Hafs Kabir xotinlariga maslahat qildilar. Zaifalari aytdilarki: “Yo imom, avval hech narsa egasidan be ijozat edingizmi?” Xoja aytdi: “norasidalik vaqtimda bir kuni otash parastlarning kuchasidan borar edim. Bir gandoni piyozga o‘xshash ko‘kat bargini olib edim. Seni so‘zing bilan u gunohim yodimga keldi”. Xotini aytdi: “Ey xoja, kishining haqqi sizda bordur, so‘zingiz haloyiqqa ta’sir qilmas. Bu gunohingiz bilan uyalmaysizmi Buxoroga borib va’z aytaman degani?” xoja bu so‘zni eshitib otashparastning ko‘chasiga yugurdi. Ko‘zidan yoshi oqdi.

Ul gandonaning egasini topib, oziroq yalindi, yolvordiki rozi bo‘lgin deb, rozi bo‘lmadi. Xoja aytdi: “Ey birodar, o‘sha gandona bargi uchun bir tanga berayin”. U qabul qilmadi. Oxiri Xoji: “Yuz tanga beray”, dedi. Shunda u kofir aytdi: “Ey Xoja, bu so‘zni senga kim aytdi?” Xoja: “Zaifam aytdi”, dedi. Kofir aytdi: “men ham bu kecha xotinim bilan maslahat qilib javobini aytaman”, dedi. Tarso uyiga borib, xotiniga bu so‘zlarni bayon qildi. Xotini: “bir bargi gandona uchun sendek kofirga bunchalik tavallo qilibdi demak uning dini haq ekan. U Xoja yana ertaga kelsa, uni diniga kiraylik”, dedi. Tarsoning ham ko‘ngli moyil bo‘ldi. Ertasi Xoja bordi. Ikkovlari Xojaning oldida iyomon keltirdi. Ularni ko‘rib kofirning qarindoshlari

hammasi musulmon bo‘ldi. Bu taqvolari hamma joyga tarqaldi va butun Buxoro xalqi ul zot bormaslaridan turib iymon keltirdilar.

Imom Abu Hafs aytdilar: “Tahoratim yo‘q holida qog‘oz bozoridan o‘tmadim”. Faqih Abu Lays Samarqandiy aytdilar: “Yuz tuyaning keynidagi tuyada Qur‘on bo‘lsa, avvalgi tuyaning jilovini betahorat ushlamadim”. Hikoyat: bir podshoh shikor qilib, shikoridan adashib bir qishloqqa kirdi. Anda bir uyga tushdi. U uyda tong otguncha rohat qilib uxlamadi. Subhda uy sohibi aytdi: “nima uchun uxlamadingiz?” Podshoh aytdi: “Men qanday rohat qilayki bu uyda kalomulloh bordir”. Uy sohibi aytdi: “Agar menga bildirsangiz o‘zga uyga olar edim”. Podshoh aytdi “Xo‘p g‘aflat qilmoq uchun “Kalomullohni olg‘il”, deyishga sharm qildim. Agar unday desam jonimga jafo bo‘lar edi”. Ey azizlar! Podshoh shunaqa taqvo qilsa, fuqorolari qachon xilof qilur!

Kalomullohni kunlik vazifa qilganlari bayoni: Imom Abu Hafs Kabir bir kecha-kunduzda Qur‘on karimni ikki marta xatm qilar, odamlarga dars ham berar edi. Keksayib zaiflashgach, bir marta xatm qiladigan bo‘ldi. Yana ham zaiflashib qolgach, to dunyodan o‘tguniga qadar, bir kecha-kunduzda Kalomullohning yarmini o‘qiydigan bo‘ldi. Etti yoshlarida Qur‘oni karimni to‘liq yodlaganlar. Alloh taolo u zotni rahmatiga olsin. Rivoyat qilishlaricha, Imom Abu Hafs Kabir Buxoroda hanafiy mazhabi asosida ta‘lim beriladigan ilk madrasani qurdirgan. Bu madrassa hozirgi “Poyi Kalon” mavzeida bo‘lgan. Alloma uylaridan madrasaga borishda bozor orqali o‘tardilar. Shunda haybatlaridan bozorchilarning shovqin-suroni to‘xtab qolardi.

Rivoyat qilishlaricha, Yahyo ibn Nasr shunday degan: “Men Xoja Abu Hafsnинг xuzurida bo‘ldim. U ertalabki namozini o‘qib bo‘lib, qibлага qarab o‘tirar va bir narsa o‘qir edi. Kun chiqqach, orqasiga qaragan edi, u ilm o‘rgatadigan shogirdlari hali kelmagan ekan. O‘rnidan turib to‘rt rakat namoz o‘qidi va mana shu to‘rt rakat namozida Qur‘oni karimdan Baqara, Oli imron, Niso va Moida suralarini qiroat qilib salom bergenida ham jamoa hozir bo‘limgan edi. U yana o‘rnidan turib, o‘n ikki rakat namoz o‘qidi va Ra‘dgacha qiro‘at qildi”. Hazrat Abu Hafs ilmiyatidan foydalanib, “Chahor kitob”, Sufi Allohyorning “Maslakul muttaqin” kitoblari yuzaga kelganligi manbalarda takidlanadi.

Hazrati Abu Homid G‘azzoliy “Mukoshafat-ul qulub” asarlaridagi “G‘iybat-gap-so‘z-ig‘vo” bobida Abu Hafsnинг quyidagi

gaplarini misol keltiradi: “Birovning ig‘vo qilishning gunohi bir Ramazon oyi ro‘za tutmaslikning gunohidan yomonroqdir”. Va faqih bu so‘zlariga ilova qilib o‘shbu so‘zni keltiradi: Kim bir fiqh olimini ig‘vo qilsa, qiyomat kuni peshonasida “Bu Allohning rahmatidan umid uzuvchidir!” deb yozilgan holda keladi.

Anas ibn Molik rivoyat qiladi: Alloh rasuli aytdilar: -“Me’roj kechasi bir to‘da insonlarni ko‘rdim, tirnoqlari bilan yuzlarini timdalab va iflos narsalarni eyardilar. Jabroildan: “Bular kim?” – deb so‘radim. Dediki: “Bular dunyoda insonlarning go‘shtini eganlar, g‘iybat qilganlardir. Ma’lumki, Buxoro shaHrida birinchi bo‘lib Qutayba ibn Muslim tomonidan 712 yil masjid bino qilingan. Shuni ta’kidlash lozimki, bu masjid o‘sha davrda ham maktab, ham madrasa vazifasini o‘tagan.

U zoti sharif hanafiylikning haqiqiy tirik zabardast olimi va tarqatuvchisi edi u kishi tufayli barcha atroffidagi biror shahar boshqa mazhabga qaramasdilar. Chunki hamma mazhablarning asli Abu Hanifadan tarqash sabablarini ko‘rsatardi. Imom Shofe’iylar ham u kishining nevara shogirdi hisoblanishini o‘sha zamon vakili bo‘lib yaxshi tushuntiradilar. O‘zları Imom Shofe’iy bilan zamondosh va bir yilda ya’ni: 150 hijriy yilda to‘g‘ilganlar.

X - asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida: “Imom Abu Hafs Kabir o‘z davrining faqihlaridan biridir, zohid va ham olim bo‘lgan”, - deyiladi. Abdulkarim as-Sam’oniyning aytishicha, Abu Hafs Kabir ko‘pgina faqihlarni tarbiyalab, kamolga etishtirgan.

Buyuklar ahvolini buyuk kitoblar va buyuk ustozlarning qo‘lida ta’lim olganlarning e’tirofi ila tushunamiz. Aslida bu ta’rifni biz Sadrush shari’ani ta’rifi bilan yaxshi tushunsak bo‘ladi. U zoti sharif Imom Buxoriy rahmatullohi alayh haqlarida shunday deydi: U zoti sharif pirimiz, ustozimiz, maqomi va martabasi va fazilati tengi yo‘q muallimimiz, deb keyin u zotning haqqiga yaxshi duolarni qilib juda ham yumshoqlik va muloyimlik bilan hadis aytish qoidalariga to‘liq amal qilib, keyin hadisni o‘z masalalariga xujjat qilganlarini keltirib o‘tadilar. Lekin shuni unitmaslik kerakki shunday buyuk muhaddis Ismoil Buxoriy r.a. Abu Hafs Kabir rahmatullohi alayhining buyuk shogirdlaridan hisoblanadi va u zotning buyuk duolari sharofatidan shu martaba va maqomni egallaganlar.

Shak shubha yo‘qki ulug‘lar duosi va sharofati bilan inson umuman yetib bo‘lmaydigan qirralarni bosib o‘tish mumkin. Imom Buxoriy rahimahulloh zamonida u kishidan o‘tadigan biror- bir kishi bo‘lman. U zot aytadilar menga tenglashadigan biror- bir kishi yo‘q bo‘lsa ham u zot palonchi ustozim mendan ko‘ra ilmda yuqori turadi, deb aytgan ekanlar. Bu gaplaridan so‘ng u ustozlaridan bu gapni so‘raganlarida ustozlari u aslida ilmda mendan yuqorilab ketgan. Lekin, ayrim masalalarda men bilan tenglashganidan shunday, degan deb u zotni o‘z ustozlari buyukligini ta’riflagan ekan.

Har bir zamonda olimlar ichida etib bo‘lmaydigan maqom va martaba bo‘ladi, uni olimlar o‘zlari ham e’tirof qilib o‘z zamonasidagi olimlar bilan o‘zlarini taroziga solib kim maqomda qanday natijaga ega ekanliklarini har xil yo‘llar bilan aniqlashganlar. Bag‘dodlik alloma Imom Muhammad Hasan SHayboniy Abu Hafs Kabir rahimahullohga ijoza bergan. Abu Hafs Kabir hanafiy mazhabi asosida fiqh ilmining sir-sinoatlarini Movarounnahrda, O‘rta Osiyoda birinchi marotaba tarqalishida jonbozlik ko‘rsatgan zotdir. Bu duoning sharofatidan butun Movarounnahr va qo‘shni davlatlarni ilm nuriga to‘ldirib tashladi. Bu zot kelmasdanoq taqvolarining natijasidanoq butun Buxora halqi taslim bo‘ldi. Bu zotning so‘zlari va irshodlari va ko‘rsatmalari orqali ular qalbiy kasallariga shifo topishdi. Butun qalbiy kasalliklardan forig‘ bo‘lganlar bu kishiga shogird to‘shardi. Bir o‘zleri 40 dan ortiq madrasa ta’sis etdi va dars halqalarini paydo qildi. Go‘yo u zotga kelgan shogirdlari ana endi haqiqiy hayotda yashayotganlarini aytishardi.

Vafotlari: Abu Hafs Kabir rahmatullohi alayh 216 hijriy yili (832 milodiy) Buxoroda vafot etadilar va hozirgi Hazrati Imom mazeiga dafn etildilar. Abu Hafs Kabir Buxoriyning qabr toshida: “Movarounnahr allomalari va ulamolarining ustozi”, degan yozuv bitilgan.

Abu Hafs Kabir Hojatbaror butun musulmon ahlining tabarruk ziyyaratgohiga aylangan va u kishining qabrlari hurmat ila ziyyarat etiladi.

2. Abdulla Abu Hafs Sag‘ir qadamjolar: Buxoro ahlining ilmli bo‘lishiga, Buxoroda ilm keng tarqalishiga ko‘p jihatdan Abu Hafs Kabir bilan birgalikda u kishi o‘g‘illari ham sabab bo‘lgan. Sam’oniyning aytishicha, Abu Hafs Kabir ko‘plab faqihlarni tarbiyalab yetishtirgan. Abu Hafs Kabir hanafiy mazhabi fiqhining

Movarounnahrda tarqalishida qancha jonbozlik ko'rsatgan bo'lsa, uning o'g'li Abdullohning ham bu borada xizmati katta bo'lган. Shuning uchun ham Abdullohni "Abu Hafs Sag'ir", ya'ni "Kichik Abu Hafs" deb atashgan.

Katta shogirdlari va ilmlarining merosxo'ri buyuk olim Abu Hafsi Kabirning o'g'illari Abdulloh ibn Ahmad rohimahulloh ya'ni Abu Hafs Sag'ir (faqihning farzandi kichik Abu Hafs)ning to'liq ismlari - Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Hafs ibn Zibriqon al-Buxoriydir. U kishi o'z otalarida talim olib, katta faqih va Buxoro shayxi darajasiga etishgan. Adabiyotlarda Abu Hafs Sag'ir al-Buxoriyning vafotlari 877 yildir deb qayd etiladi. Hazrat Abu Hafs Sag'ir Hazrat Abu Hafs Kabirnint o'g'illari bo'lib, islom olamida Abu Abdulloh al Faqih nomi bilan mashhur. Hazrat Abu Abdulloh ilmni o'z otalari Abu Hafs Kabirdan o'rganganlar.

"Nasabnama"da Abu Abdullohning juda ko'p shogirdlari nomlari zikr etilgan, jumladan, Abu Hafs Axmad ibn Hotam as Sikachkasiy Buxoriy (vafoti 938 yil), Abu Bakr ibn Asad Sibadmuniy, Abu Ahmad Hakim ibn Luqmon ar Romoniy va boshqalar.

"Samariya" asarida esa Hazrat Burhoniddin Marg'inoniyning (1123-1197) ustozlari silsilasi keltirilgan. Ushbu silsilada Hazrat Abu Hafs Sag'ir Abu Abdulloh al Faqih nomlari ham bor. U silsila quyidagicha: Burhoniddin Marg'inoniy Najmuddin Umar an Nasafiyning shogirdi, u kishi faxrul islom al Pazdaviydan, ul kishi Imom SHamsul aimma Halvoiydan, bu zoti sharif Imom al Sa'diydan, bu zot Imom Xalil Abu Bakr bin Fazl al Buxoriydan, bu kishi Imom Abdulloh bin Ya'qub Saiddan, bu kishi Abu Hafs Sag'ir Buxoriydan, bu kishi o'z otalari Abu Hafs Kabir Buxoriydan saboq olganlar. Abu Abdulloh al Fakih olim, obid, faqih, valiyulloh edilar. Otalari kabi hanafiya mazhabini O'rta Osiyoga yoyishda jonbozlik ko'rsatganlar. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu zoti sharif juda ham jasoratli bo'lган. 874 yilda Xorazmdan Xusayn ibn Tohir kelib Buxoroni talaydi, shaharning ko'p qismini vayron etadi. Abu Abdulloh hazratlari Samarcanddagi podshoh Nasr ibn Ahmad Somoniya maktub yozib, Buxoroga hokim yuborishni iltimos qiladilar. 874 yil Nasr ibn Ahmad ukasi Ismoil ibn Axmad Somoniyni Buxoroga amir etib jo'natadi. Ismoil Somoni sharofatlaridan Buxoroda tinchlik, barqarorlik, obodongarchilik bo'lган ekan. Abu Hafs Sag'ir yil vafot

etganlaridan keyin otalari Hazrat Abu Hafs Kabir qabrlari yonida dafn etiladi.

Abu Hafs Sag‘ir ham arab yurtlariga ilmiy safar qilganlar. Bu safar davomida Abul Valid at-Tayolisi, Humaydi, Yahyo ibn Ma’in kabi muhaddislardan hadis eshitgan. Safar davomida Imom Buxoriy bilan hamroh bo‘lgan. U zotni “al-Ahva’ val-ixtilaf” (“Havoyi gaplar va ixtiloflar”), “ar-Raddu ala-l-lafziyya” (“Yuzaki qarovchilarga raddiyalar”) nomli kitoblari mavjud. Shu o‘rinda yuqoridagi ikki kitob haqidagi Abdulhay Laknaviy quyidagi so‘zlarini keltiramiz: Ushbu ikki kitobni ko‘pgina manbalarda, jumladan “Kashfuz-zunun” hamda “al-Funun” asarlarida Abu Hafs Kabirga nisbat berishgan, bu esa xatodir. Aslida bu kitoblarni Abu Hafs Sag‘ir yozgan», deb aytadilar. Abu Hafs Sag‘ir 264/878 yili Ramazon oyida vafot etganlar.

Umar Rizo Kahholaning “Mu’jamul- muallifiyn”, Sulton Muhammad ibn Qalandarshohning “Risolayi sultoni” nomli asarlarida va yana bir qancha tabaqot janridagi kitoblarda bu asarning muallifi Abu Hafs Kabirning o‘g‘li Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Hafs deb keltiriladi. Abdulkarim Sam’oniy bu kitoblar bilan bir qatorda, Abu Hafs Sag‘irning “Kitobul- iymon” nomli asari ham borligini eslatib o‘tadi. Biroq, bundan u zotning o‘zi ta’rif qilgan biron-bir kitob yo‘q ekan-da, deb shoshilinch xulosa chiqarish kerak emas. Zotan, manbalarda Abu Hafs Kabir Buxoriyning qalamiga mansub “Kitobut- taxrij” nomli asarning bo‘lganligi qayt etilgan. Masalan, Toshkent islom universitening “Manbalar xzinasi”da saqlanayotgan 72-ashyoviy raqamli qo‘lyozma va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Lutfulloh Nasafiyning (14 asr) “Fiqhi Kaydoniy” kitobiga Sa’duddin Taftazoniy (722/792 - 1322/1392) tomonidan yozilgan sharhning nushalarida bu haqda aniq ma’lumot berilgan: “...ustozning bir asarlari bor bo‘lib, Xoja Abu Hafs Kabir uni “Kitobut- taxrij” deb nomlaganlar.

Tayanch iboralar: Abu Hafs Kabir Buxoriy, Abdulla Abu Hafs Sag‘ir, qadamjo, fiqh, Haqrab, Hojatbaror, imom, madrasa, olim, hanafiy mazhabi.

Savollar

1. Abu Hafs Kabir Buxoriy kim?
2. Narshaxiyning yozishicha, kimning sharofati bilan Buxoro «Qubbat ul-islom» – «Islom dinining gumbazi» unvonini olgan?

3. Imam Abu Hafs Kabirning fiqhning turli masalalariga doir qaysi asarlarini bilasizmi?

4. Abdulla Abu Hafs Sag‘ir kim bo‘lgan?

5. Imam Abu Hafs Kabir va Abdulla Abu Hafs Sag‘ir qaerda dafn etilgan?

Manba va adabiyotlar

1. Абу Бакр Мұхаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи.-Т.:«Шарқ баёзи”. -1993.-Б.53,54.

2. Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома. (таржимонлар Абдулғафур Рazzоқ Бухорий, Комилжон Раҳимов) Ҳилол. 2017. 336 б

3. Н.Йўлдошев Бухоро авлиёларининг тарихи. Бухоро. 1997.144-б.

4. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Бухоро. Дурдона. 2012.291-б

5.“Аҳмад Ибн Ҳафс Кабир Бухорий мероси ва унинг ilk шарқ ренессанси ҳамда ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратишдаги ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий анҷуман тўплами. Бухорои шариф. -2022 йил 16-17 июнь.448-б.

5-MAVZU. VOHADAGI HUNARMANDCHILIK (KASBKOR) BILAN BOG‘LIQ QADAMJOLAR

Reja:

1. Xoja Kosagar, Xoja Sabatbof, Nuriddin Xilvati mozorlari
2. Mahmud Sambo‘sapaz, Shayx Rangrez, Shermuhammad Juvozkan, Xoja Asbgardon, Xoja Sesaron qabrлari
3. Boboyi Porado‘z maqbarasi

1. Xoja Kosagar, Xoja Sabatbof, Nuriddin Xilvati mozorlari: XIX asrning oxiri XX asr boshida Buxoro shahrida 200 dan ortiqroq ko‘chalar, guzarlar va kvartallar (mahallalar)da hunarmandlar yashaganlar. 100 ga yakин kuchalarning nomi kasb - hunar nomlari bilan yuritilgan. Jumladan, temirchilik bilan shug‘ullangan hunarmandlar shaharning 57 ko‘chasida yashaganlar, shu jumladan

degrezi (Qozon quyuvchilar), mexchagaron (mix yasovchilar), miskaron (misgarlar). Xosa Po'lat, To'pxona, usta Ruhi, Aroki misgari, G'ulom Ali to'pchiboshi, Zangulasozon, Zargaron, Qo'chqor Qo'rchi va boshqalar. Zargarlar 30 ko'chada, tikuvchilar 51 ko'chada, gilkor (quruvchilar) 34 ko'chada, duradgorlar 33, poyafzalchilar 32 ko'chada yashaganlar.

Har bir mutaxassislikka ega bo'lgan hunarmandlarning sig'inadigan mahalliy avliyo, qadamjo, mozorlari bo'lgan. Jumladan, oyoq kiyimi tikuvchilarining mahalliy homiylari Boboyi Poraduz, temirchilarning usta Ruhi, qassoblarning Jon Mardi Qassob, tikuvchilarning Imom Muhammad G'azoli, hammomchilarning hazrati Nasvix, charmgarlarning Xo'ja Bulg'or, kulolchilarning Hazrati Miri Kulol, Xoja Kosagar, sabatboflarning Xo'ja Sabatbof, holvapazlarning Burqi Sarmast va Shayx Sayfiddin Xilvati, Sambo'sapazlarning shayx Muhammad Sambo'sapaz, sarboz va sipohlarning Xo'ja Shofboz, rangrezlarning shayxi Rangrez, Juvozronlarning Sher Muhammad Juvozkash, darvoz, qo'g'irchoqboz, masxarabozlarning Muhammadxo'ja cho'pboz, tikuvchilarning Yusuf Hamadoni, otboqarlarning Xo'ja aspgardon, nonvoylarning piri Boboyi Nonkash va hokazolar bo'lgan. Bularning hammasi shahar ichkarisida yoki shaharning tashqarisida 1-2 km uzoqlikda bo'lgan, lekin Buxoro atrofidagi tumanlarda xam turli xil kasb-hunar pirlari bo'lib, ularning soni yuzdan oshiqroqdir.

Xoja Kosagar-Buxoro shahrining Kosagaron mahallasida maxsus mozor bo'lib, bunda alohida xonaning ichida qabr bo'lgan. Mozorda tug' ko'tarilgan edi. Xonadagi qabr oldida "Sepoyayi Tagi Kosa" (Kosa ostida qo'yiladigan sepoya) va bir necha sopol kosalar qo'yilgan. Bu qabr XIII asrga tegishli bo'lib, unga Xoja Kosagarning muborak jasadi qo'yilgan. Xoja Kosagarning asli nomi-ma'lum va mashhur buxorolik zohid va shayxlardan Xoja Alouddin al-Buxoriy Kosagardir.

Xoja Alouddin SHayxul olam Sayfiddin Boharziyning ashoblaridan bo'lib, uning vafotidan keyin uning vorislari - o'g'li Olimshoh bin Imom Alouddin Buxoriy Kosagar va Xoja Alouddinning birodari Xoja Tojiddin Buxoriy fathobodiy Kosagarlar Kosagaron mahallasida Imom Xoja Alouddinning jasadini dafn qilib, o'sha joyda maqbara, xonaqo, masjid va madrasa kabilarni o'z mablag'lari bilan quradilar.

Shayxul olam Boharziy uning mozori yaqinidagi xonaqo madrasa, masjid va mozorga Kosagarondagi erlarni vaqf qilgan edi. Xoja Alouddinning avlodlari ham ma'rifat tarqatuvchilar va imom, zohid bo'lganlar. Shu ma'lumotlarni yozgan Buxorolik tarixchi olim Narzullo Yo'ldoshev shu guzarda tug'ilib, yoshlik davri ham shu mahallada o'tgan. U kishining yon qo'shnilarini Ahmadjoni Jomafurush, Qori Chinni (bu kishi chinni idishlar bilan savdo qilganlar). Har ikkalasi ham mahallada obro'li, ma'rifatli zotlar edilar. Ular avliyoyi Kosagar haqida quyidagicha hikoya qilgan edilar: Bu mahalla Imom SHayx Aluoddin Kosagar nomiga qo'yilgan. Uning o'g'li Olimsho shu mahallada maqbara, xonaqo, madrasa, masjid binolari qurib, buxoroliklar uchun ma'rifat eshigini ochib bergenlardan edilar. Afsuski, Ahmadjon Jomafurush va Bobo Qori Chinnilar sovetlarning "tilla giri" deb atalgan qatag'on yillarida (1931-1934 yy) "Davlat siyosiy boshqarmasi"" (GPU) buyrug'i bilan yuzlarcha kishilar qatorida qamoqxonaga aylantirilgan G'oziyon madrasasida "yashirgan tillalarini topib bermaganlari uchun" qattik qiynoqlar natijasida etmish yoshdan oshgan holda shahid bo'ladilar.

Kosagardondagi mozor, maqbara, madrasa, xonaqo, masjid kabi nodir arxitektura yodgorliklari 1930-1940 yillarda sovetlar buyrug'i bilan buzib tashlandi. Shu yillarda Kosagaron mahallasi xarobazorlikka aylanib, Kosagardon yashagan kishilar turli qishloqlarga ko'chib ketgan edilar. Kosagaron, Morkush, So'fiyon, Saraxsiyon va boshqa mahallalar tamomila xarobazorga aylanib qoladi. Hozir bu mahallada eski hovlilardan birortasi qolgan emas. 1960-1970 yillarda qurilgan shaxsiy yangi uchastkalarda boshqa joylardan ko'chib kelganlar yashamoqdalar. Bu mahallada XIII-XIX asrning oxirlarigacha ko'pgina kosagarlar (kulol) yashaganlar, XIX asrning oxirlarida Rossiyadan ko'plab keltirilgan chinni idishlarga talab ko'payganligi sababli, bu maxallada kosagarlik kasbi kasod bo'lgan. Usta kosagarlar boshqa kasb bilan shug'ullanganlar, XIX asr oxiri XX asr boshlarida bu mahallada birorta kishi kosagarlik kasbi bilan mashg'ul bo'lmagan.

Kosagaron mahallasidagi Xoja Alouddin al Buxoriy Kosagar qabri kulol-kosagarlarning mahalliy pirlari hisoblangan. Ko'proq kulollar shogirdlikdan usta bo'lganlaridan keyin bu erga kelib, qo'y so'yib, qurbanlik qilganlar va katta qozonlarda sho'rva yoki xalisa va boshqa ovqatlar pishirib, uni birinchi o'z qo'llari bilan yasagan

kosalarga ziyoratchilarga suzib berib, kosalarni qaytib olmaganlar, kosani esa ovqat egan kishi tabarruk deb, olib ketgan. Bu erda vaqtiga bilan kulollar arvohi pir ham o'tkazganlar. O'sha vaqtarda bu er saylgohta aylangan Sayl bir yoki bir necha kun davom etgan.

Xo'ja Sabatbof - qamish va daraxt novdalaridan turli buyumlar-sabat, qushlar saqlaydigan qafas va hokazolar to'qiydigan kasb-hunar egalarining pirlari-Xoja Sabatbof bo'lib hisoblanadi.

Rivoyat qilishlaricha, Xoja Sabatbof Muhammad salollohu alayhi vassallamning sahabalaridan bo'lgan. Madina shahridan VIII asr boshlarida Jayxun daryosidan o'tib, Buxoroga kelganlar. Xo'ja Sabatbof zohid bo'lgan. Xanafiy mazhabini tashviq va targ'ib qilgan, ko'pgina karomatlar ko'rsatib, Alloh taolo irodasi bilan avliyo darajasiga ko'tarilgan.

Xo'ja juda ham faqirona umr kechirib, sabatboflikdan keladigan daromadning bir qismini g'aribu g'urabolarga hadya qilganlar. Xo'ja Sabatbof qabri "Quyi Murg'kush" mahallasida bo'lib, bu mahallada Hazrat Xo'ja Porso tomonidan qurilgan hammom yonida ikkinchi mozor borki, Xo'ja Porsoning qadamjolari deb tug' ko'tarilgan.

Nuriddin Xilvati - "Kitobi Mullozoda"da... Bar darvozayi Ohangaron, dar daruni Hisor turbati (qabri) Shayxul olam al orif al mujohid Shayx Nuriddin Xilvati ast, rahmatullohi ki, az Xalifaxoi xonavodii SHayx Najmuddin Kubro an qudsi alloh sira, deb yozilgan.

Mazmuni: Ohangaron darvozasi yaqinida, Hisorning ichkarisida Shayhul olam al orif al mujohid Shayx Nuriddin Xilvatining qabri bor, u al akbar Najmuddin Kubro xonavodiysining xalifalaridandir. So'zangaron mahallasi yaqinida Xo'ja Nuriddin Xilvatining maqbarasi borki, bu maqbara hozirgi Toqi telpakfurushon ichkarisidagi binoning burchagida joylashgan, u erda 1940 yillargacha tug' ham bor edi.

Islomiyatgacha Buxoroda etti darvozaning biri Ohangaron deb atalgan. Bu darvoza XVI asrda bino qilingan "Toqi telpak" (eski nomi "Toqi telpakfurushon")ning janubi tomonidan bo'lgan. Mullozoda bu kitobni XV asr boshlarida yozgani uchun, o'sha vaqtarda bu darvoza bo'lgan.

XVI asrning ikkinchi yarmida Abdulloxon Shayboniy podsholigi davrida Buxoro shahri rivojlanib, shahar qal'asining o'n bir darvozasi ancha kengaydi. SHuning uchun ham Ohangaron darvozasi shahar ichkarisida qolgan. "Ohangarlar" darvozasi yaqinida XVI asrgacha

juda ko‘p temirchi ustalar tomonidan yasalgan temir buyumlar, sotiladigan do‘konu rastalar bo‘lgan.

1824-1825 yildagi bir hujjatda yozilishicha, o‘sha yillardagi Ohangaron darvozasi yaqinida bo‘lgan So‘zangaron mahallasida yigirma sakkizta ohangarlarning igna, pichoq, ketmon kabi turli temir buyumlar ishlab chiqaradigan do‘kon (kichik korxona)lari mavjud bo‘lgan. Hatto qadimgi Darvozai Ohangar yaqinidagi Toqi Telpakning tashqarisidagi shimoli va sharqiy burchagida yaqin vaqtlargacha ham temirchilik do‘koni bo‘lib, bu do‘kon qadim zamonlardan to hozirgacha mavjud.

1940 yillardan mashhur temirchilar sulolasining avlodlaridan Usta Sharif Kamolov (Sharifi toshgar)ning ustaxonasi bo‘lgan. Hozir ham uning o‘g‘li va nabiralari temirchilik (ohangarlik) kasbini davom ettirmoqdalar. Ular ishlab chiqargan ajoyib temirchilik buyumlari chet el ko‘rgazma va yarmarkalarida oldingi o‘rinlardan turadi. Ayniqsa, Usta Sharif Kamolovning o‘g‘illaridan Hoji Usta Shokir Kamolov tomonidan yasalgan ketmonu o‘roqdan tortib, cer naqshingor laliyu, shamdon, gulburri qaychigacha xalq amaliy san’atining ajoyib namunalarining dovurug‘i Hindiston, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Shveysariya singari turli mamlakatlardagi xalqaro ko‘rgazmalardan faxrli joy olgan. Usta SHokir 1994 yili Pokistonda o‘tkazilgan “Musulmon hunarmandlari ish ustida” jahon festivalida ikkinchi darajali diplomni olishga muvaffaq bo‘ldi. 1995 yili esa YUNESKO sertifikati bilan taqdirlandi. Rahmatli usta Sharif umr bo‘yi mo‘jazgina ustaxonada mehnat qilgan bo‘lsa uning farzandi Usta Shokir va o‘g‘illari Shavqiddin, Zavqiddin, shogirdlari Zoyir, Abduvohid Kamolovlar ishtirokida temirchilik o‘tmishidan hikoya qiluvchi muzey ustaxonasini ham tashkil etganlar.

Alloma, fozil, zohid, olim Shayx Nuriddin Xilvati holvapazlarning ham mahalliy pirlaridan bo‘lib, holvapazlar yilning ma’lum vaqtlarida uning mozorida “Arvohi pir” marosimini o‘tkazganlar. Toqi Telpakdan Xilvati mozori oldidan to masjidi “Mag‘oki Attori”gacha holva va turli shirinliklar rastasi bo‘lib, shu rastada holvagarlar do‘konlarida xohlagan holva va shirinliklar mavjud bo‘lgan. Bu qadimgi odat XIX asr oxiri XX asr boshlarigacha davom etib kelgan.

Rivoyatlarga qaraganda, Shayx Nuriddin Xilvati Xorazmdan Najmiddin Kubro xohishi bilan 1218-1219 yillarda Buxoroda

kubraviylik tariqatini targ‘ib qilish maqsadida kelgan. U Buxoroda holvapazlik hunari bilan shug‘ullangan. Holvapazlik sohasida ko‘p karomatlar ko‘rsatib, uning karomatlari Alloh taolo hohishi bilan amalga oshadi. U avliyo darajasiga etgan mashoyixlardan bo‘lib, tariqat ilmida baland iste’dodga ega bo‘lgan. Hamma vaqt mehnatkash xalqni himoya qilgan, mahalliy hokimlar va bosqinchi mo‘g‘ullarni xalqqa zulm o‘tkazmaslikka, odillikka chaqirgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, uni faqat holvagarlar o‘z pirlari deb atamasdan, boshqa toifalardagi kishilar, ayniqsa, ohangarlar, savdo ahli ham uning qabrini muqaddas deb bilib, ziyoratni kanda kilmaganlar.

Uning muqaddas nomi butun Movarounnahr va Xurosonda mashhur bo‘lgan. Buxoroga kelgan har bir ziyoratchi va savdo karvonlarining ahli Shayx Nuriddin Xilvati qabrini ziyorat qilgan, ziyorat qiluvchilarning ishlari Allohning xohishi va irodasi bilan yaxshi tomonga rivojlangan.

2. Mahmud Sambo‘sapaz - Boboyi Porado‘z mozorida Sirojiddin Xilvati maqbarasining shimolida havzi Koko bo‘yida shayxi Soluqi vali Shayx Mahmud Sambo‘sapazning munavvar qabri bo‘lib, Xojagonlar xonadonining xalifalaridandir. Rahmutullohi “Kitobi nazmi Mullozoda”da qisman shunday yozilgan she’rning mazmuni: Mozorning (Ya’ni Boboyi Porado‘z mozorining) shimoli tarafida Koko havzining bo‘yida (bil) ey, dindor Shayxning qabri-e’tiborli kishilar payvari, dindorlarning madadkori, Xojagonlar xalifasi, olimu, oqilu, valiyu, zohid, ya’ni Sambo‘sapaz Mahmudning oromgohi shu erdadir.

U taxminan XIII asr o‘rtalari va XIV asr boshlarida yashagan. Sambo‘sapaz va boshqa noz-ne’matlarni pishiruvchilarning mahallasi piri bo‘lgan.

Shayhi Rangrez - Darvozai Qavola mahallasining ikkinchi nomi Shayxi Rangrez yoki ayrim manbalarda Shayxi Gulrez deb ham ataganlar. Zohid va hunarmand, ya’ni matolarga gul bosishda beqiyos katta hunar egasi bo‘lib, bu sohada juda ko‘p karomatlar ko‘rsatgan.

Rivoyatlarga qaraganda, ranglanmagan oq kalavalarni oqib turgan ariq suviga botirgan va suvdan o‘sha kalavalar uch xil rangga bo‘yalib chiqqan. Uning karomatlarini ko‘rgan Shayxul olam Sayfiddin Boharziy (XIII asr) o‘z shogirdi Shayx Rangrezni haqqa karomat egasi deb hisoblab, o‘zining marzalaridan shahar qal’asi tashqarisidagi

qishloqni unga taqdim etgan. Shayx Rangrez vafot etib, o'sha qishloqda dafn qilingan.

U avliyoga tug' ko'targan. XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon Shayboniy Buxoro shahrini kengaytirgan va shu qishloq ham shahar ichkarisiga kiritilib, shahar qal'asi va darvoza o'rnatilgan. Bu darvozani Qavola, keyinroq Qarshi deb ataganlar. Shayxi Rangrez mahallasi ham shahar ichkarisida Qavola darvozasi yonidadir.

Shermuhammad Juvozkan - shu nomli mahalla, darvozasi O'g'longa yaqin bo'lган. Bu yerda Shermuhammad Juvozkan qabri va mozori bo'lib, Shermuhammad Juvozkan shayx, so'fi, zohid bo'lib, juvozlarni o'rnatishda ko'p karomatlar ko'rsatgan. Hamma vaqt juvozonlarga yaxshilikni ravo ko'rgan. Shuning uchun uni avliyo darajasiga ko'tarib, uning qabrini muqaddaslashtirganlar. Bundan tashqari bu mozor xalq orasida bolalarni ko'k yo'tal (sulfayi kabutak)ga shifo beruvchi avliyo deb hisoblab, ko'proq ayollar o'z bolalarini qabrga olib borib, u erdag'i qabr toshini bolaga yog' surtib yalatganlar. Yana shunday ko'k yo'tallni "davolaydigan" Buxoro shahrining Pesxona guzari yaqinidagi Xo'ja Nurobod va Vobkent tumanidagi Bibi Kabudpo'sh kabi avliyolar hisoblanadi.

Xoja Asbgardon - shu nomli mahallada maxsus tepalik mozor bo'lib, bu mozordan peshob qila olmagan otlarni uch marta aylantirganlar. Bu mozor shuningdek arava, foytun bilan bog'lik bo'lган kishilarning avliyosi bo'lib, bu joyni muqaddas deb bilishgan. Mozorning qachon paydo bo'lganligini biror manbalarda aks etmagan. Bu mozorham eng qadimgi mozorlardan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Xoja Asbgardon, Xoja Nurobod va Xoja Sesaron - avliyolari uch aka-uka bo'lganlar. Uchalasi ham haqqa etib avliyo darajasiga ko'tarilib, Buxoroning turli xil joylarida ularning muqaddas jasatlari dafn qilingan.

Xoja Asbgardon yoki Xoja Chorshanbe mozori shu nomdagi mahallada bo'lib, Xiyobondan sharq tarafda, Masjidi Balandga yaqin bo'lган Xoja Asbgardon mahallasidadir. 1930-1940 yillar qatog'on yillarida "diniy qoldiq" sifatida Xoja Abgardon mozori vayron qilinib, tepalik tekis tashlandi. Keyinchalik mahalla aholisi tashabbusi bilan bu muqaddas joy qaytadan tiklandi.

Xo'ja Sesaron mozori Iskandarxon mahallasida bo'lib, XVI asrda Abdullaxon Shayboniyning otasi Iskandarxon bin Jonibekxon bu erda

katta masjid qurib, bu masjidga 1800 tanob erni vaqf qilib bergen. Vaqf qilingan erlar asosan Romitanda, bir qismi Ziyouuddin va ozgina qismi Kattaqo‘rg‘onda bo‘ldi. Masjid oldida 21 hujra bo‘lib, bu hujralarda Qur’on tilovat qiluvchilar va musofirlar yashaganlar. Har juma oqshomi etti qori masjidni qurgan Iskandarxon va boni (quruvchi)lar arvohiga xatmi Qur’on o‘tkazganlar.

3.Boboyi Porado‘z maqbarasi - Buxoro shahrining janubi-sharqiy qismida salohxona darvozasidan tashqari ikki yuz metrga keladigan mozorda Boboyi - Porado‘z maqbarasi bo‘lgan. XV asr boshida bu erda maqbara, masjid, ziyoratchilar uchun xonalar, hovuz, quduq kabi arxitektura kompleksi bo‘lgan.

Hozirgi davrda poyafzal tikuvchilar jamoasining piri bo‘lgan Boboyi Porado‘z maqbarasining faqat markaziy qismi qolgan. Boboyi Porado‘z poyafzal tikuvchilar, kiyim-bosh tikuvchilar, zardo‘zlar, jiyak tikuvchilar va boshka igna bilan ishlaydigan butun hunarmandlarning piri bo‘lib hisoblangan. Boboyi Porado‘z nomi bilan juda ko‘p afsonalar bog‘langan.

Ulardan birida shunday hikoya qilinadi. Bir kishi Makkani ziyorat qilish uchun Buxorodan piyoda bormoqni jazm qilib, Boboyi Porado‘z oldiga kelib, unga yo‘lda mustahkam oyoq kiyim tikib berishni iltimos qilib so‘rabdi. Usta tarvuzning po‘g‘ogidan oyoq kiyimi tayyorlab berib, oyoq kiyimining mustahkamligiga uni ishontiradi. Ziyoratchi Makka va Madinaga piyoda borib, Hoji bo‘lib qaytib keladi, ammo Boboyi Porado‘z tikkan bu oyoq kiyimi xuddi yangiday turgan ekan va o‘zining ilgarigi holatini o‘zgartirmagan ekan. Shundan keyin butun Buxoroda Boboyi Porado‘zning shuhrati tarqalib, uni hamma poyafzal tikuvchilarning piri deb tan olganlar.

“Agar “Boboyi Porado‘z” mozorining tuprog‘ini yara, zahm kabilarga sepilsa, ular yaxshi bo‘ladi” deb dindorlarni ishontirganlar. XX asr boshlarida Boboyi Porado‘zga keluvchi ziyoratchilar shunchalar ko‘p bo‘lganki, xuddi Buxoro shahridagi Xoja Ahmadi Parron. Turki Jandi, Qo‘chqor ato kabi mozorlardek, bu mozor oldidan ham ulov ustida yurmaganlar, oyoq kiyimlarini echib, piyoda ziyorat qilganlar.

“Kitobi Mullozoda” asarida yozilishicha, Boboyi Porado‘z XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida yashagan. Mullazodaning nasriy uslubidagi kitobini nazmi uslubga aylantirgan Olim shoh

madrasasining mudarrisi Mullo Mir Abdullo Xoja keltiradi. Buxoroning janubida Boboyi Porado‘z qabri bor ey yor deb yozgan.

Boboyi Porado‘zning asli nomi Abu Bakr Muhammad Ahmad al Iskof bo‘lib, “Iskof” so‘zi arabchada poyafzal tikuvchi, tojik tilida Porado‘z demakdir. O‘zi esa mashhur xanafiyalar imomi bo‘lgan. Xanafiya sunniylikdagi diniy huquq mazhablaridan biri bo‘lib, XIII asrda Abu Hanifa an Nu’mon asos solgan va Xuroson, Movarounnahrda keng yoyilgan. Xanafiya qonunlariga nisbatan yumshoqligi va qulayroqligi, xalqlarining mahalliy an'analarini e’tiborga olinganligi sababli keng yoyilgan.

Sunniylik yo‘nalishidagi musulmonlarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i Xanafiyalar mazhabiga kiradi. Inqilobdan ilgari chor Rossiyasi hududidagi musulmonlar (jumladan, Buxoro amirligi musulmonlari)ning sunniy yo‘nalishidagi qariyb hammasi shariatda Xanafiya mazhabiga amal qilishgan. 1920 yildan keyin Qonunlarning amalda qolishi va Sovet sotsialistik qonunchiligining kiritilishi tufayli Xanafiya mazhabining huquqiy hayotdagi ta’siri tugatilgan. Lekin uning oilaviy va maishiy hayotdagi ayrim elementlari, jumladan, nikoh, taloq va boshqalar uchrab turadi.

Mahalliy keksalarning hikoya kilishlaricha, XX asr boshlarida Boboyi Porado‘z maqbarasidan tashqari, bu qabristonda hunarmandchilik pirlari dafn etilgan bir necha maqbaralar mavjud bo‘lgan. Boboyi Porado‘z maqbarasidan shimoliy-sharqiylar maqbara kigiz ishlab chiqarish ishlari bilan band bo‘lgan hunarmandlarning piri hisoblangan Boboyi Namati maqbarasi va maqbara yonida masjid, hovuz, quduq, azon aytildigan minoracha ham bo‘lgan. Mullozodaning kitobida yozilishicha, Boboyi Porado‘z maqbarasi yaqinida holvapazzlarning piri Sirojiddin Xilvati, somsapazzlarning piri Shayx Mahmud qabri bo‘lgan. Mullozoda asarida shayx Mahmudning shaxsi muallif tomonidan juda yuqori baholanadi, u qisman shunday yozadi: “Bu shayxning qabri e’tiborli kishilar payvari, dindorlarning madadkori, ilmlar donosi, xojagonlar Xalifi, ya’ni Sambusapaz Mahmudning oromgohidir”.

L.R.Gafurova Boboyi Porado‘z mozoristonida turli kasb hunarmandchilik pirlari dafn etilgan va ularning hammasining boshlig‘i Boboyi Porado‘z hisoblanadi degan xulosaga keladi.

Butun hunarmandlar Boboyi Porado‘zni o‘zlarining pirlari hisoblaganlar, uning mozorida har yili 2-3 marotaba “arvohi pir”

marosimini o'tkazganlar, ayniqsa, 21 mart (Navro'z) kuni yil kirishi bahorgi tunu-kunning barobarligi vaqtida bu mozorda O'rta Osiyoning ko'pgina shahar va qishloqlaridan ziyoratchi hunarmandlar o'zlarining ishlab chiqargan mahsulotlarini sotish va muqaddas pirni ziyorat qilish uchun kellishgan. Bunday tadbirlarda qatnashgan hunarmandlar qadamjoda kattagtina ziyoftlar uyushtirganlar.

E.M.Pesherevaning yozishicha, Navro'z bayramlari davrida har seshanba kuni Boboyi Porodo'z mozorida hunarmandchilik bilan aloqador bo'lган xotin-qizlarning alohida bayramlari o'tkazilgan. Shu asnoda xotin-qizlar ham bu jamoa bilan bog'langanlar. O'rta Osiyoning boshqa joylarida ham Boboyi Porodo'zning qabri bo'lган, igna bilan aloqador bo'lган hunarmandlar o'zlarining mahalliy mozorlarida Boboyi Porodo'zga sig'inganlar.

1970 yillar oxiri 1980 yillar boshida O'zbekiston Fanlar akademiyasi arxeologiya instituti xodimlari U.A.Alimov, D.K.Mirzaaxmedov va boshqa arxeologlar professor A.R.Muhammadjonov rahbarligida Boboyi Porodo'z mozorida arxeologik ishlari olib bordilar. Bu ajoyib yodgorlik kompleksi asosan XIV asrda xalq ustalari tomonidan qurilgan. Ammo bizning zamonamizgacha, bu kompleks butunicha etib kelmadi.

XVII asr oxiri XIX asr boshlarida amirlidagi to'xtovsiz urushlar natijasida bu kompleksning ko'pchilik qismi vayron bo'lган edi. XX asr boshlarida mahalliy xalq hisobidan bu maqbarani bir necha marta qaytadan tiklashga uringanlar. Ammo bu mozordagi kompleksi o'z holiga keltira olmaganlar. Chunki buni qaytadan restavratsiya qilish ko'p mablag'ni talab qilgan.

Buxoro amirlari bunday joylarni ta'mirlashga xazinadan mablag' ajratmaganlar. Sovetlar hokimiyati davrida esa qarovsizlik natijasida bu ajoyib obidalar butunlay vayron bo'lib, tepalikda tuprok uyumlaridan boshqa narsani ko'rish mumkin emas.

U.A.Alimov, Jamol Mirzaahmedovlar o'zlarining "Buxorodagi Boboyi Porodo'z" maqbarasi tarixidan degan maqolalarida bu maqbara va boshqa arxitektura komplekslari XIV asrning ikkinchi choragida qurilgan degan xulosaga keldilar. Chunki XIV asrning birinchi choragida mug'ullar istilosi natijasida Buxoro va uning atroflari shunday vayronagarchilikka uchragan ediki, yashaydigan qishloqlar tamomila er, bog' va chorbog'lar qarovsiz holda tashlandiq bo'lib qolgan edi. Shuning uchun XIV asrning birinchi yarmida bu

yodgorlikni qurilishi mumkin emasdi. XIV asrning ikkinchi choragidan boshlab qayta tiklash jarayoni boshlanadi.

Tayanch iboralar: Xoja Kosagar, Xoja Sabatbof, Nuriddin Xilvati mozori, Mahmud Sambo'sapaz, Shayx Rangrez, Shermihammad Juvozkan, Xoja Asbgardon, Xoja Sesaron qabrlari, Boboyi Porado'z, Usta Ruhiy mozori, Xoja Bulg'or va Tavbatun mozorlari.

Savollar

1. Kimning qabri oldida sopol kosalar qo'yilgan?
2. Xoja Kosagar qabri qachon sovetlar tomonidan buzilgan?
3. Xoja Nuriddin Xilvat maqbarasi qaerda joylashgan?
4. Boboyi Porado'z mozorida arxeologik qazishmalarni kimlar olib borgan?
5. Xoja Bulg'or buxoroliklarga qanday hunarni o'rgatgan?

Manba va adabiyotlar

1. Муин ул-фуқаро Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий Тарихи Муллоҳода дар зикри мазороти Бухоро.(Бухоро мозорлари ҳакида Муллоҳоданинг тарих китоби). Фан. Ташкент -2019. (форс тилидан К.Раҳимов таржима қилган). 213-б
2. Нарзулла Йўлдошев Бухоро авлиёларининг тарихи. Бухоро.-1997. 144-б
3. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Бухоро. Дурдона. 2012. 291-б.
4. Шавкат Бобоҷонов. Зиёрат туризми-янги Ўзбекистоннинг ташриф қоғози. Ҳалқ сўзи 2022.21 сентябр.
5. Носируддин Тўра Бухорийнинг Тұхфат уз-зоирин.

6-MAVZU. BUXORO VA UNING ATROFIDAGI AYOL AVLIYO VA QADAMJOLARI

Reja:

1. Childuxtaron ayol avliyolar.
2. Qiz bibi yoki Hazrat bibi avliyolari.
3. Bibi Maxsumai Pok.

1. Childuxtaron ayol avliyolar - O‘rta Osiyoning ko‘pgina shahar va qishloqlarida Childuxtaron yoki qirqqiz nomi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina mozorlar, qadamjolar mavjud. Birgina Buxoro viloyatining o‘zida 18 ta shu nomdagi qadamjolar mavjud. Childuxtaron haqidagi afsonalar turli xilda bo‘lsa ham, ammo oqibati bir xil. Ular g‘oyib bo‘lganlar, ularni er ostida tirik deb hisoblaydilar. Buxoro shahrining ikki joyida Childuxtaron avliyolari bo‘lgan. Ulardan biri Ark tepasida bo‘lsa, ikkinchisi Arkning sharqiy tomonidagi pastlikda joylashgan. Childuxtaron Mehtar Shohbek va Arabon ko‘chalarida, Arkning sharqiy tomonidagi pastlikda, kichik ayvonchada ikki tug‘ ko‘tarilgan bo‘lib, afsonalarga qaraganda, bu erlar botqoqlik bo‘lgan. Odobsiz kishilar orasida yashashni xohlamasdan 40 qiz shu botqoqlikda g‘oyib bo‘lgan.

Ark tepasida ~~ilgarigi~~ vaqtarda Childuxtaron mozori bo‘lmagan, faqat XIX asrning 60 yillarida Ark tepasida Childuxtaron mozori paydo bo‘lgan. Shuning uchun bu Childuxtaronga hech qanday tug‘, sag‘ana ham, umuman “muqaddaslik” ko‘rinishlari bo‘lmagan. Amirlik davrida sarkardalik mansabida ishlagan Mirbobo va Rossiya imperatorligi siyosiy agentligida tarjimon, mirzo, vazifalarida ishlagan Mirzo Ahmatjonlardan 1959 yilgi tadqiqot suhbatlarida shunday hikoya qilganlar. Buxoro xalqi o‘rtasida amir Botirxon yoki amir jallod nomi bilan mashhur bo‘lgan ~~Amir~~ Nasrullo (1826-1860) Shahrisabzni zabit etib, uning hukmdorini va butun erkak avlodlarini qurol kuchi bilan fojiali ravishda o‘ldiradi. Shahrisabz hukmdorining singlisi Kenagasxонни va uning qirq kanizagini ~~Buxoroga~~ Arkka olib keladi. Kenagasxon akasi va qarindoshlarining Nasrullodan o‘chini olish uchun payt poylab, bir kechasi uning qulog‘iga simob qo‘yadi. Buni sezgan Nasrullo o‘limi oldidan Kenagasxon va 40 kanizagini quduqqa tashlatadi. Ular 40 gazlik quduqning tagiga borguncha jasadlari o‘tkir sixlarga tegib tilka-pora bo‘lgan. Ana shularning sharafiga Ark tepasida keyinchalik “Childuxtaron” (“Qirq qizq”) nomi berilgan va ularning arvohini yodlab, Arkning pastki qismida xizmatkorlar tabaqasi tomonidan sham yoqqanlar (ularning arvohini eslab), keyinroq esa bu joy ham “muqaddas” joylardan biriga aylangan va “Childuxtaron” degan nom bilan atalgan.

Amir Muzaffar, Amir Ahadxon, Amir Olimxonlar hukmronligi davrida ham saroydagи xizmatkorlardan qattiq ranjisalar, ularni Childuxtaron qudug‘iga tashlaganlar. Agar saroy xizmatkorlaridan

birortasi ko‘rinmasa, saroydagilar uning quduqqa tashlanganligini sezganlar. Xususan xalq orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan jadidlarning ko‘pgina namoyandalarini Amir Olimxon yashirin shu quduqqa tashlattirgan. Hozirgi davrda bu quduq ko‘milib ketgan, ammo Childuxtaronga atab pishiq g‘ishtdan qilingan gumbazli xonaning vayronalari saqlangan.

Navmeton (Buxoro tumanida) tepaligining yaqinida undan pastrok tepalik bor. Naqlarga qaraganda bu erda yashagan qirqqiz “kofir”lardan qochib g‘oyib bo‘lgan emish.

Shofirkon tumanida g‘am tepaliklarning biri qirqqiz deb ataladi. Uning shunday deb atalishiga sabab, hamma vaqt cho‘ldan yangi ariq chiqarish maqsadidda qishloq erkaklari hasharga ketadilar. Qishloq qizlaridan 40 nafarii o‘z otalarining harbiy kiyimlarini kiyib, qurollanib yovga qarshi kurashadilar va halok bo‘ladilar, ularning sharafiga tepalikka maxsus mozor qilib, ruhiga sig‘inganlar. Bu to‘g‘rida shu qishloq keksalari, ayniqsa, Mahmudov Hasan 1963 yilda hikoya qilib bergen edilar.

Bu afsonada bir oz haqiqat bor. Chunki Jilvon arihidan shimol tomoni cho‘l bo‘lgan, shu cho‘ldan ko‘chmanchi qabilalar hamma vaqt qishloqlarga hujum qilib turganlar va qishloqlarni talab xotin-qizlarni asir qilib olib ketganlar. Bunday voqealar tarixda ma’lum. Gap shundaki, qadim zamonlarda islomiyatgacha xotin-qizlar urug‘ hayotida asosiy o‘rirlarni egallaganlar.

Shuning uchun ayol “avliyo”lari islomiyatgacha mavjud bo‘lgan, keyinroq mahalliy xalq urf-odat qoldig‘i sifatida mana shunday ayol “avliyo”larni ulug‘lab turli afsonalar yaratganlar.

2.Qiz bibi yoki Hazrat bibi avliyolari - Buxoro viloyati Jondor tumanidagi Somonchuq qishlog‘i yaqinidagi Bibi Maxsumayi Pok yoki Qizbibi, shu tumandagi Varaxsha jamoa xo‘jaligi hududida Qizbibi, Buxoro tumanidagi Navmetan tepaligi yonidagi Hazrat bibi yoki Qizbibi, Buxoro shahridagi Bibimohruy, Mohitobon (ayrimlar bularni ham Qizbibi yoki Hazrat bibi deb ataydilar) yoki Buxoro tumanidagi Chorbakr qishlog‘iga yaqin Mohi tobon tepaligi va avliyosi kabi ko‘pgina faqat ayollar sig‘inadigan avliyo va qadamjolar mavjud bo‘lib, ulardan farzand, sihat-salomatlik, boylik, mustahkam oila kabi istaklarni so‘raganlar.

Ularning hammasini Qizbibi yoki Hazrat bibi deb atalishiga sabab, dindor ayollarning tasavvuriga qaraganda, ular umrlarining

oxirigacha bokira o‘tganlar, ya’ni erga tegmaganlar. Chorbakr yaqinidagi “Mohi Tobon” tepaligi 1984 yilda kanal o‘tkazish bahonasi bilan uning tuproklari kanal qirg‘oqlariga yotqiziladi va shundan foydalanilgan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi arxeologiya instituti, Buxoro davlat institutining tarix kafedrasи ilmiy xodimlari va talabalar guruhi ishtirokida arxeologik qazilma ishlari olib bordilar. Bu tepalikdagi "Muqaddas" deb atalgan "Mohi tobon" qabrini ochganda, ko‘plab sopol idishlarning siniqlari chiqdi. Ularning ko‘pchiligi miloddan avvalgi II-I asrlarga oid-moddiy yodgorliklari bo‘lib hisoblanadi. Mohi tobonda yashagan majusiylar ko‘proq oyga (mohga) sig‘inganlar. Otashparast majusiylar oyning tug‘ilish davri, chaqaloqlik, balog‘atga yetgan (14 kunligi), yani Mohi Tobonlik davri, qarilik va o‘lishi davrlariga ajratganlar. Eski oy o‘ladi, uning o‘rniga yangi, boshqa oy tug‘iladi, deb hisoblaganlar. Bu tug‘ilgan yangi oy ham o‘sha davrlarni o‘z boshidan kechiradi deb o‘ylaganlar.

Boshqa bir afsonada, qadimgi odamlar oyni go‘zal qiz sifatida, quyoshni esa go‘zal yigit sifatida tasavvur qilganlar, quyosh hamma vaqt qiz orqasidan quvib, unga hech eta olmaydi, kunduz kunlari quyoshning ravshan nuri va haroratidan oy o‘zini panaga oladi, kechqurunlari esa yuzini har kechasi oz-ozdan ochib, 14-16 kunlarida butunlay duraxshon bo‘lib, yuzini ochib, quyoshni qidiradi. Quyoshni topolmay, yana sekin-sekin yuzini bekita boshlaydi, deb tasavvur qilganlar. Bunday afsona Buxoro xalqlari orasida og‘izdan-og‘izga ko‘chib bizning zamonamizgacha etib kelgan. Ayrim musulmon xalqlar orasida urf-odat shaklida otashparast majusiylik davridan qoldiq sifatida yangi oy chiqishini xursandlik bilan hatto karna-yu surnay chalib qarshi olganlar.

Agar Xorazmda ayollarning oson tug‘ishi uchun Anbar ona yordam beradi, deb ishonsalar, Buxoro shahrida esa Bibi Moh-rux (Mohruy) “avliyosi” xuddi shunday vazifani ado etadi deb ishonishgan. Bu mozor Buxoro shahridagi Masjidi Besutun mahallasida joylashgan bo‘lib, bu mozor ilgarigi “Obu otash” hammomi bilan yonma-yon bo‘lgan. Mozorda tos dumidan qilingan tuya bo‘lib, bu mozor homilador ayollarning homiysi deb ishonganlar. Shuning uchun tug‘ishdan avvalroq ayollar bu mozorga kelib sig‘inganlar. Mozor oldida nova (Tarnov) qo‘yilgan bo‘lib, paxtaning katta bo‘lagini o‘zlari bilan olib kelib, novaga to‘saganlar va homilador ayollarni novaga yotqizib, o‘sha joydagи nazrxo‘r

ayollardan biri chelakdan novaga suv qo‘ygan. Novadagi suv tez oqqani kabi homilador ayol ham tez va oson tug‘ishi uchun shunday qilganlar. Suv tegmagan ohori paxtani novaga to‘saganlarning sababini qari kampirlar shunday hikoya qiladilar: “Bibi Mohruyning o‘zlari, oydek oppoq, paxtadek yumshoq bo‘lganlar. Shuning uchun yarim chorak (bir kilogramm) oxori paxta u kishi uchun ziyyoratchilar albatta olib kelishgan”.

Xorazmda homilador ayollar tug‘ishlari yaqinlashganda Anbar onaga atab uylarining to‘rt burchagiga paxta bo‘laklarini ma’lum balandlikka osib qo‘yganlar. Ularning fikricha, Anbarona “oppoq”, “yumshok” bo‘lgan, u oq narsaga o‘tiradi, shuning uchun Anbar onani shu uysa qadam ranjida qilishi uchun yumshoq paxtani oldinroq osib quyish kerak deb o‘ylaganlar.

Homiladorlik va bola tug‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan bunday urf-odatlar Islom dini bilan hech qanday aloqasi bo‘lmasdan, bola tug‘ilishidagi animistik din qoldiqlari sifatida O‘rta Osiyo xalqlarining ko‘philibida saqlanib qolgan va mahalliylashtirilgan urf-odatdan boshqa narsa emas.

3.Bibi Maxsumai Pok qadjolari - Bola tug‘maydigan ayollarning ham sig‘inadigan muqaddas joylari bo‘lgan. Bulardan biri Jondor tumani Somonchuq qishlog‘i hududida joylashgan Bibi Mahsumaipok yoki Qizbibi mozori bilan bog‘langan.

Afsonalarga qaraganda “Bibi Maxsumaipok” bokira o‘tgan ekan, shuning uchun uni Qizbibi deb ataydilar. Qizbibi kofirlar kelganda ularga ko‘zim tushmasin deb g‘oyib bo‘lgan ekan. U o‘lмаган. Tepalikning devoriga qarab baland ovoz bilan “bibi Mahsumaipok, Assalomu alaykum”, deb chaqirganda, u erdan oxirgi so‘z, “alaykum” degan so‘z qaytib kelgan. Agar ayol (ziyyoratchi) g‘orning kovagidan oshiq olib chiqqan bo‘lsa, narzxo‘r “Falonchixonga Alloh qiz beradimi, o‘g‘il”, deb chaqirgan tepalik tomondan “o‘g‘il” degan so‘z qaytib kelgan. Agar ziyyoratga kelgan ayol g‘orning kovagidan munchoq olib chiqqan bo‘lsa, unda narzxo‘r ayol salom-alikdan so‘ng “falonchixonga Alloh o‘g‘il beradimi, qiz”, deb chaqiradi. Tepalik tomondan “Qiz” degan ovoz eshitiladi. Bu sirlardan hayratga tushgan ziyyoratchilar haqiqatni tushunolmay, “Bibi Maxsumaipok tirik, g‘oyib bo‘lgan ekanlar”, deb yanada umid bog‘laganlar. Aslida esa, ular narzxo‘rning oxirgi so‘zi tepalikdan qaytib kelgan aks-sado ekanligini tushunmaganlar. Soxta eshonlar va narzxo‘rlar bu “avliyo” haqida

ko‘pgina afsonalar to‘qiganlar. Go‘yo erkak kishi bu “avliyo”ga borsa u odam, albatta biror shikast ko‘radi, agar tepalik ustidagi yo‘lak g‘ordan o‘tmoqchi bo‘lsa, erkak kishini qisib, u odam g‘ordan chiqa olmaydi, degan fikrlarni to‘qiganlar.

Shuningdek, g‘orning yo‘lagidan emaklab o‘tayotganda, ziyyoratga kelgan ayol hech qanday gunoh qilmasligi kerak, ya’ni o‘zining eriga nisbatan xiyonat qilmagan bo‘lishi kerak, aks holda g‘or uni ikki tomonidan qisib, hatto o‘ldirishi mumkin, degan gaplarni narzxo‘r ayol oldinroq tushuntirib quygan. Tabiiyki, eriga xiyonat qilgan ayol g‘ordan o‘tishdan qo‘rqib, turli bahonalar bilan ziyyoratchi ayolga ko‘p pul berib, faqat chaqirishni so‘ragan. Ziyyoratchi ayol esa uning talabini bajarib, chaqiradigan maxsus joydan bir ikki qadam nariroqdan chakirganda “Bibi Maxsumaiпokdan sado chiqmagan, ya’ni aks-sado kelmagan. Unda narzxo‘r ayol mana ko‘rdingizmi, sizni nopol ekanligingizni hatto avliyo ham tasdiqlamokda” deb javob bergen, natijada ziyyoratchi ayol taqdiriga tan berib ketgan.

1960 yilda tarixchi Narzullo Yo‘ldoshev shu qishloq o‘qituvchisi Norov Ashurboy bilan bir necha marotaba “Bibi Maxsumaiпok” avliyosida kuzatishlar olib borganlar. Yo‘lak g‘ordan ham emaklab, bir necha bor o‘tganlar va ayrim vaqtlar narzxo‘r tomonidan oldinroq tashlab qo‘yilgan munchoq va oshiqlarni olganlar. Tepalik maxsus joyidan turib “Ashurboy buyoqqa keling”, deb qichqirganda tepalik tomonidan “keling” degan ovoz baralla eshitilgan.

Narzxo‘r xotin-buvilar 2 jahon urushi yillarda ham bu “avliyo”dan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanganlar. “Bibi Maxsumaiпok” avliyosining narzxo‘rlari aka, uka, farzandlari va erlari frontga ketgan ayrim irim-sirimga ishonuvchan ayollarni aldab, ularning topgan-tutganlarini aldov yo‘li bilan olganlar.

Urush yillardan avliyo narzxo‘rlari urushga ketgan kishilarni “hozirmi”, “g‘oyib” deb chaqirib, soddadil ayollarni aldab kelganlar. Ular urushga ketgan kishilarning ko‘philibi g‘oyibga chiqarganlar. Lekin shu kishilarning ko‘philibi frontdan yarador bo‘lib yoki sog‘-salomat qaytib kelganlar. 1960 yillarda 2- jahon urushi yillarda nazrxo‘rlar tomonidan “g‘oyib” deb bashorat qilingan 8 kishi bilan suhbat o‘tkazganlar, ular Buxoro shahridan Sh.Qurbanov, N.Ahmedov, K.Bobojonov kabi urush faxriylarini ko‘rsatish mumkin.

“Qizbibi” deb atalgan qadamjolardan yana biri Jondor tumanining “Varaxsha” jamoa xo‘jaligi hududida joylashgan madaniy

yodgorliklardan bo‘lib hisoblangan madrasa va bir necha hujralardan iboratdir. Bu binolar XVI asrda qurilgan bo‘lib, “Qizbibi” maqbarasi alohida xona qilib gumbaz tarzida ishlangan. Go‘yoki Qizbibi turmushga chiqmagan ekan. Shuning uchun ham uni “Bibi Maxsumaipok” degan aytildi. Qizbibi haqida ko‘pgina rivoyatlar to‘qilgan. Ulardan biri Qizbibining otasi hokim bo‘lib, asli arablardan Said avlodiga mansub bo‘lgan, onasi Bibi SHarifa o‘z davrining aslzodalaridan bo‘lgan. Bu qiz ilm-fandan xabardor bo‘lishi bilan hizrlik xislatiga ham ega bo‘lgan. Rivoyatlarga qaraganda, Abdullo YAmani (Miri Arab) Qizbibiga sovchi yuborgan emish. Qiz esa sovchilarga “orgalaringga qaytinglar, Miri Arab vafot etdi”, degan. Sovchilar qaytib kelsalar, haqiqatan ham Miri Arab vafot etgan emish.

Xalqimiz orasida Qizbibi deb tilga olinadigan bir guruh oqila, o‘z zamonasining dono, balog‘atda tengsiz bokira qizlar nazarda tutilgan. Bu qizlarning donoliklari shu qadar ekanki, Buxoro madrasalarida biron ilmiy masala echilmay qolsa, ot surib Qizbibilar huzuriga borishar va ulardan to‘g‘ri javob olib izlariga qaytishar ekanlar. Tumanlardan faqatgina Buxoro va Jondorning 3 joyida Qizbibi, Hazrat bibi, Bibi Mahsumai pok nomlari bilan ataladigan ayol avliyo qadamjolari bo‘lib, har uchchalasiga ham bir-biriga yaqin bo‘lgan afsonalar to‘qilgan va har uchchalasi ham g‘oyib bo‘lgan degan otashparastlik diniy qoldiqlariga asoslanadi.

Hozirgi davrda yuqorida nomlari keltirilgan ayol avliyolarda ahyon-ahyonda dindorlarni uchratish mumkin. Masalan, Qizbibini ziyyarat qilish uchun Andijon, Namangan, Samarqanddan, Tojikiston va boshqa joylardan tadqiqotchi hamda ziyyoratchilar kelishmoqda.

Tayanch iboralar: Qizbibi, Qirqqiz, Bibi Mahsumaiipok, Kenagas xonim, Amir Nasrullo, Shayx Abdullo Yamaniy (Mir Arab), Shahrisabz, Jondor, Shofirkon, Jilvon, Navmetan.

Savollar

1. Qizbibi maqbarasi nechinchi asrda qurilgan?
2. Qizbibiga kim sovchi jo‘natgan?
3. Amir Nasrullo hukmronlik yillari?
4. Navro‘zi kishovarz ma’nosи nima?
5. Kenagas xonim qaysi shahardan edi?

Manba va adabiyotlar

1. Нарзулла Йўлдошев Бухоро авлиёларининг тарихи. Бухоро.-1997. 144-б

2. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Бухоро. Дурдона.2012.291-б
3. Тошпўлат Раҳмонов Қизбиби-ҳазрат оғойи бузург (Маърифий-тарихий рисола). Тошкент. 2017.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.10-том. Тошкент. 2005.
5. Муҳиба Сайид Ҳасан қизи. Валий волидалар.- Тошкент.Ёзувчи.1999.

7-MAVZU. BUXORO VOHASIDAGI YETTI PIR ZIYORATGOHLARI

Reja:

- 1.Abdulxoliq G'ijduvoniy, Xo'ja Orif ar-Revgariy, Xo'ja Mahmud Anjir Fag'naviy ziyoratgohi
- 2.Xo'ja ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Said Miri Kulol ziyoratgohi
- 3.Xoja Muhammad Bahovuddin ziyoratgohi

1.Abdulxoliq G'ijduvoniy, Xo'ja Orif ar-Revgariy, Xo'ja Mahmud Anjir Fag'naviy ziyoratgohi - Buxoro - Naqshbandiya tariqatining namoyandalaridan bo'lgan etti buyuk pirlar vatani. Bu erda tasavvufning buyuk vakillari yashab, ular diniy va ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaganlar. Ushbu pirlar Buxoroning obodligi, ma'naviy qiyofasining yuksalishiga katta hissa qo'shdilar. Bu erda pirlar, musulmonlarning ziyoratgohlari, ulug' so'fiylarning maqbaralari saqlanib qolgan. Buxoroni ziyorat qilishga keluvchilarning aksariyati o'z ziyoratlarini Xojagon (keyinchalik Xojagon - Naqshbandiya) tariqatining asoschisi - Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy maqbarasini ziyorat qilishdan boshlaydilar. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy davrida maqbaraning o'rnila chillaxona bo'lib, odamlar bu erga yozning issiq chillasida ibodat qilish uchun kelganlar. Keyinchalik ushbu joy ibodat qilishga mo'ljallangan muqaddas qadamjoga aylandi. Sho'ro davrida ziyoratgoh qarovsiz qoldi.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy maqbarasi Ko'hna Sharqning ajralmas bir qismi sifatida er va osmonni bog'lab turibdi. Musulmon

Sharqida o‘tgan mashhur shayx, Xojagon tariqatining asoschisi Hazrati Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy 1103 yilda hozirgi Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumanida tug‘ilgan. Vafotlari 1179 yil, ayrim manbalarda esa 1220 yil deb ko‘rsatilgan.

Tasavvufshunos olim Sadriddin Salim Buxoriyning yozishicha, Xoja Abdulxoliqning otasi Imom Abduljamil asli malatiya (turkiya)lik bo‘lib, Islom dinidagi to‘rt mazhabdan biriga asos solgan Imom Molik hazratlarining avlodi bo‘lgan. Onasining esa Malatiya podshohhlari xonadonidan chiqqan malika bo‘lgani aytildi.

Ularning Malatiyadan bizning tuproqlarga qanday kelib qolgani to‘g‘risidagi rivoyatlarga ko‘ra, Imom Abduljamil huzurida Hazrati Xizr a.s. paydo bo‘lib, unga Alloh o‘g‘il farzand ato etajagi xushxabarini etkazgan, ayni chog‘da Buxoroga hijrat qilib, G‘ijduvonda ~~sokin~~ bo‘lishni buyurgan. Shuningdek, bu farzandning G‘ijduvonda tug‘ilishi va buyuk valiyulloh zot bo‘lib etishishi ham bashorat qilingan ekan.

Xoja Abdulxoliq boshlang‘ich ta’limni G‘ijduvonda olib, 9 yoshlaridayoq Qur‘oni karimni yod bilgan, 10 yoshidan boshlab darveshlarning zikr majlislarida faol ishtirok etgan. Keyin tahsilni Buxoro shahrining mashhur madrasalarida davom ettiradi. Bu erda u Imom Sadriddin ismli zamonasining etuk allomasidan tafsir ilmini mukammal o‘rganadi.

Abdulxoliq 22 yoshida Buxoroning o‘scha davrdagi dongdor shayxi hazrati Xoja Yusuf Hamadoniy (1048-1140) bilan uchrashadi va unga shogird tushadi. Xoja Yusuf Hamadoniy Xurosonga qaytib ketguniga qadar u buyuk zotning xizmatida bo‘lib, xojagon tariqatining usullarini mukammal egallaydi (garchand xojagon tariqatini Xoja Abdulxoliq asoslagan bo‘lsa-da, uning ilk shakllari Xoja Yusuf hazratlari tomonidan boshlangan) va ko‘p o‘tmay o‘zi ham yirik tasavvuf olimiga aylanadi.

Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniying tasavvuf tarixidagi buyuk xizmati yangi bir tariqatga asos solgani bilangina belgilanmaydi. Xojagon tariqati vositasida u tariqatni yangi bosqichga olib chiqdi. Shariatga amal qilish, undan chekinmaslikni asosiy qoidaga aylantirdi. Tarkidunyochilik va xilvatni rad etib, jamoat bilan birga bo‘lishni shart qilib qo‘ydi. Alloh muhabbatи deb dunyodan kechmaslikka da‘vat qildi. Luqma halolligi har kim o‘z mehnati bilan kun ko‘rishi zarurligini tariqatning asosiy talabi qilib belgiladi, taqvoni haddan

oshishini ma'qullamaydi. Axloq masalasi qat'iy qilib qo'yildi. Bularning barchasi tasavvuf taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xojagon-naqshbandiya tariqatining hayotiy shart-sharoitlar, insonning mavjud imkoniyatlariga asoslanganligi uning hamma zamonlar va barcha tabaqalar talabiga javob beradigan, zamini mustahkam tariqat ekanligidan dalolat beradi. Shariat andozasiga solingan, bid'at va nuqsonlardan xoli G'ijduvoniy yo'li asrlar davomida tariqatda hujjat va barcha guruhlarda maqbul deb e'tirof etib kelinmoqda.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning qabri G'ijduvon shahrining markazida joylashgan bo'lib, onasining oyoq tomoniga ko'milgan.

Buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur Xitoy urushidan qaytganidan so'ng Abdulxoliq G'ijduvoniy hazratlarining sharaflariga atab madrasa va maqbara qurishni niyat qiladi, ammo uni amalgalashirishga ulgurmeydi. Bu ishni uning nevarasi Mirzo Ulug'bek ro'yobga chiqaradi. 1433 yilda G'ijduvon shahrida "Ulug'bek" nomli madrasa, kutubxona va tosh hammom qurdiradi. Keyinchalik, Buxoro amiri Abdulloxon tomonidan bu erda Abdulxoliq G'ijduvoniy sharafiga masjid, minora va hovuz barpo etadi.

Ammo sobiq mustabid tuzumning ma'naviy merosimizga qarshi siyosati natijasida 1957 yilda bu erdag'i hovuz ko'mib tashlanadi, masjid va madrasa kimyoviy o'g'itlar saqlanadigan omborxonaga, Hazrat qabrining tevaragi esa somonbozor, g'allabozor va bostirmaga aylantiriladi.

Abdulxoliq G'ijduvoniy jome' masjidi va ziyoratgohi Mustaqillikdan so'ng qayta tiklandi. Ayniqsa, 2003 yili Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy hazratlarining 900 yillik tavalludi oldidan ziyoratgohda katta ishlar amalgalashirildi. Jumladan, Abdulxoliq G'ijduvoniy hazratlari qabrlari tepasidagi o'n ustunli ayvon yangidan barpo qilindi Maqbara yonida bir ming besh yuz kishilik jamoani o'z ichiga oladigan yangi jome' masjid qurildi. Mus tabid tuzum davrida ko'mib tashlangan hovuz va quduq qayta ochildi. Masjid va majmua atrofida 8 tanob (4 hektar)li ko'rakm xiyobon barpo qilindi. O'tgan asr boshlarigacha Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy va onalarining qabrlari atrofida hazira, masjid, xonaqoh, minora, hovuz, quduq kabi inshootlardan iborat va atrofi devor bilan o'rabi olingan, bitta kirish darvozasi bo'lgan majmua mavjud bo'lgan va u keyinchalik buzib

tashlangan. Ziyoratgohda amalga oshiriladigan ishlar qatorida mazkur hazira ham tiklanmoqda.

Xo'ja Orif ar-Revgariy, Xo'ja Mahmud Anjir Fag'naviy qadamjolari - Xoja Muhammad Orif ar-Revgariy quddisu sirihu Xoja Orif Mohitobon nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Xoja Orif Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Revgar qishlogida tug'ilgan, yuz yildan ziyod umr ko'rib, 1259 yilda vafot etganlar. Qabrlari Shofirkon markazida obod ziyoratgohga aylantirilgan. 1996 yil Xoja Orif jomesi qurildi. Naql etilishicha, Xoja Orif o'rta bo'yli, ochiq yuzli, katta ko'zli, kamon qoshli, vujudidan mushku anbar hidi anqib turadigan zot bo'lgan ekan. Xoja Orif Hazrat Abdulxoliq G'ijduvoniyning to'rtinchi xalifasi hisoblanadi. Hazrati Maxdumi A'zam Dahbediyning "Maqomoti Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy" asarida naql qilinishicha, Hazrat Xizr alayhissalom hazrati Abdulxoliq huzurlariga kelardilar. O'sha choq hazratning hamma shogirdlarini uyqu bosardi. Suhbat tugab, Xizr alayhissalom ketganlaridan so'ng shogirdlar beixtiyor uyqudan uyg'onardi. Shogirdlar orasida eng yoshi bo'lgan Xoja Muhammad ar-Revgariy Xizr alayhissalomning suhbatidan bahramand bo'lay deb ko'zlariga tuz sepdilar va og'rikning qattiqligidan u kishiga uyqu g'alaba qilolmadi. Suhbatdan bahramand bo'ldilar. Bu holni ko'rib Xizr alayhissalom dedilar: "Siz orif bo'lgaysiz, inshaolloh!" Xoja Xizr alayhissalom nafaslarining barakotidan butun dunyoga Xoja Orif nomi bilan mashhur bo'ldilar. Xoja Orif ar-Revgariy "Orifnama" kitobining muallifi. "Orifnama" 1994 yil nashr etildi. "Orifnama"da yozilganki, "Odob nek odamlar ziynatidur!. Avliyolik alomati uchtadur: birinchisi - baland darajani egallaganda ham kamtar bo'lmoq; ikkinchisi - sabru toqati etguncha parhez qilmoq, uchinchisi - to kuchi yetguncha insof qilmoq. Ochlik - zohidlar, zikr - oriflar taomi".

Buxoroyi sharifning etti pirlaridan biri - Xo'ja Orif ar-Revgariy Mohitobon ziyoratgohining qayta rekonstruksiyasi uchun 10 milliard mablag' ajratilgan (Shofirkon tuman imom xatibi Jasur Latipov ma'lumoti). Islom dini quvvati sifatida musulmon dunyosida e'tirof etilgan Buxoroyi sharifda jahon ma'naviy tamadduniga bebaho hissa qo'shgan ulug' etti pir ziyoratgohlari tabarruk maskanlar sanaladi. Ushbu etti ziyoratgohning har biri milliy va zamонавиј arxitektura talablariga to'la javob beradigan mahobatli majmua sifatida barpo etish rejallashtirilgan.

Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy quddisu sirrihu Vobkent tumanidagi Anjir Fag‘ni qishlogida tug‘ilib, o‘sha erda vafot qilganlar. Bu qishloqning hozirgi nomi Anjir bog‘dir. Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy ilmi qol va ilmi holni hazrati Xoja Orif Revgariydan o‘rgangan. Ali Safiyning “Rashahotu aynul hayot” kitobida yozilishicha, Xoja Ali ar-Romitaniy Xizr alayhissalomdan: “Shu asru ayyomda pir deb kimning etagidan tutsa buladi?” deb so‘raganida Xizr alayhissalom: “Shu asru ayyomning murshidi Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviyidir!” deganlar. Xizr alayhissalomning. tavsiyasiga muvofiq Xoja Ali ar-Romitaniy Xoja Mahmudga murid bo‘ladi. Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy qabrlari ustida yangi makbara, maqbara yonida hovuz va jome’ masjidi qurilib ushbu joy obod ziyoratgohga aylangan.

2. Xo‘ja ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Saidi Miri Kulol ziyoratgohlari. Xoja Ali Romitaniy quddisu sirrihu tarixi - Xoja Ali Romitaniy quddisu sirrihu Xojai Azizon nomi bilan mashhur. Bu zoti sharif Romitonning Qo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Maqomati g‘oyat oliv, karomati bisyor, kasblari to‘quvchi bo‘lgan. “Rashahot”da yozilishicha, 1310 yil, “Maqomati Shohi Naqshband”da ta‘kidlanishicha, 1321 yilda vafot qilgan. Qabri Ko‘hna Urganchda, obod ziyoratgohdir.

U kishining shamoyili o‘rtta bo‘yli, ko‘rkam sifatlarga ega bo‘lgan, nuroni yuzli shaxs edi. Ali Romitaniy faqirlik yo‘lini tanlagan, mato to‘qish bilan shug‘ullanar edi. U kishi zohirda xalq bilan, botinda Haq (Alloh) bilan edi. Yuksak manaviy maqom egasi, favqulotda karomatlari zohir edi. Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy hazratlarining xizmatini ixlos bilan qilgan eng sadoqatli, ulug‘ xalifalaridan edi.

Tasavvuf ahli orasida “Azizon” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Ali Romitaniy Romitanda bir necha yil xalqni irshod etadi, keyin Bovard (Abivard)ga ko‘chib boradi, u erda ham muridlar etishtiradi. Nihoyat, Xorazmga ko‘chib borib, u erda muqim istiqomat qiladi.

“Rashahot ayn ul-hayot” va “Hazarot ul-quds” asarlarida yozilishicha, Xoja Ali Romitaniy Xorazmda yashash uchun hukmdordan yozma ruxsatnoma oladi. U har kuni mardikor bozoriga borar, bir-ikki ishchini uyiga olib kelib, ularga din va tasavvufdan saboq berar, kech kirganda haqqini berib, ketkazar edi. Lekin Xoja Ali

Romitaniyning suhbatini bir marta eshitgan odam yana kelaverar edi. SHu asnoda tez fursatda muridlari ko‘payib ketdi.

Zamonasining mashhur shayxlaridan Badriddin Hamadoniy Xoja Ali Romitaniydan: “Allohn ni ko‘p zikr qilinglar...” (Ahzob surasi, 41-oyat) oyati karimasida nazarda tutilgan zikr, zikri jahriymi yo zikri xafiyimi?” - deb so‘raganida, Xoja Ali Romitaniy hazratlari: “Mubtadiy (tariqatga yangi kirgan solik)ga ko‘ra jahriy, muntahiy (sulukni nihoyasiga etkazayotgan murid)ga ko‘ra xafiyidir”, - deb javob beradilar. “Zikri jahriyga dalilingiz nima?” - degan savolga: “Oxirgi nafasingizda tavhid zikrini talqin qilingiz” hadisidir, - deya javob bergenlar. Bu talqin, tabiiyki, jahriy bo‘ladi va taqvo qiluvchi har nafasini oxirgi nafas deb biladi. Xoja Ali Romitaniy hazratlari adib va shoir ham edi. Hikmatlarga to‘la forscha she’rlar bitgan. “Tarixi nazmu nasr” asari muallifi Said Nafisiyning qayd etishicha, Xoja Ali Romitaniyning “Mahbub ul-orifin” nomli asari bor. Unda muridlarga tavsiya qilingan o‘nta asos qoidalar tushuntirilgan. Bu asarda va boshqa ayrim manbalarda (“Rasoili sittai zaruriya”, Ali Safiyining “Rashahot ayn ul-hayot”, Rizoqulixonning “Riyoz ul-orifin” va “Majma ul-fusaho” kabi asarlarda) Xoja Ali Romitaniyning she’rlari keltirilgan. Xoja Ali Romitaniyning ba’zi fikr-qarashlarini uning farzandi Xoja Ibrohim bir necha sahifalik kichik risolaga jam qilgan. Bu risolaga Muhammad Xorazmiy Arzangiy sharhlar bitib (taxminan XV asrda) “SHarhi Risolai Azizon” yoki “Manoqibi Xoja Ali Azizoni Romitaniy” nomi bilan yaxlit bir asarni tartibga keltirgan. “Fihristi nussxaho” asarida “Risolai Xojai Azizon” nomli kichik bir risola Xoja Ali Romitaniyga nisbat etiladi.

Yurtboshimizning 2018 yil fevral oyida Buxoro viloyatiga qilgan tashriflari chog‘ida Etti pir ziyyaratgohini obodonlashtirish tashabbuslari bilan chiqqanlari Romitan tumani Azizon MFY O‘ba qishlog‘i hududida joylashgan “Xoja Ali Romitaniy” ziyyaratgohida qurilish va ta’mirlash ishlari boshlab yuborildi. Ziyyaratgohning umumiyligi er maydoni bir gektarni tashkil etadi. Hozirgi kunga qadar uch gumbazlik yangi kirish darvozasi, hovuz, balandligi 16 metrli minor, Hazrat Ali Romitaniy qabrlari ustiga maqbara, erkak va ayollar uchun tahoratxona, kutubxona, qurib bitkazildi. Ziyyoratchilarga qulaylik yaratish maqsadida yo‘llar ta’mirlanib, mehmonlar uchun avtoturargoh ham tashkil qilindi. Ziyyaratgohdagi jome’ masjidi 2004 yil hashar yo‘li bilan qurilgan. Masjid binosi uch tomonlama ayvon

bilan o'ralgan, hozirgi kunda masjidda juma namozlarida olti yuzdan ortiqroq namozxonalar ibodatlarini ado etib kelmoqdalar. Masjid bir yuz oltmish kishiga mo'ljallangan. Ziyoratgohning yonida 43 kishilik yangi zamonaviy "Qo'rg'on" mehmonxonasi mavjud. Ziyoratgohdagi quduq ta'mirlanib, o'zgacha qiyofa aks etdi. Xoja Ali Romitaniy ziyoratgohi qarshisida to'rt ming yillik tarixga ega Afrosiyob qurdirgan Romitan qo'rg'oni (qal'a) mavjud. Ushbu ziyoratgohga tashrif buyuruvchilar ziyorat asnosida qadimiy qal'ani ham tomosha qilib kelmoqdalar.

Boboyi Samosiy ziyoratgoh - Xoja Muhammad Boboyi Samosiy quddisu sirrih 1259 yil Buxoro viloyati Romitan tumani Samos qishlog'ida tug'ilib, 1354 yil vafot etganlar. Qabrlari Samos qishlog'idadir. Hazrat Boboyi Samosiyning otalari - Sayyid Abdulloh bo'lган. Ul zoti sharif ham shariat-u tariqat ilmidan voqif bo'lган.

Hazrati Muhammad Boboyi Samosiy quddisu sirrihu bug'doy rangli va yuzlaridan nur yog'ilib turadigan zot edilar. U kishining nigohlari ta'sirli va hissiyotlari kuchli bo'lган.

Hazrati Muhammad Boboyi Samosiy quddisu sirrihu Xoja Ali Romitaniy hazratlariga umrlarining oxirigacha ixlos bilan xizmat qilganlar. Hatto, u kishi Xorazmga hijrat qilganlarida, birga hijrat qilganlar. Ana shu suhbat u kishiga ulkan foydalar keltirib, ustozning eng yaqin kishilaridan biriga va ko'zga ko'ringan xalifalariga aylandilar.

Hazrati Muhammad Boboyi Samosiy quddisu sirrihu ko'p talabalarini o'zları izlab topardilar. Bir kuni u kishi kurash maydoni oldidan o'tib ketayotib, maydon o'rtasidagi polvonga nazar soldilar va uni ma'naviy maydonga tortadilar. Ushbu shaxs Amir Kulol edilar. SHu ondan e'tiboran Amir Kulol, hazratning xizmatlariga kiradi va u kishining benazir ilmlari ila sug'orilib, ta'lim - tarbiya oladilar.

Hazrati Muhammad Boboyi Samosiy raxmatullohi alayhining huzurlariga yangi tug'ilgan Bahouddin Naqshbandni olib kelganlarida, u kishini ko'rsata turib, Amir Kulol rahmatullohi alayhiga quyidagilarni aytganlari rivoyat qilinadi: "Bu biznikidir. Buni ma'naviy farzandlikka qabul ayladik. Avval aytganimizdek, tariqatimiz kelajagi bo'ladigan shaxs, inshaalloh, shudir. Bu qishloq bundan so'ng Qasri Orifon bo'lajak. Ey Amir Kulol! Bu yo'rgak ichidagi o'g'lim Bahouddinni senga havola etaman. Buning zohir va botin tarbiyasida hech kamchilikka yo'l qo'yimagin!". "Inshaalloh,

aytganingizni qilish uchun qo‘limdan kelgan barcha imkoniyatlarni ishga solaman”, - dedi Amir Kulol.

Hazrati Muhammad Boboyi Samosiy raxmatullohi alayhi to‘rtta ulug‘ xalifa etishtirganlar: Xoja So‘fiy Suxariy, Xoja Mahmud Samosiy (o‘z o‘g‘illari), Xoja Donishmand va Xoja Sayyid Amir Kulol.

Hazrati Muhammad Boboyi Samosiy quddisu sirihu silsila omonatini Xojai Azizon Ali Romitaniy hazratlaridan olganlar.

Muxtaram Prezidentimizning Buxoro viloyatiga 2018-yilning fevral oyidagi tashriflari davomidagi ko‘rsatmalariga asosan, bir kator jome’ masjidlarimiz va ziyoratgohlarda qayta qurish, rekonstruksiya va obodonlashtirish ishlari jadal sur’atlarda olib borildi.

Tumanda faoliyat yuritayotgan barcha jome’ masjidlar qatori Xoja Muhammad Boboyi Samosiy jome’ masjidida ham bir qancha qayta qurish va rekonstruksiya ishlari olib borildi. Jome’ masjidida zamonaviy ko‘rinishga ega binolar qad rostladi. Masjid atrofi to‘liq devor bilan o‘rab olindi. Darvozaxona, tahoratxona, minora, hovuz, maqbara va yo‘laklar yangidan zamon talablariga javob bera oladigan qilib qad rostladi. 2020 yilning bиринчи yarmiga qadar, pardozlash ishlari ham yakunlanadi. Ushbu majmua yurtimiz mehmonlari va mahalliy aholi uchun barcha qulayliklarga ega, salobatli va viqorli ziyoratgohlardan bo‘ladi, insha Alloh!

Saidi Miri Kulol ziyoratgohi - Sayyid Amir Kulol quddisu sirrihuning asli ismi Sayyid Amir Kalon bo‘lib, Buxoro yaqinidagi Suxor qishlog‘ida tug‘ilgan. Bu zot taxminan 1287 yillarda dunyoga kelgan. Kulolchilik bilan shug‘ullangani sababli Mir Kulol nomi bilan mashhur bo‘lgan. Mir Kulolning bir yuz o‘n to‘rtta avliyo bo‘lgan xalifasi bor edi. Eng etuklari Bahouddin Naqshband, Mavlono Orif Degaroniy, Shayx Yodgor Valiy, Shayx Jamoliddin Dehai Osiyoi, Shayx Shamsiddin Kulol, Xoja Darzuniylardir.

“Maqomoti Amir Kulol”da naql qilinishicha, Hazrat Mir Kulol mujarrad (bo‘ydoqlik) davrida tengqurlari bilan bog‘da ittifoq bo‘lib, choponlarini yuvibtilar va birodarlariga aytibtiki, “Ey yoronlar, choponlarni paxsa devor ustiga yoymaylik, chunki u erdag‘i tikanlarga ozor berilur. Zinhor daraxtlar shoxiga osmaylik, shoxlar egilib, jabr bulur. Zaminga ham tashlamaylik, o‘t-o‘lanlar xarob bo‘lur”. Bu gaplarni eshitib, ne qilarini bilmay qolgan birodarlar surabtiki: “Amir, siz choponingizni qanday qilib quritasiz?” Hazrat debti: “Men

choponimni ustimga tashlab, oftobro‘yada o‘tiraman va shunday qilib quritaman. Ey yoronlar, agar paxsa devordan bir parcha uzilib yerga tushsa yo daraxt shoxi sinsa, yo chorva yeydigan o‘tlarga zarar etsa, Xudovandga ne uzr bildirurmiz? Zinhor nomashru’ (shariatga zid) ishlar, kichik bo‘lsa ham qilmang. Chunki kichik gunoh takrorlanaversa, do‘zaxga olib borur. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam istig‘for (kechirim so‘rash) bilan katta gunohlar kechiriladi, muttasil qilinaverilsa, kichik gunohlar ham kattaga aylanadi, deganlar”.

Sobiq Ittifoq davrida Hazrat Mir Kulol jomesi yiqitildi, ziyyaratgohi esa sho‘r bosib, qarovsiz holga kelgandi. Istiqlol yillarida Mir Kulol ziyyaratgohida yangi jome masjid, mehmonxona, darvozaxona qurildi. 2007 yilda Sayid Mir Kulol qabri ustida mahobatli maqbara qad rostladi. Atrofida ulkan bog‘ barpo qilindi.

Said Miri Kulol shayx Xoja Muhammad Boboyi Samosiyning ansoblaridan bo‘lib, 20 yillar chamasi uning xizmatida bo‘lgan, undan sufizm tariqatlarini mukammal o‘rgangan. Said amir Kulolning tug‘ilgan yili noma’lum, 1370 yilda vafot etgan. U XIV asrda Buxoroning Suxoriy qishlog‘ida yashagan, qabri ham o‘sha erda. 1958 yilda Miri Kulol qishlog‘ida yashagan 86 yoshli Jalil bobo Ulug‘ov, Sharif bobo Ataev, Sand Xoja kabi qishloqning keksalari bilan qilingan suhbatlarda quyidagicha hikoyalari qilgan edilar: “Hazrati Miri Kulol asli Rumdan (Turkiyadan), Xoja Suxoriy qishlogiga kelib tushgan. Lekin qishloq ahli begona kishini qishloqdan haydaydilar. Gash-gash degan joydagি Orom tepaga joy qilib, u erda orom oladilar. Shuning uchun ham tepaning nomi Oromtepa deb ataladi. Qishloqdan haydalgan paytlarda u kishi shu qishloq xalqini o‘limingizdan oldin dum chiqarib o‘linglar” deb qargagan ekan. Bu qarg‘ishni eshitgan xalq tavba-tazarru bilan Miri Kulolni yana shu qishloqqa olib kelgan ekanlar. Odam qishloqda kulolchilik bilan shug‘ullangan, maxsus xumdon qilgan. Shuning uchun uni qabri atrofida Kulol (chiqindilari) haligacha saqlangan.

Mamlakatimiz istiqlolga erishganidan so‘ng nomlari qayta tiklanib, faoliyati o‘rganilgan, maqbaralari obod maskanlarga aylantirilgan ulug‘ ajdodlarimiz qatoridan Sayyid Amir Kulol hazratlari ham joy egalladi. Hazratning muborak qabrlari Buxoro viloyati Kogon tumani Yangi hayot qishlog‘ida joylashgan. 1997 yilda Qiziltepa - Kogon avtomagistrali yoqasida joylashgan Yangi hayot

qishlog‘ida go‘zal va purviqor majmua qad rostladi. 2007–2008 yilda qayta rekonstruksiya ishlari olib borilganidan so‘ng ziyoratgoh yanada obod go‘shaga aylantirilib, yangi maqbara barpo etildi. Mazkur maskanga mamlakatimiz va xorijdan yuzlab ziyoratchilar tashrif buyuradi. Bu Hazrat Amir Kulolga islom olamida bo‘lgan yuksak e’tirof nishonasidir. Shamsiddin Kulol 772 (1370-1371) yilda vafot etadi.

3.Xoja Muhammad Bahovuddin ziyoratgohi-Bahouddin Naqshband hazratlari 1318 yil Buxoro shahri yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘ilgan. Ul zoti sharif sharofatidan qishloqning nomi Qasri Orifonga aylangan.

Abulhasan Muhammad Boqir bin Muhammad Alining “Maqomoti shohi Naqshband” kitobida yozilishicha, Bahouddinga bevosita Sayyid Mir Kulol ustozlik qilgan. Hazrat ona tomonidan siddiqiydir, ya’ni nasablari Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi. Bahouddin Naqshband hazratlari 1389 yil Qasri Orifonda vafot etgan.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 1993 yilda Xoja Bahovuddin Naqshband hazratlarining 675 yillik yubileyini keng nishonlash, Hazratning yodgorlik majmuini, barcha qadamjolarini obod qilish, Naqshbandiya tariqati g‘oyalarini chuqur o‘rganish, xalqqa etkazish yuzasidan maxsus Qarori e’lon qilindi. Bu nihoyatda oqilonqa qaror edi. Chunki, Xoja Bahovuddin hazratlari asoslagan naqshbandiya olti asrdan ziyodroq, aniqrog‘i Sohibqiron Amir Temur davrlaridan e’tiboran nafaqat yurtimizda, balki butun musulmon dunyosida katta mavqeda bo‘lib kelgan, sho‘rolar davrida mafkura tazyiqi ostida bir qadar chekingan bo‘lsa-da, hali hamon xalqimiz turmush tarzida, qalbining qat-qatlarida pinhona yashab kelayotgan hayotbaxsh bir ta’limot edi. Mazkur Qaror Yurtimizda katta qoniqish va quvonch bilan qarshi olindi. Ertangi kunga bo‘lgan ishonchimizni mustahkamladi.

Buxorodan 10 kilometr shimoli-sharqda Qasri Orifon qishlog‘ida joylashgan Hazrat Bahouddin Naqshband ziyoratgohi nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk qadamjolardandir.

Naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Bahouddin Naqshband 1389 yilda 71 yoshida vafot etadi. Ulug‘ piru komil dafn etilgan Qasri Orifon qishlog‘idagi ziyoratgohda turli me’moriy inshootlar qurilib, majmua besh asr mobaynida shakllanib borgan. O‘rta asr

tarixchilarining yozib qoldirishlaricha, memorial kompleks bir necha bor qayta qurilgan.

Istiqlol yillarida tarixiy-me'moriy majmua tamomila obod maskanga aylantirildi. Qayta tiklash ishlarida yurtimizning barcha hududlaridan mahoratli ta'mirchi-ustalar ishtirok etdi. Bahouddin dahmasi atrofida qariyb 90 metrlik yangi ayvon o'z o'rnida qayta qurildi. Hazratning hayoti va ta'limotiga bag'ishlangan "Naqshbandiya tariqati" muzeyi barpo etildi. Ziyoratchilar uchun barcha sharoit yaratildi. Ayni paytda ushbu qutlug' qadamjoga yiliga 2 milliondan ortiq mehmonlar va sayohatchilar tashrif buyurmoqda.

Bahouddin Naqshbandning umri asosan Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda o'tgan. G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati bilan kun ko'rgan. Xizmatkor yoki qul saqlamagan. O'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G'ijduvoniy nazariyalariga asoslangan. Ta'limoti asosida: "Dil-ba yor-u, dast-ba kor" ("Ko'ngil Allohdha bo'l sin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin"), - degan shior yotadi. Tasavvufdag'i har qanday tariqat kabi, xojagon-naqshbandiya tariqati ham o'z g'oyalari, tartib-qoidalari, odoblari va qat'iyatlarini shakllantirishda juda qadim rishtalardan suv ichgan. Ammo tariqatning butun mohiyatini uning bosh shiori bo'lmish: "Dil-ba yor-u, dast-ba kor" hikmati hamda yana o'n bir qoida belgilab beradi. Bu qoidalari "rashhalar", ya'ni "tomchilar" deb yuritilgan. Rashhalar Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshband taraflaridan asoslangan.

Bahouddin maqbarasiga qo'yilgan marmar va marmarsimon oxaktoshdan yasalgan panjaralar ajoyib me'morchilik namunasidir. Bahouddindagi Shayboniy va Ashtarxoniyalar sulolalarining ayrim podsholari go'ri ustiga qo'yilgan qabr toshlari nafis o'simlik naqshlari bilan qoplanib, ularga mashhur xattotlar qalami bilan yozuvlar o'yib yozilgan.

Xoja Bahouddin Naqshband umri bo'yi dehqonchilik bilan kun kechirgan, o'z qishlog'ida unchalik katta bo'l magan eriga bug'doy va mosh ekar ekan. Naqshband ta'limotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlilik yotadi. Shunga binoan, Bahouddin Naqshband uyida hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan, qishda qamishlar ustida, yozda esa bo'yra ustida yotib kun kechirgan. Uning uyida hech qachon xizmatkor ham bo'l magan. Hazrati Naqshband butun umrini o'z xohishi bilan faqirlilik va yo'qsilliqda o'tkazgan,

hukmdorlardan doimo o‘zini yiroq tutgan, ular oldida hech qachon ta’magirlik qilib yashamagan. Bundan tashqari, u karomat ko‘rsatishlarga ham ehtiyotkor munosabatda bo‘lgan. Biroq u soliqning pir bilan nafaqat tasavvuf amaliyotlarida, balki kundalik ishlarda ham munosabatlarda robita holatiga alohida e’tibor berib kelgan.

Bahouddin Naqshband o‘zining hayot yo‘lini 1389 yilda poyoniga etkazdi. U vafot etishi bilanoq uning Qasri Orifon qishlog‘idagi qabri Naqshbandiya tariqatining izdoshlari hamda Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda yashaydigan oddiy musulmonlar uchun ommaviy ziyyaratgohga aylandi. Odamlar avliyoning ruhiga murojaat qilib, kundalik turmushga oid muammolarni hal qilish yoki odatiy ishlarda ko‘mak berilishida vositachi bo‘lishini so‘raydigan bo‘ldi. Sufiyalar ustozlarining mozorlariga bu kabi munosabat Markaziy Osiyodagi musulmonlar jamoasi orasida shu bugungi kunlargacha o‘zgarmay qolmoqda.

Tayanch iboralar: ziyyaratgoh, Abdulkholiq G‘ijduvoniy, Xo‘ja Orif ar-Revgariy, Xo‘ja Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xo‘ja ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Said Miri Kulol, Xoja Muhammad Bahovuddin, maqbara, qabr.

Savollar

1. Xoja Ali Rometani qaerda tug‘ilgan?
2. Abd al Xoliq G‘ijduvoniy qachon tavallud topgan?
3. Boboyi Samosiy kimning shogirdi
4. Bahouddin Naqshband qaysi qishloqda tavallud topganlar
5. Xoja Ali Rometani qaerda vafot etganlar.

Manba va adabiyotlar

1. Г.Н.Наврӯзова, Э.Х.Зоиров Бухоро шарифнинг етти пири. Тошкент – 2022.202-б.
2. Абдухалиқ Ғиждувоний ва тасаввуф. Илмий конференция маъruzalari тезислари. Тошкент – 2003.45-б.
3. Иброҳим Усмонов. Тасаввуф ўкув-услубий қўлланма. Тошкент. 2012.248-б.
4. Нарзулла Йўлдошев Бухоро авлиёларининг тарихи. Бухоро.-1997. 144-б
5. Садриддин Салим Бухорий, Самад Азимов Буюк ғиждувонийлар. (авлиё ва алломалар). Бухоро нашриёти. 2006. 62-б.

8-MAVZU. TASAVVUF BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN AVLIYO VA QADAMJOLAR TARIXI

Reja:

- 1.Robi'a al Adaviya, Abdul Qodir - Jeloniy qadamjolari
- 2.Zinda Fil Ahmadi Jomiy, Abdul Hamid G'azzoliy, Xoja Yusuf Hamadoniy, Shayx Najmiddin Kubro qadamjolari
3. Shayx Sayfiddin Boxarziy, Xoja Parso qadamjolari

1.Robi'a al Adaviya, Abdul Qodir- Jeloniy qadamjolari- So‘fizm (arabcha suf-jun so‘zidan olinib, so‘fi (jo‘npo‘sh degan ma’noni bildiradi). Islom dinidagi turli ko‘rinishlardagi falsafiy ta’milot bo‘lib, V-X asrlarda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Eng qadimgi g‘oyalarning namoyondalari Falastinda yashagan Robi'a al Adaviya (vafoti 135 yil hijriy), Abu Hoshim (vafoti 150 yil hijriy) bo‘lib, Robi'a Allohga muhabbat ruhi bilan yashash g‘oyasini ko‘tarib chiqqan dastlabki ayollardan bo‘lib hisoblanadi. U “faqat Alloh muhabatiga sazovor bo‘lib, bu dunyoda butun borliqni uning yo‘lida qurbon qilish va butun umidini Allohdan tilash kerak, chunki butun dunyodagi narsalar Alloh taologa bog‘iqdir” degan g‘oyani ko‘tarib chiqadi.

Robi'a haqida quyidagi rivoyatlar keltiriladi: “Bir kuni Robi'a kasal bo‘ladi. Basradan Hasan, Balxdan Shaqiq uni ko‘rish uchun keladilar. O‘zaro suhbatda Hasan “Ollohning “Xudoning jazolaridan lazzat olmagan odamning ishonchini haqiqiy emas” deb aytadi. Shunda Shaqiq bu so‘zni kuchaytirmoqchi bo‘lib, “Xudoning jazolaridan lazzat olmagan odamning ishonchi haqiqiy emas” -deb aytadi. Shunda Robi'a ularning fikrlarini rad etib aytadiki “Olloh taoloni mushohada qilganda, uning jazolarini unutgan kishining ishonchi haqiqiy emas”.

Bir kuni Robi'adan “Sen shaytonni yomon ko‘rasanmi?”, deb savol bergen ekanlar, u “yo‘q” deb javob bergen ekan. So‘rabdilar, nima uchun?” u o‘z javobida “chunki mening xudoga bo‘lgan muhabbatim shunchalik kuchlik, kecha-kunduz uning ishqini bilan band bo‘lganim uchun, men shayton haqida o‘ylashga, uni yomon ko‘rishga ham vaqt topa olmayman. Bir kuni tushimda ollohning payg‘ambari so‘radilarki. “O Robia sen meni yaxshi ko‘rasanmi?”

men javob berdim “O Rasululloh, kim seni yaxshi ko‘rmaydi, butun musulmon olami seni ishqing bilan yashaydi. Lekin meni xudoga bo‘lgan ishqim, butun jismimning bo‘laklarigacha qamrab olganki, seni yaxshi ko‘rishim uchun mening jismimning biror bo‘lagida joy qolmagan deb javob bergen.

Rivoyat keltiradilarki: Robi'a Adaviyaning eri vafotidan ancha o‘tgandan keyin Hasan Basri o‘z ansoblari bilan Bibi Robianing uylariga borib, u bilan muloqotda bo‘ladi. Imom Hasan aytadilarki, “Ey, Bibi Robi'a, sening ering vafot etdi, men xohlardimki meni shavharlikka qabul qilsang?”. Shunda bibi Robi'a sen bu haqda menga amr qildingmi, yoki meni er qilish ixtiyorim borligini bildingmi?” deb so‘raydi. Imom aytdilarki, “Agar ixtiyor qilsang deb so‘ragan edim”. Shunda Bibi Robiia aytdilarki “To‘rt masalaga javob aytsang, men senga turmushga chiqishga rozi bo‘laman. Imom Hasan aytdilar masalalaringni bayon qil!”. Bibi Robi'a aytdi: Agar men bu dunyodan naql qilsam, o‘zim bilan birga iymonimni olib bora olamanmi, yo‘q? Hasan Basri “bu masala Ilmi aybdur, buni xudoning o‘zi biladi” deb javob beradilar. Bibi Robi'a yana so‘radiki, “Agar meni qabrga qo‘ysalar munkar-nakir savollariga to‘liq javob bera olamanmi, yo‘q?” Aytdilar, buni xudo biladi. Yana so‘radi: “Qiyomat kuni Mahshargohda meni ehmol xatimni (“nomai ehmoli moro”) o‘ng qo‘limga beradilarmi yoki chap qo‘limga?”. Hasan Basri aytdi: “Men bilmayman, bu ilmi g‘ayb tashqari hech kimdur”. Bibi Robi'a yana so‘radiki, qiyomat kuni ma’naviy nido qiluvchilar ikki firqaga kiradilar fial hayot firqasi va as sair (do‘zax) firqasi. Men mana shu firqalarning qaysi biriga munosibman, Imom Hasan aytibdilarki, g‘ayb ilmini xudodan boshqa hech kim bilolmaydi. Robi'a aytdiki, meni mana shu to‘rt masala hayron qilayotgan bir paytda qaysi xotirjamlik bilan erga tegaman, deb javob beradi.

Robi'a “Men faqat Xudo uchun yaratilganman, shuning uchun men faqat uning nomi bilan yashayman” degan g‘oyani talqin qiladi. Keyinroq bu g‘oya so‘filar uchun asosiy g‘oyalardan biriga aylanadi”. Faqat xudoning ishqisi bilan yashaydigan ayollardan Robi'a yagona emas edi. Shunday ayollardan jaffar as-Sodiq qizi Oysha (vafoti 145 yil hijriy). Nishopurdan Fotima (223 hijriy yilida vafot etgan).

2.So‘fizmning yirik namoyandalaridan Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad Al G‘azzoli bo‘lib, 1058-1059 yilda Tus shahrida tug‘ilgan. Yoshligidan boshlab sufiy ta’limot bilan tanishish

maqsadida Nishopurga keladi, u erda islom ilohiyatini o'rganadi. Tez vaqtida ruhoniylar o'rtasida obro' qozonadi. 1091 yil saljuqiylar vaziri Nizom-al Mulk Bag'dod shahrida Nizomiya madrasasiga mudarrislikka taklif qiladi. Bu erda u saljuqiylarning ashaddiy dushmani bo'lган Ismoiliylar dini mazhabi bilan munozara boshlaydi. Ularning ta'limoti islom ta'limotiga qarama-qarshi deb chiqadi. Islom dinidagi mazhablarga qarshi chiqib, Nizom-al-markazlashgan davlati barpo qilish haqidagi siyosatini yoqlab chiqadi. 1095 yildan madrasa mudarrisligini tashlab, ziyoratga boradi. 438 (1095) yilda Hajga musharraf bo'lib, shomga andin Baytul-muqaddasga bordi.

U bir qancha diniy-mistik va islom filosofiyasiga doir muhit (foydabaxsh) asarlar muallifi. "Al-munkiz min-at-dalol" («adashganlarni qutqarmoq») degan asarida Aristotel, Farobi, Ibn Sino g'oyalalarini Islom nuqtai nazaridan inkor qilibgina qolmay, bilimning ratsionalistik falsafiy sistemalariga qarshi kurash olib boradi.

"Tahofut al falasifaa" ("faylasuflarni rad etish"), "Komyoyi assaodat" (saodat komyosi), "Ix'eul ulum ad din" ("Diniy ilmlarni tiriltirish"), "Javohirul Qur'on", "Yoqutut - ta'vil", "Mishkotul anvar" kabi asarlarida islom ilohiyati sistemasini ishlab chiqadi va uni falsafiy asoslashga urinadi. U xudoni aql orqali anglash mumkin emas, uni maxsus ruhiy-jismoniy (psixofizik) harakat, sig'inish va ibodat orqali anglash mumkin deb hisoblaydi. Uning fikricha, jon xudo singari fazodan tashkarida, olam xudo tomonidan yaratilganligi g'oyasini ilgari suradi.

G'azzoliyning diniy sistemasi sufiylikni ortodoksal islom bilan birlashtirdi, bu bilan amalda uning islohoti bo'lib qoldi. Uning asosiy g'oyasi tabiatdagi butun borliq xudoning irodasi bilan harakat kiladi. Bu bilan boy va kambag'allikni ham xudoning irodasiga eltib bog'laydi. Uning g'oyalari ko'prok xalq mafaatiga tamomila mos bo'lган g'oyalalar bo'lгани uchun uning vafotidan keyin O'rta Osiyoning bir qancha shaharlari va qishloqlarida uning mozorlarini barpo qilinib, uni avliyo darajasiga ko'targanlar. Buxoro shahrida Imom Muhammad G'azzoli mahallasi va shu mahallada uning qabri bor.

Bu mozorni ruhoniylar hatto bosh og'rig'iga shifo beradigan "Muqaddas joy deb e'lon qilganlar. Bosh og'riq kasaliga duchor bo'lган kishilar bu mozorga kelib, boshlarini uning qabriga qo'yib

yotganlar va u erdag'i tug'ga boshlarini silaganlar. Nazrxo'rlarga ko'pgina nazr-niyozlar bilan bir qatorda bir dona qovun ham olib kelib, uni tilimlarga bo'lib, bu erga yaqin bo'lgan madrasa mullobachchalarga ular shaharida chiqqanlar. Shu yo'l bilan ular Imom G'azzoliy bizlarni dahshatli darddan xalos etadi deb o'yaganlar.

G'azzoliyning qabri Buxoroda va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida bo'lishi hech qanday mumkin emas, chunki u umrining oxirida yana Nishapur madrasasida bir qancha vaqt mudarrislik qiladi, keyin o'zi tug'ilgan Tus shahrida vafot etadi, qabri ham o'sha shaharda.

Sufiylar orasida uning shogirdlari va unga ergashuvchilar ko'pchilikni tashkil etgan, ular shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, uning ta'limotlarini targ'ib qilish bilan uni "avliyo" darajasiga ko'targanlar. Ko'pgina joylarda uning qabrini yasab, unga ziyorat qilishga dindorlarni undaganlar. Mahaliy nazrxo'rlar esa uning "shifobaxsh" qabri haqida turli rivoyatlar to'qib, ziyoratchilardan ko'prok nazr-niyoz to'plashga harakat qilganlar.

G'azzoliy o'z asarlarida dunyoning huzur-halovatlaridan o'zini haddan tashqari tiyish va axloqiy yoki diniy kamolotga erishish uchun nozu-ne'matlardan unumli foydalanishni targ'ib qilgan, ammo u o'sha davrning eng yirik boyi bo'lган.

Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy o'zining "Abdullonomo" ("Sharafnomayi shohi") degan asarida shunday hikoya qiladi. Imom G'azzoliyga senhar kuni dunyo ahlini qoralaysan. Xalqning bir-biri bilan aloqalarini hamisha to'xtatishga intilasan. O'zingni og'ililingda shuncha ot va xachirlaring bor. Og'ilxonangdagi mix oltindan, yana boshqa mol-mulking bor. Shunday bo'lgach bu so'zlaring nimasi?" deb so'raganlar. G'azzoliy javobda aytganki "men og'ilxonaning oltin mixlarini loyga qoqqanman, dilga emas, albatta tangri na suratlaringizga va na ishlaringizga qaramaydi, lekin qalblaringizga va niyatlariningizga qaraydi".

G'azzoliy o'z mablag'i hisobiga Nishopurda so'filer uchun xonaqoh va ilm talabasi uchun madrasa qurdiradi. Shuningdek, kambag'allar, etim-esirlar, musofirlar va tariqat ahli uchun "Xayriya jamoasi" tashkil qilib, o'sha kishilar G'azzoliy hisobidan tekin turar joy, oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlanar edilar.

G‘azzoli o‘zining “Oxiratnama” asarida “Ey farzand, amalsiz ilm telbalikdir. Lekin ilmsiz amal ham bo‘lmaydi. Har qanday toatibodatga dalolat qilmasa, unday ilm qiyomat kuni seni jahannamdan qaytarishsa qodir emas. Bunday ilmdan saqlanmoq kerak”.

Yusuf Hamadoniy ziyoratgohlari- Buxoro shahrining korxona mahallasida Yusuf Hamadoniyning qabri va mozori bo‘lib, to‘quvchilar bu erga kelib, bu qabrn ziyorat qilganlar, hatto o‘zlari bilan is, non va qaynatilgan go‘sht keltirganlar. Bu erda “arvohi pir” (“pirlar arvohini eslash”) marosimi o‘tkazib mol qurbanlik qilganlar, nazrxo‘rlarga pul ularshganlar, hatto bu erdag‘i hovuzni ham muqaddaslashtirib, nazr-xo‘rlar hovuz tagida Yusuf Hamadoniyning to‘quvchilik do‘koni bor. Har juma kuni dinga haqiqiy ishonuvchilar ochiq dil bilan kelib qulq solsa, hovuz tagidan Yusuf Hamadoniyning gazmol to‘qiyotgan dastgohining ovozini eshitishlari mumkin degan afsonani ham tarqatganlar.

Shayx Abu Yusuf Yoqub bin Ayyub Hamadoniy hijriy 440 (mil.1048) yilda tug‘ilib, hijriy 535 (milodiy 1140) yilda vafot etgan. Yusuf Hamadoniy Bag‘dod, Isfaxon, Buxoroda tahsil olib, Xuroson, Xorazm va Mavarounnahrda yuksak e’tibor qozongan shayxlardan edi. Mullozoda kitobida Yusuf Hamadoniy Buxoroda tahsil olganligi va birinchi so‘fizm ta’limotini Shayx Muhammad Ishoqdan olganligini ta’kidlaydi.

Mir Alisher Navoiy o‘zining “Nasoimul muhabbat” asarida “Xoja Yusuf Hamadoniy kuniyati Abu Yaqubdir. Shayx Abu Ishoq oni kichik yoshlik ekanidan ko‘p ulug‘ poyalig‘ ashobiga taqdim qilur edi va ko‘p ulamodin Bag‘dod va Isfaxon, Samarqandda Hadis Isti’mo qildi. So‘ngra barchani tark qildi va riyozat va mujohadat tariqin ilgari tutdi” deb yozadi.

V.V.Bartol’dning yozishicha Mavounnahrda X asrdan boshlab Yusuf Hamadoniyning mistik va darveshizm maktabi keng tarqalgan. Yusuf Hamadoniyning kasbi etikdo‘z bo‘lib, Buxoro va Samarqandni dushmanlar hujumidan mudofaa qilishda faol ishtirop etgan. Yusuf Hamadoniyning O‘rtta Osiyodagi sufizm maktabi bir xilda bo‘lmasdan, turli oqimlardan iborat edi. Masalan, Xorazmda turklar orasida islom dinini tarqatishda shuhrat qozongan Hakim ota yoki Sulaymon Bokirg‘oni (vafoti 1186) va kubraviylik asoschisi Najmiddin Kubro, Buxoroda Xo‘jai jahon laqabini olgan Abdulxoliq G‘ijduvoni, Hoja Ahmad Yassaviy, Hoja Hasan Andoqiy kabilarning

har biri darveshizm va so‘fuzm sohasiga alohida oqimni tashkil etganlar.

Yusuf Hamadoniy etikdo‘zlik bo‘yicha mutaxassis bo‘lsa ham, Buxoro ruhoniylari uning mutaxassisligini “o‘zgartirib, uni to‘quvchilar piriga aylantirib qo‘yadilar. Yusuf Hamadoniy mozor va qabrlari Buxorodan tashqari O‘rta Osiyoning bir qancha shahar va qishloklarida ham mavjud bo‘lib, bu mozor va qabrlarning hammasida Yusuf Hamadoniyning jasadi yo‘q. Shunday qabr va mozorlardan biri Shovot (Xorazm) yaqinidagi Besh mergan qishlogida joylashgan. Bu mozorda Buxoro shahridan tamomila zid bo‘lgan urf-odatlar bajarilgan. Xorazm shayxlari Yusuf Hamadoniyning “karomatlari” haqidagi uydirmalari bilan uning insoniy qiyofadan g‘ayri tabiiy afsonaviy shaxsga aylantirib qo‘yanlar. Hatto uni har kanday kasalliklarga “shifo” beruvchi karomatlari xaqida afsonalar to‘qiganlar. Yusuf Hamadoniyning so‘fizm ta’limoti hayot bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, izdoshlarini mehnatga, kasb-hunar egallahsga da’vat etgan. Shu sababli bu oqim o‘zining og‘ir sotsial va iqtisodiy ahvoldan qutilish uchun tasavvufdan yo‘l axtargan, ommaning talablariga ma’lum darajada javob bera olgan. Yusuf Hamadoniyning ta’limoti asosan quyidagilardan iborat: Xush dar dam, Nazar bar qadam, Safar dar vatan, xilvat dar anjuman.

“Xush dar dam” demog‘ni ma’nosи shuki, ichkaridan chiqayotgan har bir nafas ogohlilik va huzur yuzasidan bo‘lishi kerak. G‘aflat unga hech qachon yo‘l topmasligi kerak. Kishining har bir tanasida ong, aql-idrok bo‘lmogi kerak.

“Nazar bir qadam”ning ma’nosи shuki, quyilgan har bir qadam nazardan chetda qolmasligi, ya’ni bosgan har bir qadamida diqqat, e’tibor bo‘lmog‘i kerak.

“Safar dar vatan” ning ma’nosи shuki, Solih (tariqat yo‘lida yuruvchi) odamiylikning tabiatida safar qiladi, ya’ni odamiylik sifatidan farishta sifatiga o‘tadi, yomonlik sifatidan yaxshilik sifati tomon ko‘chadi.

Ko‘pgina tariqatchilar ibtidoda ular safar qilib, birorta aziz xizmatida va uning huzurida muqim turadilar. Biroq o‘z yurtlarida shunday azizni topsalar tarki safar qilib, uning mulozimotida bo‘lishadi, malaka hosil qilganlaridan esa ularga safaru mushkinlik barobar bo‘lib qoladi.

Yusuf Hamadoniyning o‘limi va qabri haqida Alisher Navoiy shunday yozadi “...va andin so‘ngra Marv azimatiga murojaat qilganda, yo‘lda besh yuz o‘ttiz beshda favt bo‘ldi va ham andaki favt bo‘ldi dafn qildilar necha vaqtadan so‘ngra Marvgacha naql qildilar va mozori Marvdadur”.

V.V.Bartolid «Yusuf Hamadoniy 1140 yilda vafot etib Marv atrofida dafn qilingan”, deb yozadi. Ogahiy o‘zining “Zubda tavorix” degan asarida “xon xazratlari yo‘l-yo‘lakay bayram Alixonning o‘rdasi bo‘lgan Morining eski qal’asiga to‘xtab o‘tdi va Xo‘ja Yusuf Hamadoniy. Sulton Sanjar, Ahmad Zamchi, Imom Maffar mozorlarini ziyorat qildi” deb xabar beradi. Shunday qilib, Yusuf Hamadoniy qabri O‘rta Osiyoning turli shahar va qishloqlarida mavjud bo‘lib, bu qabr va mozorlar aslida uning qabri bo‘lmashdan, uni haqiqiy qabri Marvda ekanligida shubha yo‘q.

3.So‘fizm (arabcha suf-jun so‘zidan olinib, so‘fi (jo‘npo‘sh degan ma’noni bildiradi). Sayfiddin Boharziy (1190 yil Xurosonning Boharz qishlog‘i - 1261 yil Buxoro) - kubroviylik tariqatining yirik namoyandasi, mutasavvuf va shayx, Xorazmda Najmiddin Kubrodan tasavvuf ta’limotini o‘rgangan va uning xalifasi sifatida keyinchalik Kubroviylik tariqatini rivojlantirishga hissa qo‘shgan. Sayfiddin Boharziydan Kubroviylikning hind shoxobchasi - Firdavsiya boshlanadi.

Sayfiddin Boharziy Hirot va Nishopur madrasalarida tahsil olgan, Makka va Madinaga safar qilgan, keyinchalik Xorazm va Buxoroda muqim yashagan.

Abdurahmon Jomiyning yozishicha, Sayfiddin Boharziy Najmiddin Kubro tomonidan Buxoroga yuborilgan va u bu erda 40 yildan ortiq yashagan. U mo‘g‘ullar bosqiniga qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Boharziyning xalq o‘rtasidagi kuchli nufuzidan cho‘chigan mo‘g‘ul hukmdorlari u bilan hisoblashishga majbur bo‘lishgan. “Tarixi Banokatiy” (XV asr) asarida keltirilishicha, mo‘g‘ul xoqonlari Munkexon (1251-60), Hulaguxon (1256-65), Xubilayxon (1260-94)larning onasi - Suyurko‘ktani beka (Tuluuning bevasi) Buxoroda Xoniya madrasasi va xonaqoh qurdirib, unga juda ko‘p qishloqlarni vaqf qilgan hamda shayx Sayfiddin Boharziyni mudarris va mutavalli etib tayinlagan. Mo‘varounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda shayxning o‘rni katta bo‘lgan. Oltin O‘rda xoni Berkaxon ham unga e’tiqod qilib, Buxoroga kelgan va pirga murid

tushib, Islom dinini qabul qilgan (XIII asrning o‘rtalari). Berkaxon musulmon bo‘lgach, o‘ziga Barakaxon nomini olgan va Shimoliy Kavkazdan to Sibirgacha cho‘zilgan ulkan davlati hududida Islom dinini joriy qilib, masjid va madrasalar qurdirgan. Bu voqeadan so‘ng Sayfiddin Boharziya “Shayx ul-olam” (Olam shayxi) unvoni, Buxoro shahriga esa, Buxoroi sharif maqomi berilgan. Sayfiddin Boharziy arab va fors tilida “Sharh al asmo al husno” (“Allohnning go‘zal ismlari sharhi”), “Risola dar ishq” (“Ishq haqida risola”), “Voqeai xilvat” (“Xilvatdagi voqeai”), “Ruboiyot”, “Ro‘znama”, “Vasiyatnama” va boshqa asarlar hamda to‘rtliklar yozgan. Sayfiddin Boharziy Fathobod mavzeida (Qarshi darvozasi ro‘parasida) dafn etilgan. Qabri ustiga maqbara qurilgan.

Xoja Porso ziyoratgohi - XV-XV asrlarda Buxoroda naqshbandlik tariqatining ta’siri juda kuchli edi. Naqshbandlik tizimi izdoshlari barcha mavjudodlarga muhabbat bilan qarashni targ‘ib qilgan. So‘fizm namoyandalari xalqni taqvodorlik va hokimlarga bo‘ysunishga chaqirganlar. Movarounnahrda so‘fizmning naqshbandlik oqimi yirik er egalari, ruhoniylarning ta’sirchan quroliga aylanadi. Ulug‘bek zamonida Buxoroda Muhammad Porso, Samarqandda Hasan Attor, Badaxshon va Chag‘oniyonda Yoqub Charxiy kabi shayxlarni ko‘rish mumkin. Bu davrda so‘fiynaqshbandiylar yo‘nalishida Xo‘ja Ubaydullo Ahror boshchilik qiladi. Ruhoniylar vakillari, ayniqsa naqshbandiylar mamlakatning ma’naviy emas, balki siyosiy hayotida ham etakchi rol o‘ynaydi. Ular xalqni sevishga va oddiy hayot kechirishga chaqiradilar.

Xoja Porso 749 (1348) yilda Buxoro shahrida tug‘iladi. Xoja Muhammad Porso Xoja Bahouddin Naqshbandiyning ikkinchi xalifasidir. Tojik, fors va arab tillarida bir necha asarlar muallifidir. Ayniqsa, so‘fizm ta’limotini rivojlantirish sohasida maxsus asar yozgan, tarixga doir “Fasl ul Xitob” degan asari borligi haqida Muhammad Ibn Tolut Hamadoniy hikoya qiladi. Uning o‘scha kitobidan keltirilgan rivoyatlarida shunday xulosa chiqarish mumkinki: bu kitob ko‘prok tarixdan ko‘ra ilohiyot donishmandlari tarixi bo‘lsa kerak. Afsuski, bu kitob bizning zamonamizgacha etib kelmagan. Darveshizm markazi bo‘lgan Buxoro ruhoniylari Ulugbek va uning tarafdarlariga qarshi siyosiy kurash olib bora boshladilar, hatto ular Ulug‘bekka qarshi isyon ko‘tarishgacha borib etdilar. Bu isyon va siyosiy kurashlar boshida Xoja Porso turgan edi. Chunki,

o'sha paytlarda Buxoroda eng ulug' shayx Muhammad Porso xo'ja edi. Muhammad Xo'ja Porso Sulton Xalilni taxtdan ag'darilishi tashkilotchilaridan biri edi.

Xojagon-naqshbandiya ta'limoti o'zining salkam 900 yillik tarixi davomida islom olami va umuman, insoniyatga ulkan bir ma'naviy merosni taqdim etgan. Ushbu tariqat zamirida etishib chiqqan piru murshidlar, ulug' mutasavvif va mutafakkirlarning ibratli hayoti, din va dunyo, olam va odam, ilm va ma'rifikat, ishq va muhabbat haqidagi qarashlari, turli ilmlar va mavzularga bag'ishlangan ilmiy-adabiy asarlari islom tafakkuri tarixida o'ziga xos o'rinn tutadi.

Tasavvuf ta'limotining nazariyotchilaridan, Xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik vakili Xoja Muhammad Porso nomi bilan mashhur bo'lган Muhammad bin Muhammad bin Mahmud al-Hofiziy al-Buxoriy (vaf. h.q. 865/ m.1420 y.) ham ana shunday ulug' siymolardan biri hisoblanadi.

Jomiy Xoja Bahouddin Naqshbandning Xoja Muhammad Porsoga xalifalik, ya'ni o'rindbosarlik maqomini berayotgan chog'ida nimalar deganini quyidagicha bayon etadi: "Xojayi buzurg (Bahouddin Naqshband) quddisa sirrahu, u kishi (Xoja Porso) haqida ashob (suhbatdoshlar, muridlar) huzurida shunday degan ekanlar: "Xojagon xonadonining xalifalari - quddissallohu ta'olo asrorahumdan - bu zaif (faqir)ga etgan va u kasb etgan haq va omonatni Sizga topshirdim, chunonchi diniy birodarimiz Mavlono Orif (Xoja Orif Revgariy) bizga topshirganidek, ushbu omonatni qabul etmoq va Haq subhonahu xalqiga etkazmoq lozim". U kishi (Xoja Porso) tavozo“ bilan qabul etdilar".

Jomiy bergen ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Xoja Bahouddin Naqshband Xoja Muhammad Porso shaxsiga nisbatan katta ishonch va e'tibor bildirgan bo'lib chiqadi. Ammo, shunga qaramay, Xoja Bahouddin Naqshband vafotidan so'ng naqshbandiyaning silsilai sharifi Xoja Muhammad Porso orqali emas, balki Xoja Alouddin Attor orqali davom etadi. Bizningcha, o'ziga xos ijtimoiy sabablarga ega bo'lган ushbu holat, afsuski, haligacha ilmiy echimini topganicha yo'q. Faqat hozircha Xoja Porso amaliyotchi shayx emas, balki ko'proq nazariyotchi mutasavvif bo'lганligi va umrini asosan ta'lifu tasnif bilan o'tkazganligi sababli silsilai sharifga kirmagan, degan bir taxminni o'rtaga tashlash mumkin. Nima bo'lган taqdirda ham, Xoja Bahouddin Naqshbanddan so'ng Xojagon-

naqshbandiya tariqati ikki yo‘nalishga ajralib ketdi. Birinchi yo‘nalish Xoja Alouddin Attor orqali Xoja Yoqub Charxiy (vaf. h.q.851)ga, undan Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiy (vaf. h.q. 895)ga borib taqalsa, ikkinchi yo‘nalish Xoja Muhammad Porso orqali uning o‘g‘li - Abu Nasr Porso (vaf. h.q. 865)ga, undan Nizomiddin Xomushga, undan esa Hazrati Jomiyning murshidi - Shayx Sa’diddin Qoshg‘ariy (vaf. h.q. 860)ga etib, keyingi davrlarda ahroriya, xilvatiya, kumushxonaviya va mujaddidiya kabi bir qancha tarmoqlar va shu’balarga bo‘linib ketdi.

Xoja Muhammad Porso yashagan davr Xojagon-naqshbandiya tariqatining o‘ziga xos sayru suluk va qonun-qoidalar (usuli yozdahgona)ga ega mukammal bir diniy-irfoniy ta’limot darajasigacha ko‘tarilgan davrga to‘g‘ri keladi. Agar Xoja Yusuf Hamadoniy va Xoja Abdulkholiq G‘ijduvoniidan boshlab to Xoja Bahouddin Naqshbandgacha bo‘lgan davr davomida Xojagon-naqshbandiya tariqatining markaziy faoliyat doirasi Buxoro va uning atrofi bilan cheklangan bo‘lsa, Xoja Alouddin Attor va Xoja Muhammad Porso davridan boshlab uning jug‘rofiyasi Samarcanddan Toshkent va Qoshg‘argacha, Termizdan Balx, Hisor va Hirotgacha kengayib bordi. Naqshbandiya ta’limoti jug‘rofiyasingning kengayishida ham Xoja Porsoning katta hissasi bor. Chunki u birinchidan, donishmand va o‘ta qobiliyatli farzandi - Abu Nasr Porsoni o‘zining xalifasi sifatida Balxga jo‘natib, naqshbandiylikni Mavarounnahrning janubiy hududlaridan tortib Xurosonning shimoliy hududlarigacha keng qanot yozishiga yo‘l ochib bergan bo‘lsa, ikkinchidan, o‘zining diniy-irfoniy asarlari, qolaversa, o‘zining ma’lum darajada Naqshbandiya va vahdat ul-vujud ta’limotlarining qorishmasidan hosil bo‘lgan falsafiy-irfoniy dunyoqarashi orqali ham bu ta’limotning butun mintaqasi bo‘ylab yoyilishiga ulkan hissa qo‘shdi. Uchinchidan, ba’zi bir manbalar, jumladan, “Rashahot ayn ul-hayot”da Naqshbandiya silsilasining davr hukmdorlariga ta’sir etkazishi Xoja Muhammad Porsodan boshlangani haqida ma’lumot berib o‘tadi.

Xoja Porso Ibn al-Arabiyning vahdat ul-vujud ta’limotini Naqshbandiya tariqatiga olib kirgan ilk mutasavvif edi. Aynan u boshlab bergan va ko‘p o‘tmay Mavlono Jomiy tomonidan davom ettirilgan ana shu faoliyat tufayli Naqshbandiya tariqati “vujud”, “vojib al-vujud” va “tajalliy” haqidagi qizg‘in falsafiy-kalomiy-irfoniy bahslar bilan yanada boyidi.

Eronlik olim Ahmad Tohiriy Iroqiy ta'biri bilan aytganda, “Xoja Porso naqshbandiya tariqatida ilmiy-tadqiqot usulini boshlab bergen” ilk mutasavvif edi. Xoja Porsoning yuqorida zikr etib o‘tilgan eng muhim asarlaridan biri “Fasl ul-xitob”ni har ikkala ta’limot - Naqshbandiya va vahdat ul-vujudning turli diniy, irfoniy, falsafiy, kalomiy va axloqiy mavzulardagi nuqtai nazarlarini o‘zida aks ettiruvchi asarlari sirasiga kiritish mumkin.

“Fasl ul-xitob” Xoja Porsoning ko‘pgina asarlari singari asosan fors-tojik tili va qisman arab tilida yozilgan. Ham hajm, ham mazmun-mundarija va o‘rtaga qo‘yilgan masalalar jihatidan keng qamrovli bo‘lgan ushbu asar Xoja Porso ilmiy merosida alohida o‘rin tutadi. Asarning to‘la nomi “Fasl al-xitob li vasl al-ahbob al-foriq bayn al-xato va-s-savob” bo‘lib hisoblanadi. Asarni nashrga tayyorlagan eronlik manbashunos olim Jalil Misgarnajodning aniqlashicha, “Fasl ul-xitob” ta'biri mufassirlarning tafsirlarida turlicha izohlangan. Jumladan, Zamaxshariyning “Tafsiri kashshof” ida bu ibora “...haq va botil, to‘g‘ri va xato oralig‘i” ma’nosida ham ishlatilgan ekan.

Tayanch iboralar: Hasan Basriy, Jeloniy, Zinda fil Ahmadi Jomiy, Abdul Hamid G‘azzoliy, Xoja Yusuf Hamadoniy, So‘fi Olloyor, qadamjo, tasavvuf, sufizm, murid, shayx.

Savollar:

1. So‘flikda ruhiy kamolotga erishishning asosiy yo‘llari nechta va nimalardan iborat?
2. Shayx Abu Yusuf Yoqub bin Ayyub Hamadoniy haqida so‘zlab bering.
3. Robi'a al Adaviya qadamjo qaerda joylashgan?
4. Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad Al G‘azzoliy nechinchi yil va qaerda tug‘ilgan?
5. Sayfiddin Boharziyning ilmiy merosi nimalardan iborat?

Manba va adabiyotlar

1. Narzulla Yo‘ldoshev Buxoro avliyolarining tarixi. Buxoro.-1997. 144-b
2. Sadriddin Salim Buxoriy Buxoroning tabarruk ziiyoratgohlari. Buxoro. Durdona. 2012. 291-b.
3. Najmiddin Komilov Tasavvuf. Toshkent. 2009. 447-b.
4. Ahmad Muhammad Tursun Abu Homid G‘azzoliy. Toshkent. Qaqnus media. 2017. 108 b.

5. M.F.Norovan Sayfiddin Boxarziy. Durdona. Buxoro –
2020.56-b

9-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO VAHASI QADAMJOLARINING QAYTA TIKLANISHI

Reja:

1. Mustaqillik davrida muqaddas qadamjolarni qayta tiklash borasidagi sayi harakatlari
- 2.Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Buxoroda ziyorat turizmni rivojlantirish borasidagi tashabbuslari

1.O‘zbekiston istiqlolga erishgach, ajdodlar qoldirgan boy madaniy merosni tiklash va yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Respublikamizda buyuk alloma va aziz avliyolarimiz muqaddas qadamjolarini ta’mirlash va obodonlashtirish, ularning boy ilmiy-madaniy merosini o‘rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Imom Buxoriy, Imom Termizi, Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy singari benazir allomalarining muborak nomlari qayta tiklanib, ularning merosini o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Masjidi Kalon, Shohi Zinda, Ko‘kgumbaz kabi ko‘plab masjid va madrasalar qayta ta’mirlandi. Bu o‘zgarishlar xalqaro jamoatchilik tomonidan e’tirof etilmoqda va yuqori baholanmoqda.

Islom konferensiyasi tashkilotining tuzilmalaridan biri bo‘lgan Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi O‘zbekiston, xususan uning poytaxti islom sivilizatsiyasi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega ekanidan yana bir dalolatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagagi “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori muqaddas maskanlarni saqlash va qadrlash, xalqimiz ongida ajdodlar xotirasiga hurmat-ehtirom tuyg‘ularini shakllantirish bilan birga, har bir qadamjo va ziyoratgohni

obodonlashtirish, yanada fayzli, tarovatli go'shaga aylantirish, bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

2020 yilda ISESCO (ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha nufuzli xalqaro tashkilot) xalqaro tashkiloti tomonidan "Buxoro shahri - Islom olami madaniyati poytaxti" deya e'lon qilingan. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2019 yil 4 apreldagi, respublika Madaniyat vazirligining 2019 yil 4 iyundagi xatlariga muvofiq chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqilgan.

Dasturga binoan, "Buxoro - Islom olami madaniyati poytaxti" deb nomlangan kitob-albomini uch tilda - o'zbek, ingliz va arab tillarida chop etish vazifasi Respublika Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markaziga topshirilgan.

Ma'lumot uchun: Islom Hamkorligi tashkiloti (IHT) o'z tarkibida 57 ta mamlakatni jam etgan, xalqaro miqyosdagi muhim va dolzarb masalalarni hal qilishda ta'siri va ahamiyati tobora ortib borayotgan nufuzli tashkilotdir. Uning tarkibidagi muassasalardan biri - Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) har yili tashkilotga a'zo Osiyo, Afrika va arab davlatlari shaharlarini "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qiladi.

2005 yildan buyon yo'lga qo'yilgan ushbu an'ana musulmon dunyosidagi muayyan shaharlarni islom madaniyati poytaxtlari deb e'lon qilishi musulmon mamlakatlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish, islom madaniyatiga oid ilmiy - ma'rifiy, tarixiy - me'moriy merosni o'rganish, tiklash hamda targ'ib qilish, dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirish, turli mamlakatlarning bu boradagi sa'y-harakatini qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishni maqsadini ko'zlaydi.

Bu olamshumul voqeа respublikamizda va xorijda katta qiziqish uyg'otdi, xalqimizga, ilmu fan vakillari hamda ziyolilarimizga alohida g'urur bag'ishladi. Qabul qilingan tartibga muvofiq, Islom hamkorlik tashkiloti har yili musulmon mamlakatlaridagi 3 ta shaharni "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qiladi. Ularning biri arab mamlakatlaridan, boshqasi Osiyo va uchinchisi Afrikadagi musulmon mamlakatlardagi shaharlardir. Quvonarlisi ushbu rejaga asosan 2020 O'zbekistonning qadimiy Buxoro shahri ham shu kabi yuksak e'tirofga loyiq ko'rilib, "Islom olami madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi nazarda tutilgan. Bu ish bir tarafdan tariximizga berilgan

munosib va yuksak baho bo'lsa, ikkinchi tarafdan har bir vatandoshimiz, millatimiz, xalqimiz uchun ham g'urur, hamda sharaf desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Sana munosabati bilan e'lon qilingan xabarlardan birida, "Aslida Buxoroi sharif bir necha asrlar davomida Islom madaniyati poytaxti bo'lib kelgan. Uning "Qubbatul Islom", ya'ni "Islom gumbazi" deb nomlangani ham bejiz emas. Tashkilot tomonidan ushbu shaharning Islom madaniyati poytaxti deb e'tirof etilishi asrlar davomida ushbu shahar va undan chiqqan olimlarning islom sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini yana bir bor tasdig'i hisoblanadi", - deb ta'kidlangan.

Aytib o'tish joizki, islom olamidagi ettita sharif sanalgan shaharlardan biri Buxoroi sharifdir. SHarqda qadimdan "Samarqand sayqali ro'i zamin ast, Buxoro qubbati dini islom ast", deb bekorga aytilmagan. Buxoroi sharifni e'zozlab dunyoning juda ko'p shoirlari, olimlari, mutafakkir va mutassavif donishmandlari, sayyohu elchilar, tarixchilar hamda geograflar qimmatli asarlar yaratgan.

Buxoroning dovrug'ini islom olami bo'ylab, qolaversa, butun dunyoga keng taratgan etti buzrugvor pir 1103 va 1389 yillar oralig'ida, XII-XIV asrlarda birin-ketin, navbatma-navbat boshqarganlar va bag'oyat xayrli faoliyatlarni amalga oshira olganlar. Bu davr, ma'lumki, Movarounnahr va Xurosonda, butun Markaziy Osiyodagi keng va ulkan musulmon mintaqasida mo'g'ullar zulmi va istibdodi barham topib, Movarounnahrda ulkan va qudratli temuriylar saltanati dadil qad ko'tarayotgan ajoyib bir ma'naviy hamda madaniy uyg'onish davri edi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarida o'rta asrlar Markaziy Osiyo tasavvuf tarixi va allomalarining ma'naviy meroslari hamda ularning nomlari bilan bog'liq ziyoratgohlar tarixiga oid tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida asosiy maqsadni, ya'ni xalqlar, millatlar o'rtasida totuvlik, barqarorlik o'rnatish, islom dini va tasavvufning tub mohiyatini anglash, insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etishni ifoda etadi. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tasavvuf allomalarining ilmiy va ijodiy faoliyatini chuqur o'rganish va targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, o'rta asrlarda yashagan buyuk allomalarimizning muqaddas qadamjolari, tarixiy meroslarini, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotda tutgan o'rnini o'rganish, targ'ib etish va ilmiy yangiliklarining amaliyotga joriy

etilishi Respublika turizmini rivojlantirish hamda O‘zbekiston tarixi fanidagi dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda turizm sohasining bosqichma-bosqich rivojlanib borishi natijasida yurtimiz dunyo sayyoohlarining nigohida eng go‘zal maskanlardan biriga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimizning qaysi hududida muzey qo‘riqxonalar tashkil etilgan bo‘lsa, buning evaziga o‘sha joylarda xorijiy sayyoohlilik ishlari (Buxoro, Samarqand va Xorazm muzey qo‘riqxonalarini misolida) tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu sohani tartibga soluvchi zarur huquqiy me’yoriy asoslar yaratilganligi bois, uning infratuzilmasini rivojlantirish yo‘lida milliy qadriyatlarni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, madaniy meros ob’ektlarini tiklash yoki ta’mirlash, ularning atroflarini obodonlashtirish bo‘yicha tizimli hamda keng miqyosli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugun yurtimizda sayyoohlilik ko‘lami va tarixiy qadamjolar ko‘pligi bo‘yicha dunyoda etakchi 10 talik mamlakatlar safidan joy olganligi ham kishini quvontiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5611-son, 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonlari, 2017 yil 24 maydagagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-2995-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda, shuningdek, ushbu yo‘nalishga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ishlarni amalga oshirishda ko‘plab amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, tabiatning rang-barang go‘zalligi, yurtimizning boy va qadimiy tarixi, xalqimizning bag‘rikengligi, yuksak fazilatlarga egaligi hamda ularning xushmuomala va mehmonnavozlik xislatlari turizmni rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Butun dunyodan yurtimizning barcha viloyatlariga tashrif buyurayotgan sayyoohlar uzoq o‘tmishdan hikoya qiluvchi qadimiy yodgorliklarga, xalqimizning betakror tabiatni va milliy qadriyatlariga katta qiziqish bildirayotganligi sir emas. Bugungi kunda quyi Zarafshon vohasi hududining ham boy tarixi, bugungacha saqlanib kelinayotgan nodir madaniy-tarixiy merosi ochilmagan qo‘riqdek o‘z muxlislarini kutmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng Hukumat tomonidan mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirish bilan bir qatorda, respublika aholisini ijtimoiy muhofaza qilish, aholining barcha qatlamlarini qamrab olgan izchil ijtimoiy siyosatni yuritish, ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Bunda eng avvalo, yurtimizdagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgoh maskanlarini obodonlashtirish hamda ta’mirlash borasida keng ko‘lamli ishlar, davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagи "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida"gi qarorining qabul qilinishi va tegishli choratadbirlar dasturining ishlab chiqilganligi, hududlarda hali o‘rganilmagan madaniy meros ob’ektlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. Muqaddas ziyoratgohlar Markaziy Osiyo xalqlari orasida azaldan mozorlar nomi bilan atalib, mahalliy muslimon aholining ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Mozor arabcha so‘z bo‘lib, “sig‘iniladigan muqaddas joy”, “ziyorat joyi” ma’nolarini anglatadi.

Ko‘plab tarixiy obida va yodgorliklar, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar hamda boshqa diqqatga sazovor joylarga ega Buxoro viloyati turizm eng rivojlangan mintaqalardan biri hisoblanadi. Qolaversa, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 19 maydagи PQ-2980-sonli “2017-2019 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahri turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori esa hududda sayyohlik industriyasini rivojlantirishda nihoyatda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Garchi Buxoro viloyati turizmni rivojlantirishning katta imkoniyatlari mavjud bo‘lsada, unda asosan tarixiy (obidalarni ko‘rish) va ziyorat turizmi rivojlangan xolos.

Buyuk ipak yo‘li markazida joylashgan O‘zbekiston sayyohlik ko‘لامи va tarixiy qadamjolari ko‘pligi bo‘yicha dunyoda etakchi 10 mamlakat qatoridan joy olgan. Mamlakatimizda to‘rt mingdan ziyod tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz, Navoiy shaharlari YUNESKOning jahon merosi durdonalari ro‘yxatiga kiritilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi 1993 yili Butunjahon turizm tashkiloti (BTT)-World Tourism Organization (WTO)ga a’zo bo‘lganini mamnuniyat bilan

ta'kidlash mumkin. Ma'lumki, mazkur muassasa turistik tashkilotlar rasmiy xalqaro ittifoqi merosxo'ri sifatida 1975 yilda tashkil etilgan. BMT bosh assambleyasi EKOSOS bilan kelishgan holda BTTni hukmatlararo tashkilot sifatida tan olgan. Uning tarkibiga 150 dan ortiq mamlakat, sayyoqlik uyushmalari va mahalliy turistik tashkilotlar kirgan. Butunjahon turistik tashkiloti shtab kvartirasi Madrid (Ispaniya)da joylashgan bo'lib, unda butun dunyodan turizm sohasida yig'ilgan 90 nafar mutaxassis ishlaydi. Navoiy viloyat hisoblash markazi tomondan keltirilgan ma'lumotlariga tayangan holda ushbu tashkilot ma'lumotiga ko'ra 2014 yilda dunyoda 1 milliard 87 million sayyoqga xizmat ko'rsatilgan.

Keyingi yillarda viloyatda yana bir tarixiy yodgorliklar majmuasi - "Etti pir" ziyyaratgohlarini obod qilishga e'tibor qaratildi. Xoja Abdulholiq G'ijduvoniy, Xoja Muhammad Orif Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitoniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, Bahouddin Naqshband nomlari bilan bog'liq tabarruk qadamjolar asl tarixiy holatida tiklanmoqda. Bu qadamjolarni ziyyarat qiluvchilar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Ayni paytda, bu ziyyaratgohlarni o'zaro bog'laydigan sayyoqlik yo'l xaritasi ham ishlab chiqilmoqda. Bu yo'l xaritasiga muvofiq sayyoq yoki ziyyoratchi "Etti pir" ziyyaratgohlari bilan to'la tanishish imkoniga ega bo'ladi.

Buxoro viloyatida qadimiy obidalarni, yodgorliklarni, ziyyaratgohlarni qayta tiklash borasida amalga oshirilayotgan bu ishlar ikki jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, yurtimizning tarixi tiklanadi. Ajdodlarimizdan qolgan noyob merosdan xalqimiz bahramand bo'ladi va tariximizga mehr-muhabbat, g'urur uyg'onadi. Ikkinchidan, o'lmas tarixni tiklash bilan turizmni yanada kuchaytirishga imkon tug'iladi. Shu ma'noda viloyatga sayyoqlar oqimi yildan-yilga oshib bormoqda. Aytaylik, 2019 yilning olti oyi ichida viloyatga tashrif buyurgan sayyoqlar 1,8 million nafarga etibdi. Xorijiy davlatlardan keladigan turistlar soni esa 223 mingtadan oshgan. Agar o'tgan yilning shu davrida bu ko'rsatkich 113,8 mingta bo'lgan bo'lsa, demak, bu xorijiy turistlar oqimi ikki baravarga oshganini ko'rsatadi. Buning natijasida sayyoqlarga xizmat ko'rsatish darajasini yuksaltirishga ham e'tibor berilmoqda. Shu sababli keyingi yillarda viloyat miqyosida 100 dan ortiq mehmonxonalar qurish rejallashtirilgandi. Hozirgi paytda Buxoro shahrida 72 ta yangi

mehmonxonalarini qurish ishlari boshlandi. “Etti pir” ziyoratgohlarida barpo etilayotgan mehmonxonalarining 4 tasi foydalanishga topshirildi. Boshqacha aytganda, Buxoro bugun dunyo ko‘z o‘ngida ham olis o‘tmish tarixi, ham zamonaviy qiyofasi bilan namoyon bo‘lmoqda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev ta’kidlaganlaridek: “Muqaddas qadamjolarimizni obod qilsak, yurtimizga baraka yog‘iladi” degan fikrlari bejizga aytilmagan. Davlatimiz rahbari mamlakatimizda, jumladan, Buxoro viloyatida muqaddas qadamjolar ko‘pligi, ularni ziyorat qilish yurtdoshlarimiz uchun ham qarz, ham ulkan saodat ekanini ta’kidladi. Yosh avlodni ajdodlarimizning ma’naviy merosi asosida tarbiyalash haqida so‘z yuritildi.

Shavkat Mirziyoev rejorashtirilgan qurilish ishlari mazmunan chuqur o‘ylanmaganini tanqid qildi. Allomalarimiz yubiley sanalarini ularga munosib tarzda, dunyo olimlarini jalb qilgan holda yuksak saviyada nishonlash zarurligini ta’kidladi. «Etti pir» maqbaralarini obod qilish, ularni bir yo‘l bilan bog‘lash loyihalarini takomillashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Alovida ta’kidlab, aytish kerakki, bugungi kunda ham tarixiy va diniy yodgorliklar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Davlatimiz rahbari Buxoro viloyatiga oxirgi tashrifini Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qilishdan boshlagan edi. Tashrif paytida, Buxoro viloyatida muqaddas qadamjolar ko‘pligi, ularni “ziyorat qilish ham qarz, ham ulkan saodat ekani” ta’kidlandi. Prezidentimiz rejorashtirilgan qurilish ishlari mazmunan chuqur o‘ylanmaganini tanqid qildi hamda Etti pir maqbaralarini obod qilish, ularni bir yo‘l bilan bog‘lash loyihalarini takomillashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘zbekiston bugungi kunda turizmni rivojlantirish va xorijliklarni mamlakat durdonalari sanalgan Buxoro, Samarqand va Xivaga jalb etish bo‘yicha misli ko‘rilmagan ishlarni amalga oshirmoqda. O‘zbekistonda turizmni tezkor rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Prezident farmoni qabul qilindi. Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasida 2019-2025 yillarda Turizmni rivojlantirish konsepsiysi va chora-tadbirlar rejasи tasdiqlandi. Buxoroning tarixiy qismida yoki Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “shaharning yuragida” ulkan bunyodkorlik ishlari amalga bo‘lganidan keyin qurilish ishlari amalga bo‘ldi.

oshirilmoqda. Bu erda haqiqiy o‘rtasrlar hunarmandlari mavzesi paydo bo‘ladi, Poyi Kalon va Mir Arab madrasalari qayta ta’mirlanadi, Haqiqat va Nurobod ko‘chalari kengaytirilib, turistlar uchun sayohat xiyobonlariga aylantiriladi. Shaharga kelgan turistlar bugundanoq mazkur hunarmandlar ko‘chasida bo‘lishlari, o‘zlari yoqtirgan buyumlarni xarid qilishlari, ustalarning qanday ishlashlarini kuzatishlari mumkin.

Bundan tashqari, bu yil Poyi Kalon majmuasidagi tarixiy yodgorliklar, Abdulazizzon, Ulug‘bek va Mir Arab madrasalari ta’mirlanadi. Buxoroning yana bir ramzi - Ark qal’asi ham yangilanadi. Bu erda inshootning ichki qismini ta’mirlash rejalashtirilgan. Viloyatda turizmni rivojlantirish konsepsiyasida 61 loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Buxoroda 44 mehmonxona, 10 park quriladi, zamonaviy turistik avtobuslar sotib olinadi, yangi sayohat turlari tashkil etiladi.

Haqiqatda ham, sayyoqlik iqtisodiyot tarmoqlarining yetakchi bo‘g‘inlaridan biriga aylanayapti, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buxoro viloyati esa bu borada benihoya katta salohiyatga ega. Birgina Buxoroda 660 ta moddiy madaniy meros ob’ekti ro‘yxatga olinganining o‘ziyoq juda ko‘p narsani anglatadi.

Buxoro shahrida yangi mehmonxonalar, madaniy-ko‘ngilochar maskanlar va 500 kishiga mo‘ljallangan zamonaviy amfiteatr kabi ob’ektlarni o‘z ichiga oluvchi “Qadimiy Buxoro” turistik hududini barpo etish uchun 10 hektar yer maydoni ajratilib, xorijiy me’morlar bilan birqalikda loyihalash ishlari olib borilmoqda.

Buxoro shahridagi sobiq “Shahriston” bozori hududida hunarmandlar markazini qurish, muqaddas qadamjolar - Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni, Xoja Orif ar-Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshband va Chorbakr majmularida keng ko‘lamli qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilayapti. Hududning turistik salohiyatini yanada kengroq targ‘ib qilish maqsadida “Ipak va ziravorlar”, “Buxoro shahri kuni”, “Qovun sayli” va “Buxoro hunarmandlari” festivallari tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda viloyatga tashrif buyurayotgan sayyoohlarga sifatli transport xizmati ko‘rsatish maqsadida Buxoro shahri ichida va “Etti Pir” kabi ziyoratgohlarda transport qatnovlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoniy, Orif Revgariy, Ali Romitaniy, Boboyi Samosiy, Mahmud Fag'naviy, Sayyid Amir Kulol kabi me'moriy majmualarni o'z ichiga olgan etti pir ziyoratgohi nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk maskanlar hisoblanadi. Prezidentimizga mazkur majmualarni rekonstruksiya qilish va yangi sayyohlik yo'nalishlarini ochish bo'yicha qilinadigan ishlar haqida ma'lumot berildi. Unga muvofiq, bu majmualar qayta ta'mirlanib, qo'shimcha bino va inshootlar quriladi. Atrofi obodonlashtirilib, mehmonxona, choyxona, savdo majmualari, avtoturargohlar barpo etiladi. Mazkur majmualar o'rtasidagi umumiyligi masofa 122 kilometr. Shavkat Mirziyoev majmualar orasidagi yo'llar bo'yida zamonaviy infratuzilma tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma berdi. Buxoro davlat universiteti huzurida Buxoro tarixini o'qtadigan maxsus fakultet ochish kerakligini ta'kidladi. Etti pir yotgan qadamjolar orasidagi yo'llar bo'yida ular haqidagi ma'lumotlar aks etsin. Ziyoratga kelganlar keng ma'lumotga ega bo'lsin. Buning uchun kadrlar tayyorlashga e'tibor berish kerak, – dedi Prezidentimiz.

Joriy yilda Poyi Kalon majmuasidagi tarixiy obidalarni ta'mirdan chiqarish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi. Xo'ja Nurobod ko'chasida joylashgan Abdulazizzon va Ulug'bek madrasalarida ta'mirlash va tiklash ishlari amalga oshiriladi. Ark qo'rg'oni majmuasi atrofi obodonlashtirilib, uning ichkarisidagi bino va inshootlar ta'mirlanadi. Mir Arab madrasasini qayta tiklash va uning yangi o'quv binosini qurish ishlari olib boriladi. Shu ko'chaning o'zida hunarmandlar rastasi quriladi.

Jumladan, Prezidentimiz 2023 yilning 16 fevral kuni Buxoro viloyatiga tashrif buyurganida insoniyat tamadduni beshiklaridan bo'lmish ushbu zaminda ne-ne buyuk allomalar, diniy va dunyoviy ilm egalari yashab, ijod qilganini ta'kidlar ekan, ular mangu qo'nim topgan maskanlarni yanada obod etib, bu joylarda ziyoratchilar uchun zarur sharoitlar yaratish borasida mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi. Yurtboshimiz Etti pir - Abduxoliq G'ijduvoniy, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjur Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband me'moriy majmualari nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk maskanlar hisoblanishini qayd etar ekan, ularning zamon talablari darajasida rekonstruksiya qilinishi

O‘zbekistonga yangi sayyohlik yo‘nalishini ochishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.

Tayanch iboralar: mustaqillik, qadamjolar, ziyorat turizmi, Abduxoliq G‘ijduvoniy maqbara, turg‘unlik, istiqlol, qaror, etti pir.

Savollar

1. Sovet tuzimi davrida Buxoro vohasi qadamjolariga bo‘lgan munosabat qanday edi?
2. Mustaqillik davrida muqaddas qadamjolarni qayta tiklash borasidagi qanday ishlar olib borildi?
3. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan Buxoroda ziyorat turizmning rivojlantirish borasidagi qanday tadbirlar amalga oshirildi?
4. Sovet tuzumi davrida Etti pir qadamjolariga bo‘lgan munosabat?
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qachon qabul qilingan?

Manba va adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevraldagisi “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.
2. Yulduz Boboqulovna Tursunova O‘rtta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlar diniy idorasi tarkibining arxiv hujjatlarida aks etishi.O‘tmishga nazar.3 jild, 10 son.Toshkent-2020.b-62-68
- 3.Narzulla Yo‘ldoshev Buxoro avliyolarining tarixi.Buxoro.-1997. 144-b
- 4.Sadriddin Salim Buxoriy Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari.Buxoro. Durdona.2012.291-b.
- 5.Toji Qoraev Tanlangan asarlar. Alisher Navoiy nomidagi Uzbekistan milliy kutubxonasi. Toshkent — 2008.324-b

GLOSSARIY

MUQADDAS JOYLAR, QADAMJOLAR - dindorlar muqaddas deb hisoblaydigan va sig‘inadigan joylar. Bular - payg‘ambar, shayx, eshon, avliyolar nomi bilan bog‘liq hisoblangan va ziyoratgohga aylanib ketgan shahar, maqbara, chashma, daraxt, tepalik, gor va boshqalar. Muqaddas joylar turli dinlarga e’tiqod qiluvchi hamma xalqlarda, ko‘pgina shahar va mamlakatlarda bor.

QADAMJO(Y) avliyolar qadami tekkan joy, Ziyorat qilish, sig‘inish uchun boriladigan, mo‘jizali, muqaddas deb sanaluvchi joy; ziyoratgoh.

PIR-fors-tojikcha bo‘lib, “keksa odam” ma’nosinibildiradi. Lekin tariqatda “pir” degani “ustod”, “yo‘l boshlovchi” ma’nolarini anglatadi.

SHAYX- so‘zi yoshi ulug‘ yoki mol, davlati, ilmi sabab katta ta’sirga ega kishilarga qo‘llaniladi, “murshid” so‘zлari ham qo‘llaniladi.

SIDDIQ - (arab. – “chin dildan tasdiq etib ishonuvchi”) - tasallallohu alayhi va sallamvufda payg‘ambarlikdan keyin turadigan eng yuqori valiylik martabasi. Bu martaba birinchi bo‘lib, xalifa Abu Bakr (ra)ga nasib bo‘lgan.

FIQХ (musulmon huquqshunosligi shariat qonun va qoidalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi, Islom ilohiyotining bir sohasi).

DIN (arab. - mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo‘ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo‘l tutish, odat qilish, e’tiqod qilish va b.). Qur’onda ham "D" turli ma’nolarda 100 dan ortiq marotaba ishlatalilgan. Dinda Allohnning mulki, hukmi, qiyomatdagi hisob-kitobi, osiylarni jazolashi, tadbir qilish bor. Shuningdek, Dinda bandaning bo‘ysunishi, itoat qilishi, ibodati, parhezkorligi, Alloh ko‘rsatgan yo‘lni tutishi, ma’lum ishlarni odat va e’tiqod qilishi kabi ma’nolar bor. Musulmon ulamolar mazkur ma’nolarni e’tiborga olgan holda Dinni "Sog‘lom aql egalarini ularning o‘z ixtiyorlariga binoan bu dunyoda salohiyatga, u dunyoda najotga eltuvchi ilohiy ko‘rsatmalar" deb ta’riflaganlar. Din aqida, shariat va tariqat bobidagi ilohiy ko‘rsatmalarning to‘plamidir. Aqida musulmon kishi imon keltirib ishonmog‘i lozim bo‘lgan narsalarni o‘z ichiga oladi.

DINIY JAMOA - diniy tashkilotlarning boshlang‘ich, asosiy va eng ommaviy turi. Diniy jamoalar dindorlarning ibodatda, diniy marosimlar va rasm-rusumlarda birgalashib ishtirok etishlari jarayonida ularning diniy ehtiyojlarini bevosita qondiradi. Muayyan jamoaga birlashgan dindorlarning diniy tasavvurlari, g‘oyalari, e’tiqodlari, belgi va ramzları bir xil bo‘ladi. Diniy jamoalar ijtimoiy hayotda va davlat bilan munosabatlarda mustaqil faoliyat ko‘rsatadi.

DINIY MAROSIMLAR - fuqarolarning diniy ta’limotlardan, ularning qonun-qoidalari va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlari. Diniy marosim har qaysi din vakillarining o‘z diniy ta’limotlari assosidan kelib chiqqan. Islom dinida aqiba, amri ma’ruf, xatna, ro‘za va ramazon hayiti, qurbanlik va kurbon hayiti, namoz, haj va b. marosimlar bor. O‘zbekistonda Diniy marosimning bemalol amalga oshinilishi ta’minlanadi, ammo ular qonunlarni, jamoat tartibini buzmasligi va shaxsga hamda fuqarolarning huquqiga daxl qilmasligi kerak. Diniy marosimda qatnashish fuqarolarning xususiy ishidir va hech qanday huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. Diniy marosimga amal qilinganlik haqidagi hujjatlar huquqiy kuchga ega emas. Diniy marosim ibodatxonalarda, diniy tashkilot muassasalarida, ziyoratgohlarda, qabristonlarda, fuqarolarning xonadonlari va uylarida o‘tkaziladi. Maxsus binolardan tashqarida Diniy marosim yoki ommaviy ibodatlar o‘tkaziladigan holatlarda bu hakda mahalliy hokimiyat ogohlantirib qo‘yilishi va bunday tadbirlar qat’iy tartibga rioya qilingan holda tashkil etilishi lozim.

DINIY TASHKILOT - diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko‘maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko‘radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o‘z-o‘zini boshqaruvchi uyushma. Ayni vaqtida fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan biri hisoblanadi. Ular o‘z ustav (nizom)lariga muvofiq tashkil topish va ish yuritish, xodimlarni tanlash, tayinlash va almashtirish huquqiga egadir. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Qonunida ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e’tiqod qilish, ibodat, rasm-rusmlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o‘quv yurtlari, masjidlar va b.) Diniy tashkilotlar deb e’tirof etiladi. Tegishli ustav (nizom) asosida faoliyat yurituvchi respublika

diniy uyushmalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI - O'zbekiston musulmonlariga rahbarlik qiluvchi diniy tashkilot. 1943 yilning 20 oktabrida Toshkentda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari qurultoyida ta'sis etilgan. Toshkentdagi Baroqxon madrasasida joylashgan. Bu tashkilot 1992 yildan Movarounnahr musulmonlari idorasi, 1996 yildan O'zbekiston musulmonlari idorasi deb ataladi. U davlatdan ajralgan mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Idora o'z hududidagi musulmonlar o'rtasida diniy ishlarni boshqarib turadi, fatvolar beradi, masjidlarga imom-xatiblar tayinlaydi, diniy xodimlar tayyorlaydi. O'zbekiston musulmonlari idorasi moddiy jihatdan musulmonlardan masjidlarga tushadigan xayrehsonlar, yordamchi xo'jaliklar va boshqalar hisobiga ta'minlanadi. Idora rahbar organi - Oliy Hay'at. Uning raisi muftiy hisoblanadi. Muftiy o'rribosar (noib)lari bor. O'zbekiston musulmonlari idorasida Masjidlar, Xalqaro aloqalar, Xayriya, Fatvo, Ta'lif va Muhtasiblik bo'limlari bor. Buxorodagi Mir Arab madrasasida (1945) va Toshkentdagi Buxoriy nomidagi Islom in-tida (1971) va bir necha diniy bilim yurtlarida kadrlar yetishtiriladi. Idora tasarrufidagi "Movarounnahr" nashriyotida "Islom nuri" gazetasi, "Hidoyat" jurnali, diniy adabiyotlar, diniy taqvim va boshqa nashr etiladi. O'zbekiston musulmonlari idorasi xorijiy mamlakatlardagi ko'pgina diniy tashkilotlar bilan aloqa qiladi. Idora har yili 3,5-4 ming kishining haj safarini uyuştirishda faol ishtirok etadi. O'zbekiston musulmonlari idorasi o'z faoliyatida

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga rioya qiladi. O'zbekiston musulmonlari idorasiga turli yillarda Eshon Boboxon Abdumajidxon o'g'li (1943-1957), Ziyovuddinxon Boboxonov (1957-1982), Shamsuddinxon Boboxonov (1982-1989), Muhammadsodiq Muhammadyusuf (1989-1993), Muxtorjon Abdullayev (1993-1997), Abdurashid qori Bahromov (1997 yildan) muftiylik qilgan.

HADD ("to'xtatish", "chora ko'rish") - Qur'on va sunnaga ko'ra, odob-axloq va jamoat tartibiga doir jinoyatlari uchun beriladigan jazolar: kufr, buzuqiliq, soxta guvoxlik, tuhmat qilish, ichkilikbozlik, ichirib mast qildirish, qimorbozlik, savdo qoidalarini buzish, qalloblik va boshqalar. Hadd ayrim shaxsga nisbatan emas, balki qonunga

qarshi sodir etilgan jinoyatga nisbatan qo'llanilgani uchun tomonlarning kelishuvi va avf etish mumkin emas va albatta Hadd ijro etilmoga shart. Hadd faqat sudning xukmi bilan beriladi va 40 dan 100 tagacha qamchi yoki kaltaklash bilan amalga oshiriladi, undan tashqari ibratli jazo turi (ta'zir) ham qo'llanilishi mumkin. Jazo o'tab bo'lingach, albatta tavba va kafforat to'lanadi.

HADIS (arab. - "xabar", "yangilik"), hadislar - Muhammad (sav)ning aytgan so'zлari, qilgan ishlari, ko'rsatmalari to'g'risidagi rivoyatlar. Ikki qismdan iborat bo'ladi: matn va isnod. Hadis ikki turga bo'linadi: 1. Hadisi qudsiy; 2. Hadisi Nabaviy. Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan yana uch qismga bo'linadi: 1. Sahih. 2. Hasan. 3. Zaif. Qur'oni karimda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiylar tarzda bayon etilgan. Ularga aniklik kiritish va izoxdab uqtirish uchun Muhammad (sav) o'z Hadislarini aytardi. Bu Hadislarni payg'ambarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilardi. Rasululloh (sav) hayotlik chog'larida sahobalarning Qur'oni karimga Hadislarni aralashtirib yuborishlaridan qo'rqib, Hadislarni yozishdan qaytarar edilar Rasululloh (sav) vafotlaridan so'ng Hadislarni nakd qilish odad tusiga kirdi. VII-asr o'rtalaridan boshlab ularni topib, Hadislarni ogizlaridan yozib olishga harakat qilingan. Bunda turkistonlik muhaddislar katta xizmat qilishgan. Islom olamida eng obro'li hisoblangan Hadis to'plamlari quyidagilar hisoblanadi: 1) "al-Jomi" as sahib" yoki qisqacha, "Sahih Buxoriy"; 2 "Sahih Muslim", 3) "Sunani Termiziy"; 4 "Sunani Abu Dovud"; 5) "Sunani Nasoiy"; 6 "Sunani Ibn Moja". Shuningdek, Ibn Hanbal musnadi ham katta shuhrat qozongan (yana q Hadis to'plamlari).

HADIS TO'PLAMLARI - hadisga doir kitob turlari. Ahli hadis istilohiga ko'ra, aqoidga taallukdi bo'lgan hadislar "Ilmi tavhid va sifat"; hukmga dalolat qiluvchi hadislar "Sunan"; ilmi suluk va zuhdga oidlari "Riqoq"; yeyish, ichish va kiyinish, o'tirish, turish va safar... odoblariga taallukli bo'lgan hadislar "Ilmul adab"; tafsir hadislari "Tafsir"; tarix va she'r hadislari goh "Ilmu Va'dil-xalq", goh "Siyrat"; asri Jalili nabaviydan so'ngra vujudga kelgan va kelajak fitnalarga doir bo'lganlari "Ilmul-fitan"; manoqib va musolaba, ya'ni shaxslar, qabilalar, shaharlar va b. shu kabilarning maqtovi yoki aybloviga doir xabarlar "Ilmul-manoqib" deb ataladilar. Bu boblarning sakkizalovini ham jamlagan "Sahih Buxoriy" kabi kitoblarga "Jomi" nomi berilgan. Imomi Termiziyning kitoblari esa, ham "Jomi", ham

"Sunan" deyilgandir. Sahoba ismlari maxsus tartibga solinib, har biridan rivoyat qilingan hadislar jamlangan bo'lsa, unday kitob "Musnad"; muallifning keksalari hurufi hijo (alifbo) tartibiga qo'yilib, Islom Ensiklopediyasi www.ziyouz.com kutubxonasi 92 har birining yo'li bilan muallifga yetib kelgan rivoyatlarni to'plagan kitob "Mujam" deyiladi. Hadis kitoblarining yana ko'p xillari bo'lsa ham, eng muhim turlari shulardir.

HADISI QUDSIY - ma'nosi Alloh taoloniki bo'lib, aytilishi Rasululloh (sav)dan bo'lган hadislar. Shuningdek, "Hadisi Rabboniy", "Hadisi ilohiy" deb ham aytildi.

HAYIT (arab. iyd - bayram) musulmonlarning diniy bayrami. Islom an'anasa ikkita Hayit rasman diniy bayram sifatida nishonlanadi: katta Hayit yoki qurbon Hayit (arabcha iyd alkabir, iyd al-adho) va kichik Hayit yoki ro'za (arabcha iyd as-sag'ir, iyd al-fitr). O'zbekiston mustaqillikka erishgach, qurbon Hayiti ham, ro'za Hayiti ham umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

HALOL ("erkin", "bog'lanmagan", "tugunni yechish") - 1) Ruhsat berish; farz, mandub va muboh tushunchalariga kiruvchi ruhsat etilgan xatti-harakatlar; man etilgan xattiharakatlar (harom)ning ziddi. Halol haqidagi masalalarni fiqhning ahkom bo'limi o'rganadi. Shariatda esa, haromlik tuguni yechilgan, ya'ni haromlik sifati yo'q narsaga, Halol deb aytildi. Musulmon odam uchun halol narsani talab qilish, haloldan molu mulk topish farzdir. Musulmon inson o'zi halol bo'lган narsani, shariatda halol qilingan yo'l bilan topib foydalanishi kerak. Shariatda halol hisoblangan narsani harom deb e'tiqod qilgan odam kofir bo'ladi. 2) Shar'iy nikoxdan o'tishlari mumkin bo'lган ayol yoki erkak. 3) Haj ziyoratidan qaytib kelib, sochlarini oldirgan va kundalik kiyim-boshini kiyib, ruhsat etilgan barcha odatdagi ishlar va kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lган kishi holati.

HAROM (arab. - man qilingan, taqiklangan) - shariatda hech qanday shubhasiz, ochiqoydin ravishda man qilingan narsa. Musulmon inson uchun haromdan hazar qilish farzdir. Alloh taolo mo'min-musulmonlarni harom - botil yo'l bilan birovning molini yeyishdan qat'iy ravishda qaytargan. Bir luqma H. taom yegan odamning necha kunlab duosi qabul bo'lmasligi ta'kidlangan. Musulmon inson H. yo'l bilan molu dunyo kasb qilishdan, xuddi cho'chqaning go'shtini yeyishdan hazar qilgandek, hazar qilish kerak. Harom yo'l bilan molu dunyo topgan odam ikki dunyoda sharmanda

bo‘ladi. Bu dunyoda azob-uqubat, turli balo-ofatlarga yo‘liqib, u dunyoda jahannam ichida turib, qorniga olovni taom o‘rniga yeydi.

GUNOH (forscha - jinoyat, ayb; asli shu ma’nodagi arab. “junoh” so‘zidan olingan) -shariat qonunlariga va diniy aqidalarga xilof ish yoki harakat. Islom dinida eng katta gunoh - shirk, ya’ni Allohn ni butunlay inkor etish yoki unga teng keladigan boshqa ilohiy kuchlar bor, deb e’tiqod qilish hisoblanadi va bunday gunohni Allah kechirmaydi.

IBODAT (arab. - qulluq qilish, bo‘ysunish, o‘zini past olish, itoat qilish) – xudoga sig‘inish, iltijo qilish. Musulmon ulamolari I.ni bir-biriga yaqin ma’noda turlicha ta’riflaganlar. Ibodat Allahga bo‘ysunish va unga o‘zini xokisor tutishning oliy darajasidir. Ibodat faqatgana Allohn ulug‘lash uchun Uning amriga binoan amal qilishdir. Ibodat Allah yoqtiradigan va rozi bo‘ladigan so‘zlar, ishlar va zohiriyl hamda botiniy amallardir. Allahga kurbat hosil qilish uchun niyat bilan qilinadigan barcha amallar Ibodatdir va hokazo.

HANAFIYLIK - sunniylikdagi diniy-huquq mazhablaridan biri. Abu Hanifa asos solgan. Undan keyin Hanafiylik mazhabi qoidalari Abu Yusuf Yoqub (795 y. v.e.), Muhammad ash Shaybon (804 y. v.e.), Quduriy (1036 y. v.e.) va boshqalar asarlarida ishlab chiqilgan. Bu mazhab tarafdarlari fiqhning to‘rt asosiy manbaini e’tirof etish (Usul al-fiqh) bilan birga boshqa oqimlar vakillariga nisbatan fiqh talablariga rioya etishning oqilona usullaridan kengroq foydalanadi.

HAFTIYAK (fors. - yettidan bir) - Qur’oni karimning yettidan bir qismi bitilgan kitob. Yosh qorilarga qulay bo‘lsin uchun Qur’on suralaridan bir nechtasi (13-14 ta) tanlanib, qiroat kitobi shakliga keltirilgan, uni talabalar oldingi davrda boshlang‘ich maktablarda darslik sifatida o‘qigan. O’tmishda Turkistonligi maktablarda xrestomatiya vazifasini o‘tagan birinchi qo‘llanma. Bolalar arab alifbosini o‘zlashtirganlaridan so‘ng o‘rgatilgan. Odatda H. 1-2 y. o‘qitilgan. H.dan so‘ng Qur’oni karimni o‘qishga o‘tilgan. Yosh talaba kichik suralardan ma’lum mikdorda yod olgandan keyin haftiyakni o‘qishga kirishish marosimini o‘tkazish odatga aylangan. Keyinga paytda Haftiyak o‘rniga bir yo‘la Qur’oni karimning to‘liq nusxasidan o‘qish va o‘qitish rasm bo‘lgan.

HAQQ ("asl", "haqiqiy", "haqiqat") - voqelik haqida bildirilgan fikr voqelikka to‘g‘ri: kelishini anglatuvchi termin; fikr ! mulohazalarning voqelikka mos kelishi sidq termini bilan ifodalangan.

Bu ikki termin ; ko‘pincha sinonim sifatida ishlatalgan, biroq qo‘llaniladigan joyiga qarab ularni farqlashgan: Haqq termini din yoki mazhabga ; ishontirish (akdda) uchun ishlataladi. Bunda uning ziddi - botil istilohidir.

HIDOYA (arab. - qo‘llanma; to‘la nomi "al- : Hidoya fi sharh al-Bidoya" - "Bidoya \ (kitobi)ning sharhi bo‘yicha qo‘llanma") - ; sunniylikning hanafiylik mazhabida keng tarqalgan shariat qo‘llanmasi (kodeksi). Qo‘llanmani Burhoniddin Marg‘inoniy 13 yil davomida yozgan. Uni yaratishda Burhoniddin Marg‘inoniy Qur’oni karim oyatlari, dastlabki 4 xalifa, sahobalar va tobeinlarning rivoyatlari, hadislar, sunniylik oqimidagi 4 mazhab asoschilarining asarlariga tayangan.

HIDOYAT (arab. - to‘g‘ri yo‘l) - haqiqiy e’tiqod yo‘lidan yurish. Zalolatning qaramaqarshisi. Hidoyat Alloh o‘z bandalari uchun ko‘rsatgan eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

HIJRIY YIL HISOBI - xalifa Umar ibn Xattob tomonidan joriy qilingan musulmonlar yil hisobi. Muhammad (sav) va safdoshlarining Makkadan Madinaga ko‘chishi (q. Hijra) bilan bog‘liq. Qamariy (hijriy-qamariy yil) va shamsiy (hijriy-shamsiy yil)ga bo‘linadi. Qamariya bo‘yicha Hijriy yil hisobi 622 y.ning 16 iyulidan boshlanib, sinodik oy (29, 530588 kun)ga asoslangan. 12 oydan iborat bir qamariy yil 354,3671 kundan iborat. Qamariy yidda 1, 3, 5,-7, 9 va 11-oylar 30 kundan qolganlari 29 kundan butun qilib olingan, Oylar tartibi bilan muharram, safar, rabiul avval, rabiul oxir, jumodil avval, jumodil oxir, rajab, sha’bon, ramazon, shavvol, zulqa’d, zulhijja deb ataladi. Qamariy yil tropik yildan (hoz. figoriy taqvimidan) 10-12 kun qisqa. Agar grigoriy taqvimida oddiy yil, qamariy taqvimda esa, kabisa yili bo‘lsa. ularning farqi 10 kun, ikkala taqvimda oddiy yoki kabisa yillari bo‘lsa, farqi 11 kun. qamariy taqvimda oddiy va grigoriy taqvimida kabisa yili bo‘lsa, ularning farqi 12 kun bo‘lib, oylar, fasllar bo‘ylab qishdan kuzga, kuzdan yozga va shu tizimda surilib boradi.

HOKIM ("hal qiluvchi") - sudlanuvchi taraflar o‘zaro kelishuvga binoan isjni hal etish uchun murojaat qilishadigan xolis sudya (hakam). Hokimga qozi huzurida ish qo‘zg‘alguncha murojaat qilish tavsiya qilingan. Hokim hech qanday ijroiya hokimiyatiga ega bo‘lmagan, uning maqomi belgilanmagan, u hech kim tomonidan tayinlanmaydi, balki hayotiy tajribasi va obro‘-e’tiboriga ko‘ra, atrofdagilar tomonidan qo‘yilgan.

SHARIF (arab. - "olijanob", "aslzoda") -Muhammad (sav) avlodlarining nomiga qo'shiladigan hurmat so'zi. Sharif yana bir necha mo'tabar atamalarga sifat tarzida qo'shiladi. Masalan, hadisi Sharif, Buxoroyi Sharif, Kalomi Sharif, Quddusi Sharif, Mushafi Sharif va shu kabilar.

ILOHIY KITOBLAR - muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy ta'limotga ko'ra, Alloh o'tgan payg'ambarlarning ba'zilariga sahifalar, ba'zilariga esa, kitoblar nozil qilgan. 100 sahifa va 4 kitob - 100 sahifadan 10 sahifani Odam (as)ga, 50 sahifani Shis (as)ga, 30 sahifani Idris (as)ga, 10 sahifani Ibrohim (as)ga yuborgan. Muso (as)ga Tavrot, Dovud (as)ga Zabur, Iso (as)ga Injil va Muhammad (sav)ga Qur'oni nozil qilgan. Qur'onidan boshqa ilohiy kitob va sahifalar bir yo'la bir daf'ada nozil qilingan, deb hisoblanadi. Qur'on hazrat Jabroil orqali 23 yil mobaynida oyat-oyat, sura-sura shaklida yuborilgan. Diniy aqidaga ko'ra, Alloh bandalarining ruhiy va moddiy ahvollarini yaxshi bilgan holda har bir payg'ambarga uning ummatlariga munosib hukmlar bayon etilgan kitob va sahifalar yuborib turgan. Ular o'z davrida ummatlar uchun hidoyat manbai bo'lgan. Islom ta'limoti bo'yicha, Qur'oni karim Allohning qiyomatgacha hukmi o'zgarmaydigan, tillarda va dillarda saqlanib qoladigan oxirgi kitobidir.

ISLOM (arab. - bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) - jahonda keng tarqalgan uch din (buddaviylik va xristianlik bilan bir qatorda)dan biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha "muslim" ("islomni qabul qilgan", "itoatli", "sadoqatli"; ko'pligi "muslimun") deb ataladi. "Muslim", "muslimun" so'zining boshqa xalqlar orasida o'zgacha talaffuz etish (mas., forslarda - musalmon, o'zbeklarda - musulmon, qirg'iz va qozoklarda - musurmon, Ukraina va Rossiyada - basurman) natijasida bu dinga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bularning ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan. Jahonda qariyb 1,2 mld. kishi I.ga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20% idan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi (qita aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 35 tasida musulmonlar aholining ko'pchiligani tashkil qiladi - Shim. Afrika, Rarbiy Osiyoning barcha mamlakatlarida (Kipr, Livan, Isroil mustasno), Senegal, Gambiya, Niger, Somali,

Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va ba'zi mamlakatlarda aholining 80% dan ortig'i musulmonlardir; bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining yarmidan 80% igacha tashkil qiladi (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba'zi bir mamlakatlarda musulmonlar ozchilikni tashkil qilsa ham, ta'sir doirasi kuchli (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina Faso, Serra-Leone va b.)- Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik davlatlar - Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; musulmonlarning anchasi Xitoy, Tailand, Efiopiya, Tanzaniya, Kiprda, Yevropaning ayrim mamlakatlari (Yugoslaviya, Albaniya, Buyuk Britaniya, GFR,

Frantsiya va b.), Shim. va Jan. Amerika qit'asi mamlakatlari (AQSh, Kanada, Argentina, Braziliya, Gayana, Surinam, Trinidad va Tobago)da, Avstralaliyada, Fidji orollarida yashaydi. Islom VII-asrda Hijoz (G'arbiy Arabiston)da paydo bo'ldi. Uning asoschisi Muhammad (sav)dir. Islom dinining paydo bo'lishi xususida islom manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb hisoblanadi.

XIZR (as) (Xizir, Hazrati Xizr, Xizr buva, Xizr-Ilyos) - Qur'onda "Allohnинг quli" nomi bilan tilga olingan taqvodor zot. XIZR (as) odamlarda Allohga bo'lgan e'tiqodni mustahkamlash uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan payg'ambarlardan hisoblanadi. Rivoyatlarga ko'ra, XIZR (as) orollarda yashaydi, osmonda uchadi, hamisha dunyo bo'ylab kezib yuradi, har yili haj qiladi, juma kunlari Makka, Madina va Quddus shlaridagi masjidlarda namoz o'qiydi. Dengizda suzuvchilarga homiylik qiladi, maxsus duolar bilan chaqirilsa, yordamga keladi: suvga cho'kayotganlarni qutqaradi, yonginni o'chiradi, o'g'rilar xurujidan, jinlarning hiylalaridan, ilon chaqishidan xalos etadi va hokazo. So'fiylar XIZR (as)ni avliyolar piri sifatida e'zozlaydi. Hazrati XIZR (as) qadimdan xalqlar tasavvurida odamlar mushkulini oson qiluvchi, u bilan uchrashgan kishilarga baxt ato etuvchi xudojo'y qariyadir. Xudo yorlaqagan odamlargina XIZR (as)ga yo'liishi mumkin. Musulmon sharqi mamlakatlari, jumladan O'rta Osiyoda XIZR (as) nomi bilan bog'liq ko'plab . qadamjolar (mas., Hazrati Xizr masjidi va boshqalar) mavjud.

CHORYORLAR (forscha - to‘rt do‘st) - Muhammad (sav) vafotlaridan keyin arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki 4 xalifa (Abu Bakr Siddiq Umar, Usmon, Ali). Bu xalifalarni Choryorlar deb atash Eron, Afg‘oniston va O’rta Osiyodagi oddiy dindorlar orasida rasm bo‘lgan. Ch. arab tilidagi diniy manbalarda "xulafo ar-roshidin" ("to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar") nomi bilan tilga olinadi. Choryorlar xalifalikni boshqarish va kengaytirish, ko‘shti yerlarni fath etib islam bayrog‘i ostida birlashtirishga rahnamolik qilgan hukmdorlardir. Musulmonlar Choryorlarni "payg‘ambar noiblari" hisoblaydilar. Islom an’anasvda Choryorlar hukmronlik davri islomning oltin asri deb yuritiladi. Bu davr 30 yil bo‘lgan. Choryorlar zamonida Payg‘ambar (sav) boshlab bergen futuhotlar oxiriga yetkazilgan, davlat kurilishi mukammal bo‘lgan, islam yetib borgan o‘lkalarda barqarorlik o‘rnatalgan.

ISLOM BAYRAMLARI - musulmonlar nishonlaydigan va muayyan diniy marosimlar bilan o‘tkaziladigan mashhur kunlar. Ular ko‘pchilik musulmon davlatlarida rasmiy umum davlat ahamiyatiga ega. Qurbon hayit (iyd al-adha), ramazon hayiti (iyd al- fitr) asosiy Islom bayramlari hisoblanadi (q. Hayit). Hamma bayramlari hijriy yil hisobi bo‘yicha nishonlanadi. bayramlarini Payg‘ambarimiz (sav) quyidagicha ta’riflaganlar: "Har bir millatning o‘z bayrami

bor. Musulmonlar bayrami ro‘za va qurban bayramidir". Ammo isro va me’roj, rajab, ashuro, mavlud kabi kunlar umumiyo bo‘lmay, ularni nishonlash ixtiyoriydir.

Nishonlamaganlar ayblanmaydi. Shu bilan birga ular turli joyda turlicha nishonlanadi. Musulmonlar haftaning juma kunini "sayyid al- ayyom va haj al-masakiyn" (kunlar ulug‘I va miskinlar uchun haj deb) hisoblaydilar.

IBODAT (arab. - qulluq qilish, bo‘ysunish, o‘zini past olish, itoat qilish) - xudoga sig‘inish, iltijo qilish. Musulmon ulamolari Ibodatni bir-biriga yaqin ma’noda turlicha ta’riflaganlar. Ibodat Allohgaga bo‘ysunish va unga o‘zini xokisor tutishning oliy darajasidir. Ibodat faqatgana Allohni ulug‘lash uchun Uning amriga binoan amal qilishdir. Ibodat Alloh yoqtiradigan va rozi bo‘ladigan so‘zlar, ishlar va zohiriyl hamda botiniy amallardir. Allohgaga kurbat hosil qilish uchun niyat bilan qilinadigan barcha amallar Ibodatdir va hokazo. Fuqaholar Ibodatni tor doirada olganlar. Ularning nazdida namoz, ro‘za, haj, zakot, Qur‘on qiroati, zikr, xayri sadaqa kabi narsalar Ibodat

hisoblanadi. Shu ma'nodagi Ibodat jismoniy, moliyaviy va jismoniy-moliyaviy Ibodatlarga taqsimlanadi. Jismoniy Ibodatga namoz, ro'za kabilar kiradi. Moliyaviy Ibodatga zakot, sadaqai fitr kabilar kiradi. Jismoniy-moliyaviy Ibodatga haj, umra kabilar kiradi. Ibodat farz, vojib, sunnat, mustahab darajalarida bo'ladi. Farz Ibodatni inkor qilgan kofir, uni tan olib, amal qilmagan osiy bo'ladi. Vojib Ibodatni qilgan savob oladi, qilmagan gunohkor bo'ladi. Sunnatni bajargan savob oladi, bajarmagani itob qilinadi. Mustahabni qilgan savob oladi, qilmaganga hech narsa yo'q. Ibodatni ado qilishda boshqaning yordamidan foydalanish mumkin. Birovning yordami ila Ibodat qilish imkonи bor odam Ibodat qilishga qodir hisoblanadi va qilmasa gunohkor bo'ladi. Ibodat qilish uchun uning hammasini ado etishga niyat bo'lmog'i lozim.

Ba'zisini ado etishga niyat qilsa-yu, qolganiga niyat qilmasa Ibodat to'g'ri bo'lmaydi. Aqli raso bo'lman kishilardan Ibodat soqit bo'ladi. Uzrli kishilardan Ibodatlanish ba'zisi soqit bo'ladi. Masalan, bemor odam turishga qodir bo'lmasa, o'tirib namoz o'qiydi. Musofir odam to'rt rakaat o'rniga ikki rakaat namoz o'qiydi. Ibodatni ado etmaslik uchun hiyla qilish joiz emas. Masalan, namoz vaqtı yaqinlashganda uyqu dori ichib olib, uqlab qolib namozni o'tkazib yuboribman deyish. Zakot farz bo'lganda molining yarmini o'g'liga hadya qilib, molim nisobga yetgani yo'q, deyish kabilar. Ibodat ado etilayotgan paytda buzilsa, u boshqatdan ado etiladi. Agar Ibodat jarayonida uni tuzatish imkonи bo'lsa, tuzatib ham olish mumkin. Masasalan, namozni fosid qilmaydigan xato sodir bo'lsa, uni sahv sajdasi ila tuzatib olish mumkin. Ibodat ta'abbudiy va g'ayri ta'abbudiy (hikmati ma'lum va hikmati ma'lum emas) ga bo'linadi. Masalan, ro'za Ibodatining sabr, chidam, sog'liqqa foydasi kabi hikmatlari ma'lum. Ammo namozning nima uchun peshinda 4, shomda 3, bomdodda 2 rakaat farz bo'lganining hikmati ma'lum emas. Shunga o'xshash ta'abbudiy Ibodatlarni amr bo'lgani uchun hikmatini surishtirmay ado etilaveradi.

ILM al-HADIS, hadis, ilmi hadisshunoslik - hadislarni o'rganishga bag'ishlangan ilm sohasi. Soxta hadislar sonini ilk islom davridayoq oshib ketgani musulmon ulamolari orasida ularga nisbatan tanqidiy yondashish lozim ekanini ko'rsatdi. Muhaddislar muomaladagi soxta hadislarni asldan ajratish uchun ularni sinchiklab o'rganish zaruriyatini anglab yetganlar. Musulmon tankidchiligining 100

asosiy e'tibori hadisning mazmuni (matn)ga emas, balki roviylar zanjiri (isnod)ga qaratilgan, isnodning sifatli bo'lishi yetkazilgan ma'lumotning to'g'rilingiga kafolat hisoblangan, Muhaddislar uchun roviylar (ar-rijal) zanjiri (silsila)ni uzlusizligini belgilash muhim bo'lган. Roviylarning ismi, yashagan yshshari, tarjimai hollarini bilishga harakat qilganlar. Ularning imoni sofliги va axloqiy xususiyatlari alohida muhim ahamiyat kasb etgan. Roviylar haqida batafsil ma'lumot toplash va ularni tanqidiy o'rganish ILM al-HADISda alohida yo'naliш - ma'rifat ar-rijol ("roviylar haqida bilim")ni vujudga keltirgan. Bu bilimni har bir bilimdon muhaddis egallamog'i lozim hisoblangan. Roviylarni aniqlash maxsus lug'at yoki isnodlarda nomi zikr etilgan shaxslarning tarjimai hollari bitilgan tabaqot ko'rinishidagi ma'lumotnomalarning yaratilishiga olib kelgan. Bu turdagи asarlarning bizgacha yetib kelgani Ibn Sa'd (845 y. v.e.)ning "Kitob tabaqot al-kabir" asaridir. Shu bilan bir qatorda "zaif" hadis roviylari haqida ham ma'lumotnomalar yozilgan, mas., "an-Nasoiy" (915 y.v.e.)ning "Kitob ad-du'afa" asari. Hadislar tanqidi juda puxta bo'lган, shu munosabat bilan maxsus istiloxlar paydo bo'lган. Hadislar bir xil qiymatga ega bo'lmasdan, "sahih" (ishonchli), "hasan" (yaxshi) va "zaif" (kuchsiz) kabi turlarga bo'lingan. "Sahih" hadis deb to'liq, hech qanday uzilishsiz roviylari bo'lган, roviylarining imoni va fazilatlari hech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydigan hadislarga aytiladi. "Hasan" hadis deb, roviylari zanjirida uzilish bor bo'lган hadislarga aytiladi. Bunday hadislar garchi "sahih"lardan pastroq darajada tursa-da, har holda ilohiyot - huquqiy masalalarni yechishda qabul etilib, ulardan foydalanilgan. "Zaif" hadis deb hadisning mazmuni shubha tug'dirsa yoki roviylardan biri ishonchga noloyiq deb topilsa, shunday deb atalgan. Bunday hadislar faqatgina ulardan turli xildagi o'git-nasihat yoki yaxshi odob-axloqqa oid misollar keltirilgan holdagana qabul qilingan. Hadislar tanqidiga IX-asrning yirik allomalari, musulmon olamida eng ishonchli deb hisoblangan olti sahib hadis to'plamlarining mualliflari: Buxoriy (870 y. v.e.), Muslim (875 y. v.e.), Ibn Moja (886 y. v.e.), Abu Dovud as-Sijistoniy (888 y. v.e.), Termiziyy (892 y. v.e.) va Nasoiy (915 y. v.e.)lar katta hissa qo'shdilar.

BUXORIY, Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy) (810.21.7, Buxoro - 870.31.9, Samarkand yaqinvdagi Xartang qishlog'i) - islom olamining yirik

mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi. Otasi Ismoil o‘z davrining yetuk muhaddislarvdan, imom Molik ibn Anasning shogird va ashoblaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (sav)ning hadislarini o‘rganishga va yodlashga kirishadi.

Tanikli muhaddislar-al-Dohiliy, Muhammad ibn Salom al-Beykandiy, Muhammad ibn Yusuf al Beykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o‘z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoddirmasdan yozib olgan bo‘lishi va shundan keyingana boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o‘z yurtidaga mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo‘l oladi. 825 y. Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o‘zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko‘rsatayotgan mashoyixlarning ilmiy yig‘inida qatnashadi. 827 y. Madinaga boradi. Islom Ensiklopediyasi www.ziyouz.com kutubxonasi 64 Madinadagi mashxur ulamolardan Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo‘lib, ularidan hadislar bo‘yicha saboq oladi. Bu vaqtida Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar.

Shunday sharoitda Muhammad(as)ning hadislarini to‘plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Bir necha tarixchilarning ta’kidlashicha, Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan rixlati 6 yil davom etgan. So‘ng Basra, Kufa va Bag‘dodga safar qiladi. Shom va Misrga o‘tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Xirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo‘lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to‘pladi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ‘ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa’yu kushishlari bu vaqtida Buxoroda hukmdorlik qilgan Xolid ibn Ahmad az-Zuhliyga xush kelmaydi. Shu sababli Buxoriy Buxoroni tark etib, Poykendga, keyin esa, Samarqavd yaqinidagi Kartang qishlog‘iga kelib yashashga majbur bo‘ladi. Buxoriy butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma’naviy va moddiy jihatdan ko‘llab-quvvatlagan.

Tijorat qilganda topgan oylik daromadidan besh yuz dirhamdan faqiru miskin va talabalarga sarflagan. Shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymagan. Buxoriy umr bo'yи hadislarni to'plash va tizimga solish bilan shug'ullangan, ularni sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. Bu ishni hadis roviylarining maishiy hayotlari, yashash joylari, tug'ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan qilgan o'zaro muloqotlarini o'rganish bilan bog'liq holda olib borgan. Buxoriy jami 600 mingga yaqin hadis to'plagan bo'lib, shundan 100 ming "sahih" va 200 ming "g'ayri sahih" hadisni yoddan bilgan. Buxoriy o'zining noyob qobiliyati, iqtidori, quvvai-hofizasining o'ta kuchliliga bilan ilm ahllarini lol qoldirgan. Hadis ilmiga o'ta fidoyilik, aql-zakovatini baxshida etish B. ga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi. Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Buxoriyning "Al-Jomi' as-sahih" ("Ishonchli to'plam") deb nomlangan 4 jild (juz')dan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Shu jumladan o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991-96 yillarda 4 jildda nashr etildi (yana q. "Sahihi Buxoriy"). Buxoriy yaratgan "Al-Adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to'plamdir. 1322 hadis va xabar jamlangan bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Uning o'zbekcha tarjimasi 1990 y. Toshkentda nashr qilingan. Roviyarning kunyalariga bag'ishlangan "Kitob al-kunya" ("Kunyalar haqida kitob") 1940 y. Hindistonda chop etilgan. Buxoriyning "At-Tarix al-kabiyr" ("Katga tarix") kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo'lyozmasining ba'zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek, "At-tarix as-sag'iyr" ("Kichik tarix") ham hadis tarixiga oid qimmatli asar xisoblanadi. U Hindiston va Qohirada chop etilgan.

Buxoriy yaratgan "Kitob al-favoid" ("Foydali ashyolar haqida kitob"), "Al-Jome' al-kabiyr" ("Katta to'plam"), "Xalq af'ol al-ibod" ("Alloh bandalari ishlarining tabiat"), "Al-Musnad al-kabiyr ("Katta musnad"), "At-tafsir al-kabiyr" ("Katta tafsir"), "Kitob al-xiba" ("Xayr-ehson haqida kitob") asarlarning ba'zilari bizgacha etib kelmagan, ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor. Buxoriyning boshqa

asarlari orasida "Tafsir al-Qur'on" ("Qur'on tafsiri") kitobini ham alohvda ta'kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg'ambar (as) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Davlat va jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar. Istiklol sharofati bilan azaliy va adabiy qadriyatlarimiz qatori Buxoriyning o'lmas merosi elyurti bag'riga qaytdi, xalqimiz ongu tafakkurini ravshan eta boshladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buyuk muhaddis imom al-Buxoriy tavalludining 1225 (hijriy hisobda) yilligini nishonlash haqida"gi qarori (1997 yil 29 aprel) asosida Samarqandda yubiley to'ytantanalarini bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi (q. Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui). "Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o'rni" mavzuida xalqaro konferentsiya o'tkazildi. O'zbekistonda Buxoriy xotirasi munosib tarzda abadiylashtirilgan. Toshkent islom in-ti (oliy ma'had)ga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag'ishlab bir necha tillarda kitobalbom, 2 qismli film (1995), "Hadis ilmining sultonii" 4 qismli kino qissa (1998) yaratilgan.

G'IJDUVONIY Abdulkholiq, Xoja Abdulkholiq ibn Abduljamil G'ijduvoniy (1103 - 1179) - xojagon-naqshbandiya tariqatining asoschisi; buxorolik 7 pirning birinchisi. Xojai Jahon nomi bilan ham mashhur. Rijduvon (Buxoro yaqini)da imom oilasida tug'ilib, islomiy tasavvur va urf-odatlar muhitida tarbiya topdi. 22 yoshida Buxoroga keldi va Yusuf Hamadoniyning muridi bo'ldi. G'ijduvoniy dunyoqarashining shakllanishida malomatiylar ta'limoti va qalandarlik harakati ta'sir ko'rsatdi. U zohidlikda yashashni, shariat ko'rsatmalari, Payg'ambar sunnatlariga qatiy amal qilishni targ'ib etdi. U butun hayotini Allah yo'liga bag'ishlab, farz va sunnat amallarini bajarib, ibodatu riyozat bilan mashg'ul bo'ldi. Yusuf Hamadoniyning so'fiylik ta'limotini zikri xufiya (so'zsiz, fikriy zikr tushish) bilan boyitdi hamda xojagonlik tariqatining 8 ta rashha (qonun-qoida)sini shakllantirib berdi. Bu rashhalar har nafasni zoe ketkazmaslik, har qadamni to'g'ri bosish, azizlarning xizmatida bo'lish, har bir ishda Haq taoloni yoddan chiqarmaslik, tildan qo'ymaslik, niyatda mustahkam bo'lish kabilardir. G'ijduvoniy ta'limoti naqshbandiylik tariqatiga asos bo'lgan. Bahouddin

Naqshband G'ijduvoniyning axloqiy talablariga yana 3 talab qo'shgan. G'ijduvoniyning "Vasiyatnoma" risolasi Toshkentda 1993 yil chop etildi. Uning G'ijduvon shahridagi qabri tabarruk ziyyaratgoh hisoblanadi. Bizgacha "Risolayi odobi tariqat", "Risolayi sohibiya", "Vasiyatnoma" va boshqa asarlari yetib kelgan. 2003 yilda G'ijduvoniyning 900 yillik yubileyi nishonlandi. G'ijduvoniy yodgorlik majmuisi qayta ta'mirlandi.

Xo'ja Muhammad Orif ar-Revgari - XII asrning o'rtalarida Revgar qishlog'ida tug'ilib, buyuk murshid Abduxoliq G'ijduvoniyning muridi bo'lган. Buyuk ustozning vafotidan so'ng, u qolganlarga ruhiy murabbiy bo'lish uchun ruxsat olgan. Umrining oxirigacha faol diniy faoliyat bilan shug'ullangan. Baland ovozda zikr qilishni xush ko'rған. Xo'ja Orif 150 yil umr ko'rғanligi haqida afsonalar mavjud. U Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida dafn etilgan.

Xo'ja Maxmud Anjir Fag'naviy - eng buyuk so'fiy, murshid. Buxoro viloyatining Vobkent shahri yaqinida tug'ilgan. Hayot yo'lining boshlanishida hunarmand va duradgor bo'lган. Ilm olishning mashaqqatli yo'lini bosib o'tib, murshidlikka erishdi. Mahmud Anjir Fag'naviy "g'aflatda uxbab yotganlar uyg'onishi kerak" deb birinchilardan bo'lib zikrni baland ovozda o'qigan. U o'z ona qishlog'i Anjirbog'da dafn qilingan.

Xo'ja Ali Romitaniy – so'fiylik tariqatining xo'jagoniy yo'nalishi taniqli murshidi. So'fiyga xalq orasida «**Azizzon**» – aziz shayx nomi berilgan. XII asrning oxirida Romitan shahrida tug'ilgan. Butun hayoti davomida to'quvchilik bilan shug'ullangan. Ali Romitaniy amalga oshirish imkonini bo'lмаган ishni –mug'ullarni islom dinini qabul qilishiga erishdi. Mug'ullar istilosidan keyin yaroqsiz yerkarni tiklashga yordam bergan, tabiblik bilan shug'ullangan. Afsonaga ko'ra, so'fiy odamlarning fikrlarini o'qish qobiliyatiga ega bo'lib, unga savolga berishlaridan oldin javob qaytargan. Uzoq va taqvoli hayoti davomida uning ko'plab shogirdlari bo'lган, ularning orasida o'g'llari ham bor edi. Kichik o'g'li Xo'ja Ibrohimga o'z ta'limotini davom ettirishni vasiyat qilgan.

Xoja Muhammad Bobo Samosiy – Xo'ja Ali Romitaniyning shogirdi mashhur so'fiy. Xo'ja Samosiy so'fiylik rivojiga beba ho hissa qo'shgan, buyuk inson – **Muhammad Bahouddin Naqshbandning** dunyoga kelishini bashorat qilgan. Afsonada

aytilishicha, kunlarning birida, **Bahouddin**ning ona qishlog‘i **Qasri Hinduvon** yonidan o‘tayotib sofiyda kashf yuz bergan. U mazkur joyda so’fiylik va ma’rifatning buyuk farzandi dunyoga keladi, bu yerning nomi esa oriflar qishlog‘i bo‘ladi deb aytgan. Murshid 1354-yilda 95 yoshida vafot etgan. Muqaddas maqbara Romitan tumanining **Simas** qishlog‘ida joylashgan. Ushbu yerda ajoyib insonning o‘z ta’limotlariga monand ravishda **maqbara, masjid, quduq** va **go‘zal bog‘** barpo etilgan.

Sayid Amir Kulol diniy ulamo bo‘lib, yuzdan ortiq izdoshlarga ega edi, ular orasida **Bahouddin Muhammad Naqshbandiy** ham bor edi. U **Naqshbandiyni** so’fiylik asoslari, zikrni to‘g‘ri o‘qish va xo‘jagoniy tariqatining an’analari bilan tanishtirdi. O’sha paytlarda eng qadrli va aziz ruhiy o‘g‘lini ishonib topshirayotganligini anglab yetgan shayx **Xo‘jai Samosiy** ustozni **Buyuk murid** bilan tanishtirgan, degan fikr ham bor. **Sayid Amir Kulol** 1370-yilda o‘zining tug‘ilib o‘sgan **Suxar** qishlog‘ida dafn etilgan.

BAHOUDDIN NAQSHBAND, Muhammad ibn Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy (ko‘proq Bahouddin yoki Xoja Bahouddin Balogardon, Xo‘jai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur) (1318-1389) - mashhur avliyo, naqshbandiylik tariqatining asoschisi. Buxoro viloyati hoz. Kogon tumanidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘ilib, shu yerda vafot etdi. Bu qishloq keyinchalik Bahouddin Naqshband sharafiga Qasri orifon deb atalgan. Bahouddin Naqshbandning oilasi va farzandlari to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q. Uning Muhammad payg‘ambar avlodlariga mansub sayyidzodalardan ekanligi qayd etilgan. Otasi to‘quvchi hamda o‘yma naqsh soluvchi (naqshband) bo‘lgan. Bahouddin Naqshband hayotida bobosining alohida xizmati bor. U so’fiylar bilan yaqin aloqada edi. Shu sababli nabirasida ilohiyotga katta qiziqish uyg‘otdi. Bahouddin Naqshband Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, mavlono Orif, Xalil ota, Qusam Shayx kabi ustozlardan saboq oldi. Bahouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishlokarda so’fiylik bilan o‘tgan. U ikki marta haj qilgan. Raribona hayot kechirgan, faqat o‘z mehnati - dehqonchilik va keyinroq kimxobga naqsh (gul) solish bilan kun ko‘rgan. O‘z ta’limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abdulholiq G’ijduvoniyl g‘oyalariga asoslangan. Ta’limotining asosida "Dil-ba yor-u, dast-ba kor" ("Ko‘ngil Xudoda bo‘lsin-u, qo‘l ish bilan band bo‘lavserin")

degan shior yotadi. Bahouddin Naqshband tasavvufdagi ilgarilari amalda bo‘lgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi, mo’tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish ko‘ngil bilan amalga oshishi kerak. Qo‘l esa, ish - mehnat bilan band bo‘lavversin. Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, demakki, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo‘l silkimay turib ham Allohga yetishish mumkinligi haqidagi g‘oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta’miladi. Bahouddin Naqshbandning Buxorodagi qabri ziyoratgoh hisoblanadi. Bahouddin Naqshband va uning ta’limoti hamda naqshbandiy shayxlar to‘g‘risida talay asarlar yaratilgan. Birgana Uzbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik in-ti qo‘lyozmalar xazinasining o‘zida a naqshbandiylikka doir 195 kitob mavjud. Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi (1993) O‘zbekistonda keng nishonlandi. Unga bag‘ishlab qator asarlar nashr etildi, xalqaro ilmiy anjumanlar bo‘lib o‘tdi. Bahouddin Naqshband nomi bilan bog‘liq yodgorliklar qayta tiklandi.

BAHOUDDIN MAJMUASI - shayx Bahouddin Naqshband mozori yonidagi hazira - ansambl (Buxoro viloyati, 16-a.). Mozor Abdulazizzon buyrug‘i bilan tartibga solinib, hazira barpo etilgan va 1544-45 yillarda majmuuning eng katta binosi - xonaqoh qurilgan. Bahouddin Naqshband majmuasi daxmalar (Daxmai shohon va Bahouddin daxmasi), maqbara, 2 masjid, saqoxona, hovuz, quduq, minora, madrasa va Abdulazizzon xonaqohidan iborat. Majmua kichik gumbazli chortoq darvozaxonadan boshlanadi. Darvozadan o‘tgach, o‘ngda kichkina masjid, chap tomonda ziyoratchilar uchun turli binolar bo‘lganligi ma’lum. Yo‘l davomida chapda xonlar mozori - Daxmai shohon joylashgan. Daxmai shohon to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli, bal. 2,5 m, usti kulrang marmar bilan qoplangan. Unda marmar o‘ymakorligi, xattotlik san’atining ajoyib namunalari mavjud. Marmarlarga tokchalar, ustunchalar, sharafalar, sarv surati va boshqa bezaklar o‘yilgan; naqshlar ba’zida yozuvlar bilan aralash uchraydi. Daxmai shohondan o‘tgan yo‘lak nafis bezatilgan peshtoqqa olib keladi (peshtoqning ikki tabaqali eshigiga "bag‘dodi" va "guli nav" uslida naqshlar o‘yilgan). Peshtoqning eshididan o‘tilgach, o‘ngda gumbazli maqbara bor (unga kim dafn qilinganligi noma’lum). Chapda -kiraverishda 6 ustunli (soddagina), oldi ayvonli Muzaffarxon masjidi joylashgan.

Masjid yoniga 2 ustunli Hakim qo'shbegi masjidi tushgan (masjid mehrobida ajoyib mujassamotli namoyon bor). Uning jan.da naqshdor, shim.da naqshsiz ayvonlar bor. Bahouddin daxmasi marmar qoplangan kattagina murabba supa bo'lib, atrofi chiroyli marmar panjara bilan o'ralgan. Undan sal nari, shim.da - tomonlari 9,5 m keladigan aylana zinali marmar hovuz, uning shim. tomonida kichikroq, ko'rakm chortoq saqoxona bor. Bahouddin daxmasi bilan hovuz oralig'ida quduq, uning yonidagi chiroyli shiypondan qadimda ziyoratchilarga turli shaklli idishlarda "muqaddas" suv ulashilgan. Hakim qo'shbegi masjidining shim.da ko'rimsizgana bir minora, undan narida hovlidaga hovuzdan 3 baravar katta boshqa hovuz bor. Hovlining tashqarisi (shim.-g'arbi)da to'rtburchak supa ustida xonaqoh (eni 37 metr, bo'yi 40 metrli) qad ko'targan. Markazida atrofi peshtok, ravoqli ayvonlar bilan o'ralgan masjid, uning to'rvda chorzamin uslubda ishlangan qirma naqshli mehrob mavjud. Imoratning har ikki tomonida simmetrik qurilgan ikki qavatli kattakichik hujralar bo'lgan. B.m.ga undan 0,5 km shim.-sharkda joylashgan "Qasri Orifon" masjidi ham kiradi; uning yonida pastakkina minorasi bor. Masjid 3 tarafdan ayvon bilan o'ralgan; shipi naqsh tushirilgan hovuzaklik. Bahouddin Naqshband majmuasi XVI asr me'morliganing yangacha ansambl tuzishda erishilgan yutuqlardan namuna bo'lib, qo'sh binoli simmetrik ansambllardan farq qiladi. Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi (1993 yil) munosabati bilan majmua qayta ta'mirlanib, qo'shimcha binolar bunyod etildi (2003 yil).

BIBI MUSHKULKUSHOD (fors. - mushkulni oson qiladigan ayol) - diniy tasavvurlarga ko'ra kishini qiyinchiliklardan xalos etadigan avliyo ayol obrazi. BIBI MUSHKULKUSHOD haqidaga rivoyatlardan birida o'tin yig'ib yurgan chol o'rog'ini yo'qotib qo'yadi va uni qidirib BIBI MUSHKULKUSHOD yashaydigan g'orga kirib qoladi. BIBI MUSHKULKUSHOD cholga agar u xar haftaning chorshanbasida unga atab ziyofat o'tkazsa, o'rog'i topilishini va hozirgisidan ko'proq o'tin yig'ishi mumkinligani aytadi. Chol bu talabni bajaradi va ishi yurishib ketadi. Chol ehtiyyotsizlik qilib bir safar chorshanbani o'tkazib yuboradi va yana og'ir ahvolga tushib qoladi. Xatosini tuzatgach, yana ishi yaxshilanib ketadi. Rivoyatning musulmonlashtirilgan ko'rinishida BIBI MUSHKULKUSHOD so'fiylik tariqatlaridan biriga asos solgan

Bahovuddin Naqshbandiyning xolasi sifatida talqin qilinadi. Asosan, dindor ayollar orasida kishining mushkulini oson qilish, ishini yurgizish maqsadida qilinadigan irim-sirimlar BIBI MUSHKULKUSHOD rivoyatiga borib taqaladi.

BIBI SESHANBA, Seshanba ona-diniy-xurofiy tasavvurlarga ko‘ra ayollar sig‘inadigan avliyo, afsonaviy shaxs (ona); charx yigiruvchi ayollarning homiysi, oila baxtining himoyachisi. Qad. diniy e‘tiqodlarning islomga moslashib saqlanib qolgan ko‘rinishlaridan biri. Dindor ayollar BIBI SESHANBAga sig‘inib, seshanba kunlari uning sharafiga ziyofat beradilar. Soddadil ayollar BIBI SESHANBAdan, muruvvat, madad tilaydilar, "mushkullarini oson qilish"ni iltijo qiladilar. BIBI SESHANBAga sig‘inish, unga atab marosimlar o‘tkazish hozirgi vaqtda juda kam uchraydi va shirk amallardan sanaladi.

DUO (arab. - iltijo, chaqirish, so‘rash) - Qur’on sura va oyatlaridan o‘qib, so‘ngra Alloh taolodan o‘zi yoki boshqalar uchun tilak tilash, iltijs qilish. Duo ikki turli bo‘ladi. Birinchisi "ma’sura", ya’ni matni Qur’on, hadis yoki boshqa diniy manbalarda aniq belgilab qo‘yilgan Duolar Ularni buzmay, qo‘shmay, qanday ko‘rsatilgan bo‘lsa, o‘sha tarzda o‘qiydilar. Ikkinchisi "muhtaraa", ya’ni Duo matmini o‘zi to‘qib, erkin holatda iltijo qilish. Islom dini Allohdan boshqadan madad so‘rashlikni man etadi Insonning ko‘lidan keladigan yordamni insondan so‘rash mumkin. Islom aqidasi bo‘yicha, farzad ato etish, shifo berish, balo-qazodan asrash insof-tavfiq kabi hojatlar faqat Allohning o‘zidan so‘raladi. Undan boshqadan so‘rashlik shirk va kufr sanaladi. Duoning "ma’sura" turlari bir necha shaklda ta’lif etilib bizning davrimizgacha yetib kelgan. Duoni qaysi tilda qilishning ahamiyati yo‘q. Lekin islom dini aqidasi bo‘yicha, agar talaffuzini o‘rniga qo‘ya olsa va mazmunidan ogoh bo‘lsa, Duoni arab tilida o‘qish afzaldir. Ko‘pincha Duo bilan bir narsani talab qilish ma’nolari bir-biriga aralashib ketadi. Shuning uchun talab nimayu Duo nima ekanini aniq bilib olish alohida ma’no kasb etadi.

Talab - so‘rovchi nutq qiladigan lafzning vasfidir. Menga tilagan narsamni bergen, kabi. Duo esa so‘rovchida payds bo‘ladigan nafsiy holatdir. Mazkur nafsiy holat ikki narsa bilan: qalb va hislarning uyg‘oqligi hamda ularning har birining siniqlik va xokisorlik ila Alloh taologa yuzlanishi bilan va yana Duo qiluvchining Alloh taolodan sidqidildan o‘zi qilgan gunoxlarga tavba qilishni boshlashi bilan

bo‘ladi. Duo qilayotgan paytda qalb va hislarning uyg‘oqligi hamda ularning har birining siniqlik va xokisorlik ila Alloh taologa yuzlanishi bo‘lmasa odatga ko‘ra, ikki ko‘lni ko‘tarib tilga kelgan talab so‘zlarini takrorlayotgan bo‘ladi. Bundoq vaqtarda qalb g‘ofil bo‘lishi, tilda bir gap, xayolda boshqa gap bo‘lishi ham mumkin. Albatta, bu holatni Duo deb bo‘lmaydi. Bas, shundoq ekan, bu ishni qilayotgan odamni falonchi Alloh taolodan so‘ramoqda deyishimiz mumkin, ammo falonchi Alloh taologa Duo qilmoqtsa deya olmaymiz. Duo talab qilingan narsaga erishishni taqozo qiluvchi sababdir. Sababning esa, shartlari va man qiluvchilari bor. Qachon shartlar hosil bo‘lib, man qiluvchilar yo‘q bo‘lsa, talab qilingan narsaga erishiladi. Agar undoq bo‘lmasa, erishilmaydi. Balki, gohida boshqasi, Duo qiluvchi uchun xayrlirog‘i hosil bo‘lishi mumkin. Alloh taolo Duo larni ijobat va hojatlarni ravo qiladi.

FARZ (arab. - qat’iyat, majburiyat) - shariatda hamma musulmonlar bajarishi qat’iy buyurilgan amallar. Farz ikki tur - "farzi ayn" va "farzi kifoya" ga bo‘linadi. Birinchi turi barcha musulmonlarga bab-barobar buyurilgan bo‘lib, ularning adadi 40 atrofida, mas., namozda 12 ta, shundan oltitasi namozdan tashqarida, oltitasi namozning ichida, tahoratda 4, tayammumda 4, g‘uslda 3, ro‘zada 3, taom yeyishda 4 "farzi ayn" bor (1) Halol bo‘lish; 2) Zaruriy mikdorda yeyish; 3) Taom quvvatini yaxshi ishlarga sarflash; 4) Taom beruvchiga (Allohga) shukr aytish). Amri ma'ruf, nahiyy munkar, ilm olish ham "farzi ayn"ga kiradi. "Farzi kifoya" esa, bir qism musulmonlar bajarsa qolganlar zimmasidan soqit bo‘ladigan ishlar. Masasalan, janoza namozi, afanlash, murdani yuvish, dafn etish kabilar. Farzning bu turiga kiruvchi ishlarni hech bir musulmon bajarmasa, hamma musulmonlar gunohkor bo‘ladilar.

FIQH ("chuqur tushunish, bilish") -musulmonlarning xulq-atvor qoidalari to‘g‘risidagi islam doktrinasi (huquqshunoslik), islam ijtimoiy me’yorlari majmuasi (keng ma’nodagi musulmon huquqi). Ikkala ma’nodagi Fiqh islam dini vujudga kelib, musulmon davlati - Xalifalik qaror topishi bilan darhol tarkib topgan emas. 8-a.ning 1-yarmigacha umuman xalifalikning ijtimoiy (jumladan yuridik me’yorlari tizimi islam qoidalari bilan belgilanmas, balki asosan islomdan avval mavjud bo‘lgan va yangi tarixiy sharoitda amal qilib turgan normalardan iborat edi. Arablar bosib olgan hududlarda avvalgi yuridik norma va urf-odatlar yangi din aqidalariga zid bo‘lmasa, ular

ham jiddiy o‘zgarishlarsiz saqlanib qolaverган, chunki, avval boshda islam o‘zining huquqiy masalalariga unchalik e’tibor bilan qaramagan. Bu paytda xalifalikning huquqiy tizimi Rum (Vizantiya), sosoniylar, talmudchilar va sharqiy xristianlar huquqining ayrim unsurlarini hamda ko‘pgina mahalliy urf-odatlarni qabul etdi, ularning ko‘plari keyinchalik islomniki qilib olindi va Fiqhga kiritildi.

Fiqhni shakllantirishni, bir tomondan, amal qilib turgan huquq va boshqa ijtimoiy me’yorlarni diniy aqidalarga moslashtirish zarurligi va ikkinchi tomondan, ilk mulkdorlar jamiyatining endigina vujudga kelgan munosabatlarini mohiyat e’tibori bilan islomning diniy-axloqiy ta’limotiga asoslangan qoidalar negazvda tartibga solish ehtiyojlari taqozo qilar edi. Fiqhning qaror topishi Muhammad (s.a.v) hadislari va choryorlarning aytgan gaplarini yozibolish bilan birga davom etdi. Shu sababli Fiqhga oid dastlabki asarlar (masalan, Zayd ibn al-Hasanning "Majmua", Molik ibn Anasning "al-Muvatto", Ahmad ibn Hanbalning "al-Musnad" asarlari), aslida, huquqiy mavzudagi tadqiqotlar emas, balki muayyan mavzuda tanlab olingan hadislardan iborat. Hadislarning bir tizimga solinishi Qur’on va sunnani oqilona talqin etish orqali hal qilinadigan masalalarni belgilab olish va shu tariqa Fiqhni mustaqil fan sifatida shakllantirish imkonini berdi.

VIII va IX-asrning 1-yarmida Fiqh - huquqshunoslikda o‘z tushunchalari vujudga keldi, o‘ziga xos til va uslub shakllandı. Unda Muhammad (s.a.v.)ning vafotlaridan so‘ng asl ma’noda qonunlar yaratish faoliyati to‘xtadi, degan fikrga kelindi. Qur’on va sunna huquqiy yechimlarning asosiy manbalari bo‘lib qoldi. Faqixlar musulmon jamoasining yakdil fikri (al-ijmo’)ni choryorlarning yagona fikri deb hisoblab, ularni ham mustaqil manba sifatida tan olar edilar. Qur’on va sunna faqihlarni qiziqtirgan har qanday savolga javoblarni o‘z ichiga oladi, degan xulosaga kelindi. Shu sababli ularda musulmonlar amal qilishi lozim bo‘lgan aniq fe’l-atvor qoidalari xususida bir xil yechim, ko‘rsatma bo‘lmagan takdirda faqihlar mazkur manbalarni huquqiy holatlarga oqilona "tatbiq qilish" yordamida amaliy masalalarni hal etish bilan shug‘ullanadi. Bora-bora Fiqh - huquqshunoslikni ilm al-furu deb tushunish hammaga ma’kul bo‘la boshladi. Ilm al-furu’ - shariatning aniq manbalar asosida ta’riflangan (ya’ni Qur’on yoki sunnaning ayrim qoidalariiga asoslangan va ijmo’da tasdiqlangan yoxud ijтиҳод yordamida bayon

etilgan) "amaliy" (odamlar xulqatvorini tartibga soladigan) me'yirlari to'g'risidagi fandir.

Fiqh - huquqshunoslik fani me'yirlarning ikki toifasini: 1) musulmonlarning Alloh bilan munosabati (ibodot); 2) odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabat, shuningdek, musulmon hokimiyati (davlati)ning o'z fuqarolari, boshqa dinlar va davlatlar bilan munosabati (muomalot)ni belgilovchi, tartibga soluvchi me'yirlarni o'z ichiga oladi. Faqihlarning asosiy kuch-g'ayratlari me'yirlarning ikkinchi toifasini ishlab chiqishga qaratildi, ularning aksariyati ijтиҳод asosida joriy etildi.

Fiqh - huquqshunoslik shakllanishining ilk bosqichidayoq ikki mактаб yuzaga kelgan edi: ulardan biri - Iroq mактabi "mustaqil fikrlash tarafдорлари" (ashob arra'y) mактabi deb, ikkinchisi - Madina mактабини "naql tarafдорлари" (ashob al-hadis) mактabi deb atalgan. Ular o'rtasidagi tаfovut mакtablar o'z ta'limotlarini rivojlantirgan moddiy va madaniy sharoit xususiyatlari hamda ular meros qilib olgan huquqiy an'analar bilan izohlanadi.

Iroqlik huquqshunoslар ijтиҳodni qiyosdangana iborat deb bilmasdan, undan kengroq foydalandilar, Madina mактabi esa, asosiy e'tiborni Qur'on va sunnaga qaratdi. Avvaliga bu mакtablarning ta'limoti muayyan nom bilan atalmadi, biroq keyinchalik ularning har biri o'z ta'limotini o'z asoschisi nomi bilan atay boshladi. Chunonchi, Nu'mon ibn Sobit Abu Hanifa (767 y. v.e.) Iroq mакtabining asoschisi bo'lgan.

IX-X-asrlarda Fiqh - huquqshunoslikning boshqa sunniy tariqat (mazhab)lari ham yuzaga keldi. Masasalan, Muhammmad ibn Idris ash-Shofi'iy (820 y. v.e.) nomi bilan atalgan shofi'iylik tariqati ijтиҳodni qiyos bilan aynan bir narsa deb hisoblab, uni qat'iyat bilan tatbiq etdi.

Keyinroq Ahmad ibn Hanbal (855 y. v.e.) asos solgan hanbaliylik mazhabi ham tan olindi. Bu tariqat Qur'on va hadislardan imkoniboricha keng foydalanganligi va ijтиҳodga ishonchsizlik bilan qaraganligi ma'lum. Fiqh -huquqshunoslikning boshqa mакtablari ham bor edi, ammo, XIV-asrga kelib, mazkur to'rt sunniy mazhab hamda bir necha shialik tariqatlarigana saqlanib qoldi.

Fiqh mazhablaridan har birining ta'limoti uning tarafдорлари e'tirof qilgan asarlarda bayon etilgan. Bu asarlarning ko'pchiligi o'rta asrlarda mazhab asoschilarini, ularning yaqin shogirdlari va izdoshlari,

atoqli huquqshunoslar tomonidan yozilgan. Masalan, hanafiylik mazhabi bo'yicha Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn al-Hasan al-Shayboniy (805 y. v.e.)ning oltita kitobi eng mo'tabar (Kutub zohirat ar-rivoya) hisoblanadi. Mazkur asarlarning eng muhim qoidalarini keyinchalik Abul Fazl al-Marvaziy o'zining "al-Kofi" kitobida umumlashtirdi, Shamsiddin as-Saraxsiy (1090 y. v.e.) bu kitobni batafsil sharhlovchi "al-Mabsut" asarini yaratdi. "Al-Mabsut" hanafiylik mazhabiga oid eng obro'li asarlardan biri deb tan olinadi. Molik ibn Anasning "al-Muvatto" kitobi molikiylar fiqhi bo'yicha yetakchi manbaligicha qolmoqda. Bundan tashqari molikiylik faqihlarining bir necha avlodi, avvalo, Abdusalom Saxnun (854 y. v.e.) tomonidan yaratilgan "al-Mudavvana al-kubro" asari juda mashhur. Ahmad ibn Hanbalning "al-Musnad" asari hanbaliylar uchun shunday ahamiyatga ega. Ash-Shofi'yning "al-Umm" asari shofi'iylik Fiqh – huquqshunosligi bo'yicha birinchi manbadir.

Shialar Fiqh ga doir anchagina kitoblar ham ma'lum. Umuman, Fiqhga oid asarlar orasida turli mazhablarning xulosalarini taqqoslashga bag'ishlangan asarlar (ilm al-xilof) sezilarli o'rinn oladi. Bir mazhab tarafдорлари о'rtasida ham ixtiloflar borligi Fiqh - huquqshunosligiga xos xususiyatdir. IX-asr o'rtalaridan e'tiboran sunniy Fiqh -huquqshunosligida faqat o'tmishdagi yirik huquqshunoslar ijтиҳод xukuqiga ega, degan goya qaror topa boshlagan edi, X-asr o'rtalariga kelganda esa, o'zining huquqqa oid qarorlarini ta'riflab berish usullari tizimiga ega bo'lgan yangi mazhablar yuzaga kelishi mumkin emas, degan e'tirozsiz yakdil bir fikrga kelindi.

Binobarin, endi har bir faqih muayyan mazhab ta'limotiga ergashmog'i darkor bo'lib qoldi, buni taklid deb yuritadigan bo'ldilar. Shu vaqtan boshlab Fiqh - huquqshunoslikning rivoji e'tirof qilingan mazhablar doirasida davom etdi. Bunda o'tmishdagi yirik mujtahidlarning xulosalarini muntazam holatga keltirishga, ularning asarlarini sharxdashga, ularni qayta ishlab, qisqa va sodda to'plamlar tayyorlashga asosiy e'tibor berildi. O'rta asrlarda va yangi davrda Fiqh -huquqshunoslikka oid asarlar orasida fatvo to'plamlari ko'paydi. Fatvo to'plamlari tartibga solinadigan mavzular bo'yicha guruhlangan va har birining manbai ko'rsatilgan favqulodda me'yorlar majmuasidir.

Al-Quduriyning (1037 y. v.e.) "Muxtasar", Qozixonning (1196 y. v.e.) "Fatovo", Burhoniddin Ali Marg'anoniyning (1197 y. v.e.) "Hidoya", Ibn Bazzozning (1414 y. v.e.) "Fatovo" asarlari bunga misol bo'ladi. Sunniy faqihlar fatvolarining aksariyat to'plamlari keng mazmunli bo'lib, tahorat, namoz, dafn, zakot, ro'za, haj, turli savdosotiq bitishuvlari va majburiyatlarini, mulkni tasarruf etish tartibotini, vaqf, meros, nikoh-oila munosabatlari har xil huquqbuzarliklar, musulmon hokimiyatini nomusulmon va boshqa davlatlar bilan munosabatlari, qozilik, kiyinish, ovqatlanish qoidalari va shu kabi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalalarga taalluqli ishlar ham borligi ma'lum. Mas., al-Mavardiyning (1058 y. v.e.) "al-Ahkom as-sultoniy" risolasi asosan xalifalikni tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish hamda shu munosabat bilan moliya, yer, jinoyat va qozilik huquqiga bag'ishlangan. Shia huquqshunoslari odatda boshqacha tasniflash yo'lidan borib, Fiqhning barcha me'yorlarini to'rt guruhga bo'ladilar. Mazkur guruhdar ibodat tartibini, ikki tomonlama shartnoma (uqud), shu jumladan nikoh, muayyan shakldagi bir tomonlama bitim (iqo'at), jinoyat uchun javobgarlik va yetkazilgan zarardan kelib chiqadigan majburiyat yoki ixtiyoriy shakldagi bitishuv yoxud harakatlarni tartibga soladi. Fiqh, bir tomondan, aqliy ta'limot bo'lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tajribasiga qaratilgan.

Fiqh -huquqshunoslikning ko'pgina xulosalari amalda tatbiq etilib, islom ijtimoiy me'yorlari majmuasini tashkil etganligi bois ular ham Fiqh iborasi bilan atala boshladи. Fiqh musulmonlar orasida amal qilgan fe'l-atvor qoidalari ma'nosida ijtimoiy me'yorlarning har xil diniy, huquqiy, axloqiy turlarini, shuningdek, urf-odatlarni, oddiy xushmuomalalik va axloq-odob qoidalarni o'z ichiga olgan, ya'ni keng, umumiyligi tushunchadagi musulmon huquqi bo'lgan. Shu majmuuga kiruvchi me'yorlarning turli toifalarini ijtimoiy munosabatlarda va shaxsiy fe'l-atvorda amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari bor edi. Chunki, musulmonlar diniy ahkomlarni imon-e'tiqod bilan ado etar va shu sababli ular juda mukammal bo'lar edi.

Fiqh - huquqshunoslikning ko'pgina qoidalari musulmonlar orasida rasm bo'lgan va bu qoidalarga rioya etilishni kafolatlaydigan urf-odatlarni aks ettirar edi. Ammo, faqihlar ishlab chiqqan

me'yorlarning bir qismi aksar hollarda davlat ishtirokida amalga oshirilar, davlatning majburlashi imkoniyatiga tayanar edi. Shu sababli, islomda yagona ijtimoiy-me'yoriy tartibga solish majmuasi tarkibida fe'l-atvorning huquqiy qoidalari (yuridik ma'nodagi musulmon huquqi) alohida o'rin oldi.

Fiqh - huquqshunoslikning xulosalari davlat tomonidan buyurish rasmiy qo'llab quvvatlash natijasida qisman amaldagi huquqqa aylanar, massalan, tayinlab qo'yilgan qozilar muayyan mazhab xulosalarini joriy qilar edi. Jumladan, abbosiylar hokimiyatni qo'lga olgach, faqihlarni qozi lavozimiga ko'tarish yo'li bilan shunday xulosalarni qozilik tajribasiga tatbiq eta boshladilar. Yuridik ma'nodagi Fiqh - huquq shu asosda tarkib topdi, Fiqh - huquqshunoslik uning manbai bo'ldi. Musulmon faqihlarining ko'p asarlari qozi va muftilar uchun amaliy qo'llanma (dasturulamal) bo'ldi, ko'pincha ma'murlarning buyurtmasi bilan davlat mahkamalari uchun maxsus kitoblar yozib berildi. Abu Yusufning (798 y. v.e.) "Kitob al-xaraj"i yoki Boburiylar sultanatining hukmdori Avrangzeb (1658-1707) amri bilan 1669 y.da bir guruh hanafiy huquqshunoslardan tuzgan "al-Fatovo al-hindiya" asari bunga misoldir.

Chigallik Fiqh me'yorlarining ko'pchiligaga xos xususiyatdir. Zero, ayni bir xil masalalarni hal etishda turli mazhablarning bir-biriga to'g'ri kelmaydigan xulosalari tatbiq etilishi mumkin edi. Hatto bir mazhab ichida ham ziddiyatli qoidalalar amal qilaverar, chunki Fiqh huquq ko'p jihatdan yirik huquqshunoslarning aniq masalalarga oid qarorlari yigandisidan iborat bo'lib, ular ayni bir masala yuzasidan ko'pincha turli xulosalarga kelar edilar. Shu sababli hatto davlat Fiqh - huquqdagi muayyan tariqatni qo'llab quvvatlashi ham bir xil me'yorlar tizimi belgilab qo'yilganini bildirmas edi.

Binobarin, Fiqh - huquqning bir-biriga mos kelmaydigan ko'pdan-ko'p qoidalari orasidan qozi qaysi birini tanlab olishini oldindan bilib bo'lmas edi. Shu sababli Fiqhning umumnazariy asosi asta-sekin birinchi o'ringa chiqqa boshlagani beziz emas. O'rta asrlarda musulmon faqihlari qozilarning Fiqh - huquqqa oid yakka-yakka ko'rsatmalarini asosida uning umumiyligi qoidalari (al-Qavo'id al-Kulliya)ni shakllantirib berishga muvaffaq bo'ldilar. Shu sohadagi ishlar orasida Ibn Nujaymaning (1562 y. v.e.) "al-Ashboh va-n-nazo'ir" asari yaxshi ma'lum. XVI-XVII-asrlarda chigal fatvolar bilan bir qatorda me'yoriy qoidalari uzil-kesil shakllantirib berilganligi

ikkala ma'nodagi Fiqh - huquqni rivojlantirishda eng yuqori nuqta bo'ldi. Islom mamlakatlari huquq tizimida Fiqh -huquqning roli doimo bir xil bo'lgan emas.

Jumladan, XVI-asrda Usmonli turk sultanatida va XVII-asr 2-yarmida Boburiylar davlatidagi huquqiy amaliyotda uning qoidalari juda keng va izchil qo'llanildi. Biroq, umuman Fiqh - huquq hech qachon Fiqh - huquqshunoslik bilan to'la-to'kis mos kelgan emas. Fiqh - huquqshunoslikning haqiqatda amalga oshirilgan, hokimiyat tepasidagi kuchlarning manfaatlarini ifodalagan va davlat tomonidan biron-bir tarzda qo'llab-quvvatlangan qoidalarigina amaldagi huquqqa aylangan, faqihlarning boshqa xulosalari esa huquqiy nazariya doirasidan tashqari chiqmagan.

Ayni vaqtida Fiqh - huquq me'yollarining turli majmualari shu jihatdan o'z xususiyatiga ega bo'lgan. Shaxsiy holat huquqi (al-ahvol ash-shaxsiya) Fiqh - huquqning eng rivojlangan tarmog'i hisoblanadi. U oila-nikoh, meros munosabatlarini va ularga yaqin bo'lgan boshqa ba'zi munosabat (huquq qobiliyati, vaqf tartibi va hokazi.)larni tartibga soluvchi me'yoriy yig'indisidan iborat. Jamiyatning iqtisodiy negizidan nisbatan xiyla olis bo'lgan, ikki tomonidan, diniy aqidalar bilan juda qatiy belgilab qo'yilgan ushbu munosabatlarni tartibga solishda Fiqh - huquq me'yorlari, odatda, boshqa tarmoqlarga nisbatan juda keng qo'llanilib keldi. Ammo, hatto oila-nikoh sohasida ham mahalliy urf-odatlar Fiqh - huquq bilan raqobat qilar va amalda uning ayrim qoidalarini yo'qqa chiqarib yuborar edi.

Fiqh -huquqning jinoyat (g'ayriqonuniy harakat) tarmog'i (al-uqubot), sajiyasi (xarakteri)dan qat'i nazar, barcha huquqbuzarliklar uchun jazo chorasi o'z ichiga oladi. Faqat 10 ta eng xatarli jinoyat uchun qat'iy belgilangan jazo chorasi ko'zda tutilgan. Mazkur tarmoq, shuningdek, Fiqh - huquqning qozilar sudi (al-muhokamat) tashkiloti va uning faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlari amal qilish sohasi davlat o'tkazayotgan siyosatga bevosita bog'liq edi, bu siyosat esa, uning dunyoviy va diniy vazifalari nisbatiga qarab belgilanar edi.

Faqihlar ishlab chiqqan davlat huquqi, ma'muriy va moliyaviy huquq me'yorlari (al-ahkom as-sultoniya) Fiqh - huquqning nisbatan ikkinchi darajali unsuri bo'lib, ko'p jihatdan mavhum nazariya edi, u soliq sohasidagina birmuncha izchil amalga oshirilardi. Musulmon ma'murlarning boshqa davlatlar bilan munosabatlarini, urush olib borish va harbiy o'ljani taqsimlash tartibini, musulmon hukmdorning

bosh din vakillariga nisbatan o'tkazadigan siyosatini tartibga solish uchun faqihlar belgilab bergen as-siyar me'yorlari haqida ham shu gapni aytish mumkin. Shu me'yorlarning ayrimlarigina (jumladan, nomusulmonlarning huquqiy holatini belgilovchi me'ylar) huquqiy tus olar va yuridik (huquqiy) ma'nodagi Fiqh - huquqqa aylanardi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, o'rtalarda asrlarda islom mamlakatlarining huquqiy tizimlarida Fiqh - huquq markaziy o'rin olgan bo'lsa ham, ammo barcha huquqiy me'yorlarni qamrab olmas edi. Bu yerda Fiqh - huquq bilan bir qatorda davlatning faqihlar xulosalaridan ba'zan farq qiladigan va hatto ularga zid bo'lgan qonun hujjatlari ("huquqiy siyosat" - as-siyosa ash-shar'iya) amal qilar edi.

XIX-asrning 2-yarmida Fiqh huquq nizomida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Buning eng muhim sababi shundan iborat bo'ldiki, eng rivojlangan islom mamlakatlarida (xususan, Usmonli turk sultanati tarkibidagi el-yurtlarning ko'philigida) Fiqh - huquq asoslari hollarda G'arbiy Yevropadan olingan qonunlarga yetakchi o'rinni berib qo'ydi. Natijada Fiqh - huquq asosan shaxsiy holat munosabatlarini tartibga solish sohasida o'z mavqeini saqlab qoldi va mazkur mamlakatlarning davlat, ma'muriyat, jinoyat, savdr-sotiq huquqida, ko'p jihatdan fuqarolik huquqida ham qo'llanilmay qo'ydi. Shu bilan birga bu davrda 1869-1877 yillarda "Majallat al-ahkom al-'adliya" degan hujjatni qabul qilish yo'li bilan uning me'yorlari birinchi marta rasmiy ravishda sharoitga moslashtirib olindi, bu ish Usmonli turk sultanatining fuqaro kodeksida muhim rol o'ynadi (hozirgi paytgacha ham shu hujjat Kuvaytda qisman qo'llanib kelinmoqda).

Diqqatga sazovor tomoni shuki, mazkur qonun Fiqh - huquqshunoslikning hanafiylik mazhabi xulosalari asosiga kurilgan bo'lib, jumladan, Ibn Nujaymaning risolasidan olingan aniq me'yorlarni ham, umumiylarini qoidalarni ham o'z ichiga olgan edi.

XIX-asr 2-yarmi va XX-asrning boshlarida hukumat ma'murlarining topshirig'iga binoan tayyorlangan qonun loyihalari tarzidagi asarlar (mas., Qadri Posho, D.Santillana va M.Moranning shaxsiy holatga oid ishlari) paydo bo'lganligi diqqatga sazovordir, ammo, ular davlat tomonidan e'tirof qilinmadı. Garchi XIX-asrning 2-yarmidan Fiqh - huquqning ahamiyati tobora pasayib borgan bo'lsa ham, hozirgi vaqtida uning ayrim tarmoqlari, tartib-qoidalari va me'yorlari ko'philik aholisi musulmon bo'lgan Sharq mamlakatlarida biron-bir tarzda qo'llanilmoqda Shaxsiy holat tarmog'i izchil, keng va

deyarli bekamu ko'st amal qilayotir, ayrim hollarda (masalan, Tunis va Yamanda) Fiqh - huquqning oila-nikoh masalalariga oid qoidalari birmuncha o'zgartirildi.

Fiqh - huquqning tartiboti jinoyat huquqida (mas., Saudiya Arabistoni, Yaman, Fors ko'rfazi mamlakatlarida) ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, ammo bir qancha mamlakatlar (Liviya, Eron, Pokiston, Mavritaniya va boshqa)da huquqning tarmog'iga uning ta'siri XX asrning 70-yillaridan boshlab hatto kuchayib ketdi. Fuqarolik va savdo huquqi haqida ham shu gapni aytish mumkin. Fiqh - huquqning bu sohadagi me'yorlari vaqflarning huquqiy holatini tartibga solib kelmoqtsa (vaqflar tugatilgan Jazoir, Tunis, Yaman bundan mustasno). Bu me'yorlar fuqarolik kodeksiga ayrim moddalari (masalan, huquqni suiiste'mol qilish, qarzni o'tkazish, yerni ijaraga olishga oid moddalari) tarzida kiritilgan. Keyingi 10-15 yillikda bir qancha mamlakatlar (Liviya, Pokiston va boshqalar) fuqarolik va tijorat huquqida Fiqh – huquq me'yorlarini qo'llash miqyosi kengaydi. Fiqh -huquqqa asoslangan soliq va moliya qonunlari (jumladan, foyda - ribo olishni taqiklaydigan va shu asosda islom banklari faoliyatini tartibga soladigan qonunlar) qabul qilingani bunga sabab bo'ldi.

Ko'pchilik islom mamlakatlarida musulmon (shariat) sudlari saqlanib qolayotir (arab mamlakatlaridan faqat Tunis, Jazoir, MAR, Yamanda bunday sudlar tugatilgan). Ularning tashkil etilishi va faoliyati ko'p jihatdan Fiqh - huquq me'yorlari bilan tartibga solinadi. Fiqh - huquq qoidalari va me'yorlari ayrim mamlakatlar (avvalo Saudiya Arabistoni) davlat huquqida aks etgan va hozirgi vaqtida 1979 yil konstitutsiyasida islom respublikasi deb e'lon qilingan Erondagi davlat shaklida juda yaqqol ko'rinish turibdi. Shuni ham aytish kerakki, barcha islom mamlakatlarida yoxud boshqa mamlakatlar aholisining ozchiligani tashkil etuvchi musulmon jamoalarida diniy qoidalar va namoz tartibini belgilovchi Fiqh - huquq me'yorlari hali ham qo'llanilayapti. Hozirgi sharoitda Fiqh rasmiy huquq manbai sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan. Bir qancha mamlakatlarning shaxsiy holat va jinoyat huquqiga oid qonunlarida ko'zda tutilishicha, agar qonunda tegashli me'yorlar bo'lmasa, Fiqh - huquqshunoslik xulosalari qo'llanilishi lozim.

Ba'zi mamlakatlar (Misr, Suriya, Liviya, Iroq, Jazoir, Kuvayt)ning fuqarolik kodekslarida ham shunday qoida belgilangan. Hozirgi vaqtida ko'pgina islom davlatlarining konstitutsiyalari
118

fiqhning asosiy va o‘zgarmas me’yorlarini qonunchilikning asosiy manbai deb tan oladi. Davlatning Fiqh huquqqa nisbatan bunday siyosati Fiqh huquqshunoslikka oid ilmiy ishlarni rag‘batlantiradi. Bu ishlar ikki asosiy yo‘nalishda olib boriladi. Nazariy ilohiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan birinchi yo‘nalish an’anaviy fatvo janridan iborat (Misrning sobiq muftisi Hasanayn Muhammad Maxlufning ikki jildli fatvolar to‘plami bunga misol). Ikkinchisi – Fiqh nazariyasi va tarixiga oid asarlardir.

KOMIL INSON - tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri. Har jihatdan yetuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to‘liq bilimga ega bo‘lgan va natijada Haqqa yetishgan (yoki Qur’on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, Alloh Komil insonda o‘zining barcha xislat va alomatlarini bamisolni ko‘zguda ko‘rgandek ko‘rib turadi. U borliqning bir-biriga zid ikki jihat: ma’naviy va moddiy jihatlarini birga qo‘shadi. Uning butun olam uchun bo‘lgan favkulodda ahamiyati ana shundan kelib chiqadi, u - Koinotning botiniy hukmdori, Olam yaratilishining sababchisi va maqsadidir. Komil inson haqidagi ta’limot so’fiy faylasuf Ibn al-Arabiy tomonidan yaratilgan, keyinchalik uning izdoshlari, jumladan O’rta Osiyoda Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa tomonidan rivojlantirilgan. O’zbekiston mustaqshshikka erishgach, Komil insonni voyaga yetkazish milliy istiqlol mafkurasining asosiy vazifalaridan qilib qo‘yildi. Prezident Islom Karimov asarlarida Komil insonni voyaga yetkazish vazifalari atroflicha bayon etilgan.

MASJID, machit (arab. - sajda qilinadigan joy) - musulmonlar jamoa bo‘lib namoz o‘qiydigan joy, ibodatxona. Masjidlar, asosan, kundalik besh vaqt namoz o‘qish uchun mo‘ljallangan. Juma va hayit namozlari esa, jome Masjidlarda o‘qiladi. Birinchi Masjidni Madinada Muhammad(sav) qurdirganlar. Masjidlar dastlab shaharlarda, keyinchalik qishloq va mahallalarda barpo etilgan. Masjidlarning to‘rida, Makkaga qaragan (qibla) tomonida mehrob, hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo‘ladi. Ayrim yirik Masjidlar mehrobining o‘ng tomonida va’zxonlik uchun mo‘ljallangan minbar, ba’zilarida esa, Qur’on o‘qiladigan maxsus joylar ham bo‘ladi. Ba’zi Masjidlar huzurida maktablar ham bo‘lgan bo‘lib, ularda o‘g‘il bolalarga Qur’on o‘qish o‘rgatilgan. Masjidlarda juma va hayit namozi kunlari imom-

xatiblar xutba o‘qib, turli diniy masalalar bo‘yicha va’zxonlik qiladi. O‘zbekistonda 2000 ga yaqin Masjid bor.

MASJIDI KALON, Jome’ Masjidi - Buxorodaga eng yirik me’moriy yodgorlik. Minorai kalon yonida taxm. XV-asrdan qurila boshlangan (arxeologik qazishmalar natijasida bino ostidan XII-asrga oid qadimgi masjid qoldiqdari topilgan). Masjid (127x78 m) to‘g‘ri to‘rtburchak tarxli. Keng hovli (130x80 m) atrofidagi bostirma yo‘laklar (galereya) 288 ta yassi gumbaz bilan berkitilgan. Gumbazlarni chortoq shaklida 208 ustun ko‘tarib turadi. Ustunlarning bir qismi ostiga keyinchalik alohida poyustunlar ishlangan. Sharq tomondagi buyuk peshtoq mahobati va muhtasham bezagi bilan alohida ajralib turadi. Shu peshtoq orqali masjidning katta xonaqohmaqsurasiga kiriladi. Xonaqohning baland gumbaziga zangori koshinkor bezak bilan pardoz berilgan. Xonaqoxdagи mehrob bezaklari koshinkorlik san’atining yuksak namunasidir. Unda usta Boyozid Puroniy nomi saqlangan. Hovliga qaragan peshtoq oldidagi sahnda ko‘p qirrali mo’jaz bir ko‘shk (pavilon) bor (uni qurishda usta Shirin Murodov qatnashgan, XX-asr). Masjid atrofi baland va qalin devor bilan o‘ralgan. Uning bir qismi sirkor gasht bilan, ba’zi yerlari oq, ko‘k va zangori koshin bilan bezatilgan. Maydonga qaragan bosh tarzi markazida peshtoq, qanotlari toqi ravokdarga bo‘lingan. Peshtoqning naqshinkor bezaklari deyarli saqlanmagan, ba’zi joylari suvab yuborilgan. Masjidi kalon tomlari (gumbazlari) tuzatilib, ustun poyalari betonlashtirildi. Hovli atrofidaga ravoqli devorlar tuzatildi. Tashqi peshtoq to‘la ta’mir etildi.

“MIR ARAB” MADRASASI - Buxorodagi diniy o‘quv yurti. Malakali diniy mutaxassislar tayyorlaydi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida. Yamanlik amir Abdulloh tomonidan Buxoro xoni Ubaydullaxon in’om qilgan mablag‘ hisobiga qurilgan (1530-36 yillar) madrasa amirning laqabi bilan Mir Arab deb atalgan. Sho‘rolar davrida faoliyati vaqtincha to‘xtatilgan, 1945 yilda yana tiklangan. O‘quv jarayonining muddati 4 yil. O‘quv yurti kunduzgi bo‘limiga 15 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan o‘rta va to‘liqsiz o‘rta ma’lumotli o‘quvchilar qabul qilinadi. Diniy fanlarni, arab tilini uqitish O‘zbekiston musulmonlari idorasi

tomonidan tuzilgan reja asosida, umumta’lim fanlarni o‘qitish esa, respublika Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari tomonidan maktab va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun 120

ishlab chiqilgan dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar asosida olib boriladi. O'kuv mashg'ulotlari ma'ruza, seminar tarzida o'tkaziladi. Darslar o'zbek va arab tillarida olib boriladi. Talabalarga ingliz, rus va fors tillari ham o'rgatiladi. O'quv rejasi va dasturlari talablarini to'liq bajargan, bitiruv imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan talabalarga diplom beriladi.

MAQBARA (arab. marqad, turbat) - biror mayitning jasadi joylashgan me'moriy inshoot yoki tosh tobut (dahma, sag'ana). Maqbaralar hashamatli murakkab imoratlar taqlidida taraqqiy topdi. Bunday hashamatli Maqbaralar yaratilishi qadimgi Misr ehromlarida Fir'avnni ilohiyashtirish bilan buyuk va o'lmas degan g'oya olib borilgan. O'rta Osiyoda dastlab kabr ustiga biror tosh qo'yish, imorat kurish man etilgan bo'lsa-da IX-asrdan xalifalar sharafiga Maqbaralar qurila boshlangan. Movarounnahrda ham IX-asrdan boshlab maxsus Maqbaralar qurish odad tusiga kirgan. Keyinchalik, asosan, mashhur kishilar (podshohlar, ruhoniylar, olimlar) qabri ustiga turli Maqbaralar qurilgan. Oddiy Maqbara gumbazli chorsi xonadan iborat bo'lgan, unga peshtokdi eshik orqali kirilgan. Ba'zan xonaning 4 tomoni ravvoqdi-chordara shaklida bo'ladi, keyinchalik Maqbara qurilishi tobora murakkablasha borib, unda ziyoratxona, go'rxona, tagxona-sardoba kabi maxsus xonalar paydo bo'lgan.

TEST SAVOLLARI

- 1.Afrosiyob qanday shaxs?
A.tarixiy
B.afsonaviy
C.afsonaviy va tarixiy
D. buyuk sarkarda
- 2.Kayxisrav qaysi yillarda podsholik qilgan?
A. mil.avv 550-530
B.mil.avv 550-535
C.mil.avv 540-530
D.mil.avv 540-520
- 3.Majusiyalar dinida yaxshilik, yorug'lik tangrisi deb kim gavdalantirilgan?
A.Axuramazda
B.Axramand
C.Amonra
D.Osiris
- 4.Ayup payg'ambar kimning avlodlaridan edi?
A.Ayyos alayhis salom
B.Afrohim alayhis salom
C.Iblis alayhis salom
D.Yusuf alayhis salom
- 5.Majusiyarning tasavvuridagi yarmisi odam,yarmisi ho'kiz shaklidagi xudolardan biri kim?
A.Gavomard
B.Ustaxo'rdak
C.Jonmardi
D.Xushang
- 6.Qo'chqor Ato mozori Buxoro shahrining qaysi hovlisida joylashgan?
A.Zindoni oliv
B.To'pxona
C.Xo'jayli
D.Mizdahkan
- 7.Majusiyarning totemistik dini qoldig'i sifatida Buxoroda davom etib kelgan mozor qaysi?

A.Qo'chqor ota

B.Jumard

C.Jonmardi

D.Darxon ota

8.Majusiylik dinidagi "muqaddas" deb hisoblangan jonsiz narsalarni Islom dinida ilohiylashtirgan shaxslar sifatida gavdalantirish nima deyiladi?

A.Personifikatsiya

B.animizm

C.fetishizm

d.magiya

9."Pur" eron tilida nimani anglatadi?

A.o'g'il

B.qiz

C.ota

D.ona

10.Buxoro viloyatida Childuxtaron yoki Qirqqiz nomi bilan bog'liq qadamjoylar nechta?

A.18 ta

B.19 ta

C.17 ta

D.21 ta

11.Ark tepasida Childuxtaron mozori qaysi yillarda paydo bo'lgan?

A.XIX asrning 60-yillarida

B.XIX asrning 50-yillari

C.XVIII asrning 60-yillari

D.XIX asrda

12.Buxoroning qaysi muqaddas joyiga teri kasalligi va sariq kasalligiga chalinganlar qadim zamonlardan boshlab hozirgacha davo istab keladilar?

A.Xoja Za'faron

B.Xoja Ismat

C.Bibimoxro'y

D.Qizbibi

13.Qaysi tarixiy asarda "Xoja Ubon xalifa Usmonning sevimli o'g'li edi" degan fikr yuritilgan?

A.Ubaydullanoma

B. Lug'atnoma

C. Abdullanoma

D. Tazkirat ul-avliyo

14. Marhum akademik Yahyo G'ulomov rahbarligida Xoja Za'faronga yaqin bo'lgan Qizil qirda qaysi davrga oid moddiy yodgorliklar topilgan?

A. Nealit

B. Mezolit

C. Bronza

D. Tosh

15. Xoja Za'faron Xoja Ubbondan qancha masofada joylashgan?

A. 9 km

B. 11 km

C. 15 km

D. 21 km

16. XIX asrning 30-yillarida Buxoroga kelgan A. Bernsga Xoja Ubbonda mahalliy aholi tomonidan qaysi podshohlikning kumush tangalari keltirib berilgan?

A. Grek-Baqtriya

B. So'g'd

C. Kushon

D. Xorazm

17. "Bayonoti sayyohi hindi" asari kimning qalamiga mansub?

A. A.Fitrat

B. S.Ayniy

C. F.Xo'jayev

D. M.Behbudiy

18. S.Ayniy va A.Fitrat asarlariga asosan qatag'on davrigacha Buxoro shahrida nechta madrasa binolari bo'lgan?

A. 200 ga yaqin

B. 300 dan ortiq

C. 75 dan ortiq

D. 185 ta

19. "Alfiqh ul akbar" kitobi muallifi kim?

A. Abu Hanifa

B. Abu Hafs Kabr

C. Jaffar as Sodiq

D. Abu Abdulloh

20.Qiyosni kim tatbiq qilgan?

- A.Abu Hafs Kabr
- B.Abu Hanifa
- C.Jaffar as Sodiq
- D.Abu Abdulloh

21.Birov haqida yaxshilik bilan so'zlash ,eslash prinsipi nima deyiladi?

- A.Istixson
- B.Qiyos
- C.Faqih
- D.Personifikatsiya

22.Muqaddas shaharlarga berilgan unvon nima deb ataladi?

- A.Qubbatul Islom
- B.Qiyos
- C.Fasl al-xitob
- D.Mutaqaddimin

23.So'fi Olloyorning "Sabot ul ojizin" asari qaysi yilda krill va arab alifbosida nashr etildi?

- A.1991-yil
- B.1993-yil
- C.1989-yil
- D.1996-yil

24.Abu Hafs Kabr xalq orasida qaysi laqab bilan mashhur bo'lgan?

- A.Hojatbaror
- B.Hogra
- C.Boykandiy
- D.Husayn

25.Abu Xanifa an No'mon qayerda tug'ilgan?

- A.Kufa
- B.Barkat
- C.Romitan
- D.Sibizmun

26.Imomi A'zam taxallusi bilan tanilgan alloma kim?

- A.Abu Xanifa an No'mon
- B.Imom Ash-shof'iyy
- C.So'fi Olloyor
- D.Shayx Yakubiy Charxiy

- 26.Vara - bu?
- A.parhezgarlik
 - B.sodiqlik
 - C.poklik
 - D.odamlar bilan murosa
- 27.So'fi Olloyor qaysi yilda tavallud topgan?
- A.milodiy 1720
 - B.milodiy 767
 - C.milodiy 699
 - D.milodiy 1447
- 28.Ijmo- ?
- A.arabcha yakdillik
 - B.arabcha sodiqlik
 - C.arabcha poklik
 - D.arabcha to'g'riso'zlik
- 29.Ibn Hambalning diniy-huquqiy va hadisshunoslik sohasidagi "masnod" nomli asari nechi jilddan iborat?
- A .6
 - B. 8
 - C. 5
 - D. 4
- 30."Kalobodiy" laqabi berilgan diniy huquqshunos faqih kim bo'lgan?
- A.Abu Bakriy Ishoq
 - B.Imom Ash-shof'iyy
 - C.So'fi Olloyor
 - D.Shayx Yakubiy Charxiy
- 31.So'fi so'zi qanday ma'noni bildiradi?
- A.jo'npo'sh
 - B.ranj
 - C.to'g'rilik
 - D.poklik
- 32.Asketizm so'zi qanday ma'noni bildiradi?
- A.grekcha mashq qilayotibman
 - B.grekcha sir,asror
 - C.arabcha jo'npo'sh
 - D.arabcha mashaqqat
- 33.Qaysi ta'limot panteizm,asketeizm,mistitizmni targ'ib qiladi?

A.so'fizm

B.sufiylik

C.forobiy

D.kubroviylik

34.O'zining "Al-munkis-minat-dalol" asarida Aristotel,Farobiy va Ibn Sino g'oyalarini inkor qilgan so'fizmning yirik namoyondalaridan biri kim?

A.Abu Hamid Al G'azzoliy

B.Zinda Fil Ahmadiy Jomiy

C.Xoja Yusuf Hamadoniy

D.Abdul Qodir Al-Jeloniy

35.Buxoro shahridagi Imom Muhammad G'azzoliy mozori qaysi dardga shifo beradigan "muqaddas joy" deb hisoblaniladi?

A.bosh og'rig'i

B.sariq kasalligi

C.teri kasalligi

D.ko'z kasalligi

36.Har xil fikrlardan xalos bo'lish ,tashqi olamdan ajralishga intilish nima deb ataladi?

A.Bozgasht

B. Yodkart

C.Nigahdosht

D. Yoddosht

37.Xush dar dam, nazar bar qadam. Safar dar vatan, xilvat dar anjuman. G'oyalarini ilgari surgan ta'limot asoschisi kim?

A.Yusuf Hamadoniy

B.Abu Hamid al-G'azzoliy

C.Abd al-Xoliq G'ijdivoniy

D.Shayx Najmuddin Kubro

38.Yusuf Hamadoniy qaysi ta'limotni ilgari surgan?

A.so'fizm

B.qodiriya

C.kubroviya

D.mavlaviy

39.32 yoshida "Hodiyi a'lam"(to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi,donishmandlik) darajasiga yetgan shayxni ko'rsating?

A.Xoja Abdulkholiq G'ijdivoniy

B.Yusuf Hamadoniy

- C.Abu Hamid al-G'azzoliy
D.Shayx Najmuddin Kubro
40.Ko'hna Urganchning mudofaasida faol ishtirok etgan ulug' donishmandni ko'rsating?
- A.Najmuddin Kubro
B.Xoja Abdulxoliq G'ijdivoniy
C.Yusuf Hamadoniy
D.Abu Hamid al-G'azzoliy
- 41.Tarki dunyo qilishga va boshqa xurofotlarga qarshi chiqqan din peshvosini toping?
- A. Shayx Najmuddin Kubro
B.Shayh Sayfiddin Boharziy
C. Xoja Abdulxoliq G'ijdivoniy
D.Yusuf Hamadoniy
42. “Jodugarlikka va davlatga zararli ” kishi sifatida Chig'atoy tomonidan zindonga tashlangan inson kim?
- A. Abu Yoqub as-Sakkokiy
B. Xondamir
C. Xabash Amida
D.Abu Hamid al-G'azzoliy
- 43.XIII asrning ikkinchi yarmida yashab, fiqh va islom huquqshunosligi bo'yicha katta ilmga ega bo'lib “Islom yuridik masalalari to'plami” muallifi kim?
- A.Imom Qozixon
B.Imom Ash-shof'iyy
C.So'fi Olloyor
D.Shayx Yakubiy Charxiy
- 44.Imom Qozixon mahallasida yashab o'tgan “Mozori Shayx Ali” deb atalgan avliyo Makkayi Munavvaraga va Madinayi Muazzimaga necha marta piyoda haj qilgan?
- A.18
B.20
C.22
D.24
- 45.“Haji piyoda” deb atalgan avliyo kim?
- A.Mozori Shayx Ali
B.Imom Qozixon
C.Shayx Hasan Namadpo'sh

D.Shayx Ali Buxoriy

46.“Xoja Azizon ” tariqatining namoyondalaridan biri bo’lib forstojik tillarida she’rlar yozgan mashoyix kim bo’lgan?

- A.Xoja Ali Romitaniy
- B.Abduxoliq G’ijdivoniy
- C.Xoja Orif Revgariy
- D.Xoja Sayid Amir Kulol

47.Biror narsani bajarish uchun to’planish,ittifoq bo’lish bu-?

- A.ijmo
- B.mutavajjeh
- C.rashha
- D.shabeh

48.Bahovuddinning Hindovun qishlog’ida tug’ilishini bashorat qilgan so’fizm tariqati namoyondasi kim?

- A.Boboyi Samosiy
- B.Xoja Ali Romitaniy
- C.Abduxoliq G’ijdivoniy
- D.Xoja Orif Revgariy

49.Sayid Amir Kulolning nechta xalifasi bo’lgan?

- A.124 ta
- B.126 ta
- C.122 ta
- D.120 ta

50.“Qasri Orifon” (“Bilimdonlar qasri”) deb atalgan qishloq qaysi?

- A.Qasri Hinduvon
- B.Samosiy
- C.Suxoriy
- D.Xoja Ilg’or

MUSTAQIL TA‘LIM BO‘YICHA MAVZULAR

1. Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridagi tarixiy manzilgohlar.
2. Narzullo Yo‘ldoshevning “Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi” kitobidagi ayol avliyolar to‘g’risidagi ma’lumotlar.
3. Narzullo Yo‘ldoshev “Buxoro avliyolarining tarixi” asarida o’rta asrlardagi ziyoratgohlar to‘g’risidagi ma’lumotlar.
4. Sadriddin Salim Buxoriyning “Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari” asarida ziyoratgohlar talqini.
5. Abdulkarim as - Sam’oniy “Nasabnoma (al-ansob)” asarida Buxoro vohasi qadamjolari tarixi.
6. Do‘simov Z., Egamov X. “Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati”da tarixiy manzilgohlar masalalarining yoritilishi.
7. Muhammadjonov A.R. “Buxoro shahri 2500 yoshda” asarida tarixiy manzilgohlar masalalarining yoritilishi.
8. Nekrasova E.G. “Arxitektturniye pamyatniki buxarskogo oazisa” asarida Buxoro manzilgohlari.
9. Rajabov Q., Inoyatov S. “Buxoro tarixi” kitobida buxoro tarixi masalalari.
10. Buxoro viloyati Romitan tumanidagi qadimgi ziyoratgohlar.
11. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qadimgi ziyoratgohlar.
12. Buxoro viloyati G’ijduvon tumanidagi qadimgi ziyoratgohlar.
13. Buxoro viloyati Qorako’l tumanidagi qadimgi ziyoratgohlar.
14. Buxoro viloyati Jondor tumanidagi qadimgi ziyoratgohlar.
15. Buxoro viloyati Olot tumanidagi qadimgi ziyoratgohlar.
16. Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi qadimgi ziyoratgohlar.
17. Buxoro viloyati Kogon tumanidagi qadimgi ziyoratgohlar.
18. Buxoro viloyati Peshku tumanidagi qadimgi ziyoratgohlar.
19. Rahmonov T. “Qizbibi - hazrat og‘oyi buzurg” risolasi manba sifatida.
20. Rizayev H., Olimov S., Gadoyev Q., To‘rayev H., Olimov M. “Vobkent tumani” kitobida qadimgi Buxoro tarixi masalalari.
21. Suxareva O.A. “Kvartalnaya obshina buxari” kitobida qadimgi Buxoro guzarlari tarixi masalalari.
22. To‘ra Halimov, Ismoil Qobilov. “Qadimiy va navqiron romitan” kitobida qadimgi Buxoro tarixi masalalari.

KURS ISHI MAVZULARI

1. Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari manba sifatida.
2. Narzullo Yo‘ldoshevning “Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi” kitobida muqaddas qadamjolar tahlili.
3. Narzullo Yo‘ldoshev “Buxoro avliyolarining tarixi” asari manba sifatida.
4. Narzullo Yo‘ldoshev, H.Qurbonov “Buxoro shahri va uning atrofidagi ziyoratgohlar tarixi” asarida qadamjolar masalasi.
5. Hoji Ismatulloh Abdulloh “Markaziy Osiyoda islom madaniyati” asari manba sifatida.
6. Abu Tohirxo‘ja Samarqandiyning “Samariya” (samarqand mozorlari zikri) asari manba sifatida.
7. Sadreddin Salim Buxoriyning “Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari” asari manba sifatida.
8. Abdulkarim as - Sam’oniy “Nasabnama (al-ansob)” asari manba sifatida.
9. Hamro Asadov “Besh mo‘jiza-besh tarix” risolasida qadamjolarninig yoritilishi.
10. Hamro Asadov “Ajdodlari qimmatli yurt” risolasida qadimiy joy nomlari masalalari.
11. Bartold V.V. “Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya” asarida buxorodagi muqaddas qadamjolarning yoritilishi.
12. Do‘simov Z., Egamov X. “Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati”da tarixiy manzilgohlar masalalarining yoritilishi.
13. Ibn Havqal. “Kitob surat al-ard” asari manba sifatida.
14. Mahmud Qoshg‘ariy. “Devonu lug‘ati-t-turk” asari manba sifatida.
15. Muhammadjonov A.R. “Buxoro shahri 2500 yoshda” asarida tarixiy manzilgohlar masalalarining yoritilishi.
16. Nekrasova E.G. “Arxitektturniye pamyatniki buxarskogo oazisa” asarida Buxoro masalalari tarixi.
17. Oxunov Nosirjon. “Joy nomlari ta’biri” risolasida tarixiy joylar masalasi.
18. Rajabov Q., Inoyatov S. “Buxoro tarixi” kitobida buxoro tarixi masalalari.

19. Rajabov Q., Muhammadjonova L. “Romitan tumani tarixi” risolasida qadimgi Buxoro tarixinining yoritilishi.
20. Rajabov Q., Rahmonov K. “Vobkent tumani tarixi” risolasida qadimgi Buxoro tarixinining yoritilishi.
21. Rajabov Q., Jamolova D. “Kogon tumani tarixi” risolasida qadimgi Buxoro tarixinining yoritilishi.
22. Rajabov Q., Temirov F. “Jondor tumani tarixi” risolasida qadimgi Buxoro tarixinining yoritilishi.
23. Rahmatova S., Rurbonov H. “Buxoro guzarlari tarixidan” kitobi manba sifatida.
24. Rahmonov T. “Qizbibi - hazrat og‘oyi buzurg” risolasi manba sifatida.
25. Rizayev H., Olimov S., Gadoyev Q., To‘rayev H., Olimov M. “Vobkent tumani” kitobida qadimgi Buxoro tarixi masalalari.
26. Rizayev H. “Vobkentnomma” kitobida qadimgi Buxoro tarixi masalalari.
27. Suxareva O.A. “Kvartalnaya obshina buxari” kitobida qadimgi Buxoro guzarlari tarixi masalalari.
28. To‘ra Halimov, Ismoil Qobilov. “Qadimiy va navqiron romitan” kitobida qadimgi Buxoro tarixi masalalari.
29. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni. “Maqomoti yusuf hamadoniy” asari manba sifatida.
30. Sayfiddin Sayfulloh. “Buyuklar halqasi (oltin silsila valiylari)  kitobi manba sifatida.

ILOVALAR




MOG'OKI ATTORI MASJIDI



CHASHMAI AYUB MAQBARASI



XOJA UBBON MAJMUASI



SAYFIDDIN BOXARZIY MAQBARASI




BOBOYI PORADO'Z MAQBARASI

**Injom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy,
Iso va Hakim Termiziyalar, Mahmud Zamaxshariy,
Muhammed Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband,
Xoja Ahror Valiy, Muhammed Xorazniy, Ahmad
Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo
Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab dahojar
nomi nafaqat isloq, ayip vaqtida jahon sivilizatsiyasi
tarixida haqli ravishda oltin hafolar bilan bitilgan.**

SH.M.MIRZIYOYEV

**BUXORO VILOYATIDAGI
YETTI PIR
ZIYORATGOHLARI**

1. Xoja Abdulkholiq Gijduvoniy
2. Xoja Orif Revgariy
3. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy
4. Xoja Ali Romitaniy
5. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy
6. Xoja Sayyid Amir Kulol
7. Xoja Bahouddin Naqshband



Buxoro shahrining salkam 500 hektar yerni egallagan qadimiy shahristoni va zamonaviy qismidagi ziyyaratgohlar xaritasi

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
4. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
5. Karimov I. A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliv qadriyat. - Toshkent: O'zbekiston, 2006.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. - Toshkent: O'zbekiston. 2015.

Asosiy adabiyotlar

1. Abduraxman-i Tali. Istorya Abulfeyz-xana / Perevod c tadjikskogo, predislovie i primechaniya A.A.Semenova.- Tashkent: Izd-vo AN UzSSR, 1959.
2. Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi / Fors tilidan A.Rasulev tarjimasi. Mas'ul muharrir A.O'rionboev. Meros seriyasi. - Toshkent: Kamalak, 1991.
3. Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi / Fors tilidan A.Rasulev tarjimasi. Mas'ul muharrir A.O'rionboev. – Toshkent: Sharq bayozi,1993.
4. Narzullo Yo'ldoshev. Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi. Buxoro. 1993.

5. Narzullo Yo'ldoshev. Buxoro avliyolarining tarixi. Buxoro. 1997.
6. Narzullo Yo'ldoshev, H.Qurbanov. Buxoro shahri va uning atrofidagi ziyyaratgohlar tarixi. Buxoro. 2001.
7. Nasilennie pukti Buxarskogo emirata (XIX-nach.- XX v). Otvestvenniy redaktor akademii ANRUz A.R.Muxammedjanov.T., 2001.
8. Istiqlol yillari: milliy-diniy qadriyatlarning xalqqa qaytishi (Buxoro). T., 2001.
9. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. - Toshkent., 2005.
- 10 Abu Tohirxo'ja Samarqandiy "Samariya" (Samarqand mozorlari zikri). Toshkent., 2009.
11. Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyyaratgohlari. T., 2015.
12. Xalq turadigan joylarning ro'yxati. Samarqand O'zbekiston markaziy rayonlashtirish kamissiyasining nashri, 1926 yil. Kirish so'zi, arab alif-bosidan tabdil va ayrim izohlar muallifi Ahtam Axmedov. Buxoro., 2017.
13. Abdulkarim as – Sam'oniy. Nasabnama (al-Ansob).(VIII-XII asrda yashagan O'zbekistonlik olimlar haqida ma'lumot). T., 2017.
14. Hamro Asadov. Besh mo'jiza – besh tarix. Buxoro. 2008.
15. Hamro Asadov. Ajdodlari qimmatli yurt. Buxoro., 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar

16. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. Soch. v 9-tomax. T.1. -M.: Nauka, 1963.
17. Bartold V.V. Stati iz «Entsiklopedii islama». Gijduvan. Soch. v 9-tomax. T.3. - M.: Nauka, 1965.
18. Bartold V.V. Istorya kulturnoy jizni Turkestana. Soch. v 9-tomax. T.2. Chast 1. -M.: Nauka, 1963.
19. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1977.
20. Juraev SH. Sokrovishitsa rukopisey Buxarskogo muzeya: magisterskaya dissertatsiya. - BuxGU, kafedra istorii Buxari, 2020.
21. Ibn Havqal. Kitob surat al-ard / Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi tarix fanlari doktori, professor SH.S. Kamoliddin. - Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat nashriyoti, 2011.

22. Ivanov P.P. Xozyaystvo Djuybarskix sheyxov.– Moskva – Leningrad: Izd-vo AN SSSR, 1954.
23. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk / Solih Mutallibov tarjimasi asosida nashrga tayyorlovchi Qosimjon Sodiqov.-Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2017.
24. Mahmudov M., Berdiev B. Lug'ati muxtasari lahjahoi Buxoro. – Dushanbe: Donish, 1989.
25. Muxammad Nasriddin al- Xanafi al-Kasani al-Buxari. Tuxfat az-zairin // Perevod, predislovie, kommentarii - X.Turaeva.–Tashkent: Fransuzskiy institut issledovaniy Sentralnoy Azii (IFEAC), 2003.
26. Muxammed Amin-i Buxari. Ubaydulla-name / Perevod s tadzhikskogo s primechaniyami
A. A. Semenova.– Tashkent: Izd-vo AN Uz SSR, 1957.
27. Muhammadjonov A.R. Buxoro shahri 2500 yoshda.- Toshkent: Fan, 1998.
28. Farhangi zaboni tojiki (“Slovar tadzhikskogo yazika”).- Moskva: Sovetskaya entsiklopediya, 1969.
29. Nekrasova E.G. Arxitekturnie pamyatniki Buxarskogo oazisa. Chashma-i Ayyub.–Tashkent: Izd-vo Baktria press, 2019.
30. Oxunov Nosirjon. Joy nomlari ta'biri.–Toshkent: O'zbekiston, 1994.
31. Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. – T.: Tafakkur, 2016.
32. Rajabov Q., Muhammadjonova L. Romitan tumani tarixi. Qisqacha ma'lumotnama.–T.: Tafakkur, 2015.
33. Rajabov Q., Rahmonov K. Vobkent tumani tarixi.-Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2015.
34. Rahmatova S., Qurbonov H. Buxoro guzarlari tarixidan. – Buxoro : Buxoro nashriyoti, 1995.
35. Rahmonov T. Qizbibi – Hazrat Og'oyi Buzurg. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot- matbaa birlashmasi, 2017.
36. Rizaev H., Olimov S., Gadoeqv Q., To'raev H., Olimov M. Vobkent tumani.–Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xadq merosi nashriyoti, 2002.
37. Rizaev H. Vobkentnoma. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2007.
38. Sadriddin Ayni. Kulliyot. Jild 12. – Dushanbe: Irfon, 1976.
39. Sayfiddin Sayfulloh. Buyuklar halqasi (Oltin silsila valiylari).–Toshkent: Noshirlik yog'dusi nashriyoti, 2011.

40. Suxareva O.A. Kvartalnaya obshina Buxari.- Moskva: Nauka, 1976.
41. Turaev X. Rol` Djuybarskix xodjey v obshestvenno – politicheskoy i duxovno - kulturnoy jizni Buxarskogo xanstva XVI-XVII vekov. Avtoreferat dissertatsii doktora istoricheskix nauk. – Tashkent, IVAN RUz, 2007.
42. To'ra Halimov, Ismoil Qobilov. Qadimiy va navqiron Romitan. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
43. To'raev H. Vobkent – tarixiy manbalarda // “Sharqshunoslik” jurnali.- Toshkent, 1992. - №3.
44. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniq. Maqomoti Yusuf Hamadoniy / Tarjimon, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi mualliflari Sayfiddin Sayfulloh, Nodirxon Hasan. – Toshkent; Yangi asr avlod, 2005.
45. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. Ikkinchchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
46. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. Beshinchchi jild.– Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

Internet saytlari

1. www.buxoro.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.beruniy.uz
4. www.uzhistory.uz

MUNDARIJA

So‘z boshi.....	3
1-mavzu. Kirish. Buxoro vohasi qadamjolari tarixi fanining predmeti, maqsadi va manbaviy asoslari.....	5
2-mavzu. Buxoro vohasida shakllangan qadimgi va ilk o‘rta asr qadamjolari	7
3-mavzu. Buxoro vohasida islom dinining vujudga kelishi va u bilan bog‘liq bo‘lgan qadamjolar	18
4-mavzu. Buxorodagi Abu Hafs Kabir Buxoriy va Abdulla Abu Hafs Sag‘ir qadamjolari	30
5-mavzu. Vohadagi hunarmandchilik (kasb-kor) bilan bog‘liq qadamjolalar	40
6-mavzu. Buxoro va uning atrofidagi ayol avliyo va qadamjolari	50
7-mavzu. Buxoro vohasidagi Yetti pir ziyoratgohlari	57
8-mavzu. Tasavvuf bilan bog‘liq bo‘lgan avliyo va qadamjolar tarixi.....	69
9-mavzu. Mustaqillik yillarida Buxoro vahasi qadamjolarining qayta tiklanishi	80
Glossariy.....	90
Test savollari	122
Mustaqil ta‘lim bo‘yicha mavzular	130
Kurs ishi mavzulari.....	131
Ilovalar.....	133
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.....	137


DURDONA

DURDONA

OYBEK RAJABOV

BUXORO VOHASI QADAMJOLARI TARIXI

O‘quv qo‘llanma



Muharrir: A. Qalandarov
Texnik muharrir: G. Samiyeva
Musahhih: Sh. Qahhorov
Sahifalovchi: M. Bafoyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 30.11.2023. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 9,0. Adadi 100. Buyurtma №643.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45